



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI

"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI



MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2022/1 (2)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Саидова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бакрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *первый заместитель министра по поддержке Махалли и семьи.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамад Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *First Deputy Minister of the Minister of Mahalla and family support.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
Доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

OILA VA JAMIYAT

Каримова Д.М., Алимжанова Д.М. Женщины в науке: ограничения и новые возможности.....	4
Dalimova N. Turli avlod vakillarining nikohga kirishish xususiyatlari hamda ayollardagi oila va kasbiy majburiyatlarning uyg'unligi	10
Xodjayev S.D. O'zbekistonda keksalar faolligini oshirishning ijtimoiy negizlari	15
Yulchiyeva D.X. O'zbekiston oilalaridagi barqaror ijtimoiy hayotni ta'minlashda gender muammolarini o'rganish hamda targ'ib etish	22

SOTSILOGIYA

Ikmatullayev G'Z. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini	27
Dulanboyeva O.A. Sotsial status va rollar ijodkorlar sotsial qiyofasining zaruriy elementi sifatida.....	32

PSIXOLOGIYA

Эргашев П.С. Пол и чувство симметрии: об одном аспекте половой специфики психоэмоционального развития.....	39
Abdusamatov X.U. Sharq mutafakkirlari asarlarida oila va nikoh munosabatlarining talqin etilishi.....	47

TARIX

Alimova N.R. San'atning tarixiy taraqqiyotida ayol obrazining transformatsiyasi.....	51
---	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Umarova N.Sh. Qadriyatlar yoshlarni iqtisodiy ijtimoiylashtiruvchi muhim omil sifatida	59
Saydivaliyeva X.X. Gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalarning ahamiyati.....	65
Alimov S.K. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha xorijiy tajriba.....	71
Dusnayev Sh.E., Annakulov K.X. Erta nikoh holatining oldini olish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari	77



Каримова Дилдора Мирсабитовна,
Директор Центра научных,
социальных и гуманитарных инициатив “Семья”,
доктор экономических наук



Алимжанова Дилбар Магрибжановна,
Начальник отдела международных отношений
НИИ «Семьи и женщин» при Государственном
комитете семьи и женщин Республики Узбекистан

ЖЕНЩИНЫ В НАУКЕ: ОГРАНИЧЕНИЯ И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы гендерного равенства, которые являются приоритетом Нового Узбекистана. Представленность женщин на рынке труда, в науке, бизнесе, политической сфере всё больше начинает влиять на престиж республики в глобальном мире. Человеческий капитал и участие женщин в исследованиях могут стать драйвером инновационного развития страны. Изучение экономических, социальных и культурных факторов вовлечения женщин в науку позволило авторам выявить ограничения и новые возможности для активного участия женщин в научных исследованиях.

Ключевые слова: гендерный баланс, вовлеченность женщин в науку, культура и стереотипы, мотивы выбора профессии, факторы занятости в науке, научные ННО.

Annotasiya. Maqolada gender tengligi masalalari Yangi O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlariga aylangani ta'kidlab o'tilgan. Xotin-qizlarning mehnat bozorida, ilm-fan, biznes va siyosiy jarayonlardagi ulushi – respublikaning jahon miqyosidagi obro'-e'tiboriga tobora ko'proq ta'sir qila boshladi. Inson kapitali va ayollarning ilmiy tadqiqotlardagi ishtiroki mamlakat innovatsion rivojlanishning drayver kuchiga aylanishi mumkin. Ayollarni ilm-fanga jalb etishning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarini o'rganish kabilar maqola mualliflariga xotin-qizlarning ilmiy-tadqiqotlarda faol ishtirok etishlari uchun mavjud cheklovlar va yangi imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi.

Tayanch so'zlar: gender tengligi, xotin-qizlarning fan, madaniyat va stereotiplarga jalb etilishi, kasb tanlash motivlari, ilm-fanda bandlik omillari, ilmiy NNTlar.

Annotation: Gender equality issues have become a priority for New Uzbekistan. The representation of women in the labor market, in science, business, and the political arena is increasingly beginning to influence the prestige of the republic in the global world. Human capital and women's participation in research can become a driver of the country's innovative development. The study of economic, social and cultural factors of women's involvement in science allowed the authors to identify limitations and new opportunities for women's active participation in scientific research.

Keywords: gender balance, women's involvement in science, culture and stereotypes, motives for choosing a profession, factors of employment in science, scientific NGO.

Введение. Достижение гендерного равенства является одним из основных факторов устойчивого развития общества. Узбекистан в соответствии с резолюцией Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций, принятой на Саммите ООН

по устойчивому развитию в сентябре 2015 года, взял на себя обязательства по последовательной реализации Целей устойчивого развития до 2030 года (далее – ЦУР). Кабинет Министров Республики Узбекистан принял Постановление № 841 «О мерах по реализации Национальных

целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года»¹, в рамках которой утверждены 16 национальных целей (ЦУР) и 125 задач в области устойчивого развития. Вопросы гендерного равенства являются сквозными почти во всех целях и задачах ЦУР, а Цель №5 – «Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек» направлена на повсеместную ликвидацию всех форм дискриминации в отношении женщин и девочек.

В политике государства нашей страны гендерным вопросам уделяется большое внимание – Конституция и национальное законодательство предусматривают равные права мужчин и женщин во всех сферах жизни и деятельности (18 и 46 статьи). Узбекистаном также были ратифицированы основные международные соглашения по правам женщин, в том числе Конвенция ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин, конвенции об охране материнства, равном вознаграждении мужчин и женщин за труд равной ценности и о политических правах женщин.

В 2019 году Парламентом было принято два важных закона: Закон «О гарантиях равных прав и возможностей для мужчин и женщин» и Закон «О защите женщин от притеснений и насилия», образован Комитет Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Вопросы гендерного равенства стали сквозным приоритетом социально-экономического развития нашей страны. Представленность женщин на рынке труда, в науке, бизнесе, политической арене все больше начинает влиять на престиж республики в глобальном мире.

В условиях инновационного развития Узбекистан поставил амбициозную задачу по вхождению в топ 50 стран по рейтингу Глобального инновационного индекса (Global Innovation Index), где из 131 стран мира наша страна в 2020 году занимала 93 место. При расчете индекса среди множества прочих

¹ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №841 «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» от 20.10.2018.

индикаторов учитывается человеческий капитал и участие в исследованиях. Надо сказать, что на сегодняшний день в нашей стране на один миллион населения в среднем приходится 950 научных работников, в то время как в ряде стран (США, стран Евросоюза, России) численность профессиональных исследователей на 1 млн. населения составляет 3-4 тысяч человек. Относительно низкий показатель вовлеченности в науку связан с рядом проблем, касающихся финансирования науки и научной деятельности, системы управления и подготовки кадров, современной инфраструктуры развития науки, формирования информационной среды и т.д.

По поручению главы государства в 2020 году была разработана Концепция развития науки до 2030 года, которая обозначила проблемы и пути решения научной сферы Узбекистана. В результате чего постепенно меняется система государственного управления данной отрасли, система финансирования научной и научно-технической деятельности.

Появляются реальные возможности вовлечения в науку молодых кадров республики. В эпоху глобализации недостаточно заниматься исключительно кабинетными исследованиями, необходимо активно обмениваться мнениями с учёными других стран, выступать инициаторами различных международных форумов, создав онлайн площадку, выдвигать и обсуждать самые смелые научные идеи, активно публиковаться, выступать экспертами в международных научных программах, принимать активное участие в совместных научных проектах.

О месте женщин в науке говорит их публикационная активность. К сожалению, в настоящее время среди статей, опубликованных в международных научных журналах, индексируемых в таких базах данных, как WEB of Science, SCOPUS, валовая доля Узбекистана достаточно низка и составляет около 0,1 процента. Гендерный паритет в части участия в научной деятельности также пока достаточно низок. Согласно базе данных ученых Scopus среди топ-20 ученых за период 2015-2020 годы определены всего 3 представительницы Узбекистана².

² <https://www.uzdaily.uz/ru/post/54864>

Основная часть.

Гендерный баланс в науке. Касательно гендерного баланса в науке, необходимо отметить, что в 2020 году в Узбекистане из более чем 25 тысяч учёных, 39% женщин занимались научной и научно-технической деятельностью³. Женщины среди кандидатов наук составляли 32%, среди докторов наук – 27%.

Если смотреть на динамику этих показателей, то можно говорить о замедлении процесса вовлечения женщин в науку. Десять лет назад наукой занимались более 13 тысяч женщин, что составляло 43% от общего числа ученых.

Какова же ситуация в мире? В среднем всего лишь 30% исследователей в мире составляют женщины. Хотя по странам наблюдается большие различия. Так, в Бразилии женщины составляют 63% ученых-исследователей, в то время как во Франции их доля равна 26%, а в Эфиопии – 8%⁴.

В Швеции женщины составляют большинство (60%) студентов среди первокурсников высших учебных заведений, однако их число снижается на более высоких ступенях обучения: среди аспирантов доля женщин составляет 49%, а среди ученых – всего 36%. Даже в странах с высоким процентом женщин-исследователей, женщины, в основном, работают в сфере образования и в государственном секторе.

За последние 60 лет активного участия женщин в мировой науке гендерные различия в публикационной активности в областях, известных как STEM, только увеличились. С помощью данных Web of Science между 1955 и 2010 годами выяснилось, что в 1955 году женщины составляли 12% активно публикующихся авторов, а к 2005 году их доля возросла до 35%. Также было установлено, что цитируемость статей за авторством мужчин на 30% выше⁵. Исследователи связывают гендерные различия в публикационной активности с тем, что женщины чаще мужчин оставляют

исследовательскую карьеру, прежде всего, по семейным обстоятельствам.

Факторы занятости женщин в науке.

Изучив работы зарубежных ученых, авторами статьи выявлены основные экономические, социальные и культурные факторы вовлеченности женщин в науку (рис.1).

Экономические факторы обусловлены количеством научных организаций в стране, уровнем оплаты труда научных работников, возможностью проводить исследования за рубежом, гибким режимом работы (дистанционная работа, самозанятые, фрилансеры и т.д.).

На сегодняшний день научный сектор нашей страны состоит из более 100 академических и отраслевых научных учреждений, из них осуществляют свою деятельность 65 научно-исследовательских институтов, 31 исследовательских центров, а также 8 научных организаций другого типа. Наряду с этим, научные исследования проводятся также в высших образовательных учреждениях и их филиалах. Их в Узбекистане 114, включая 21 филиал зарубежных вузов.

Наличие ученой степени, звания или опыта научной деятельности влияет на оплату труда. Заработная плата ученых более чем в 2 раза превышает средний уровень по экономике в целом.

³ Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. <https://gender.stat.uz/>

⁴ Интерактивный справочный инструмент «Женщины в науке», разработанный Статистическим институтом ЮНЕСКО. <https://ru.unesco.org/news>

⁵ Proceedings of the National Academy of Sciences (PNAS)

Факторы занятости женщин в науке

Экономические факторы	Социальные факторы	Культурные аспекты
<ul style="list-style-type: none"> • направленность экономики на инновационное развитие • рабочие места в сфере науки • заработная плата научных работников • гибкий режим работы • возможности научной деятельности за рубежом 	<ul style="list-style-type: none"> • правовая база и политика обеспечения гендерного равенства • квоты для девушек при поступлении в вузы • охват молодежи высшим образованием • возможности обучения за рубежом • престиж сферы науки 	<ul style="list-style-type: none"> • религиозные и историко-культурные нормы • образ жизни • семейные ценности • система мировоззрения в обществе

Рис.1. Факторы занятости женщин в науке

Источник: Подготовлено авторами статьи

В Узбекистане, в соответствии с Концепцией развития науки до 2030 года появилась возможность обучаться и осуществлять научную деятельность за рубежом. Государство оказывает содействие в организации краткосрочных научных стажировок, обучении, повышении квалификации в ведущих зарубежных исследовательских центрах, участии в международных научно-технических конференциях и научных проектах, а также издании научных работ за счет средств Фонда поддержки инновационного развития и новаторских идей и Фонда «Эл-юрт умиди»⁶. Так, благодаря фонду «Эл-юрт умиди» предусмотрено в 5 раз увеличить количество молодежи, направляемой на обучение в магистратуру и докторантуру престижных зарубежных университетов (впервые по направлению бакалавриата будут направлены 200 юношей и девушек).

⁶ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29.10.2020 г.

В виде социальных факторов важно учитывать охват молодежи высшим образованием, а также уровень и динамику числа девушек, поступающих в высшие учебные заведения и докторантуру, а также тех, кто работает в научных учреждениях. Так, в 2020/2021 учебном году при поступлении в высшие учебные заведения девушки составляли 46%, среди докторантов - 39%, и столько же среди работающих в сфере науки⁷.

Проводимая политика государства по увеличению числа вузов, увеличение квот для поступления в вузы (абитуриентам с инвалидностью, воспитанникам из детских домов, девушкам из малообеспеченных семей или отдаленных районов⁸ и т.д.), работа с молодежью способствуют расширению охвата

⁷ <https://gender.stat.uz>

⁸ Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-5157 «О параметрах государственного заказа по приему на учебу в высшие образовательные учреждения Республики Узбекистан в 2021/2022 учебном году» от 22.06.2021 г.

молодых людей высшим образованием с 9% в 2016 году до 28% в 2021 году, а к 2030 году намечено довести этот показатель до 60%. То есть кадровый потенциал создает основу для увеличения числа ученых в республике, включая женщин.

Надо также отметить, что рост обеспеченности семей детскими дошкольными учреждениями (до 50,9% в 2020 году) даёт возможность снижать занятость женщин воспитанием детей и увеличивать возможности трудоустройства, в том числе в сфере науки.

Гендерное неравенство в науке не в меньшей мере связано с культурной атмосферой в семье, со стереотипами в обществе. Например, мотивы выбора женщинами профессии. Как известно, в сфере занятости женщины сосредоточены в основном в системе образования и здравоохранения. При выборе профессии мотивом служит не столько трудоустройство и успешная карьера, сколько стремление получить специальность, которая будет полезной в семейной жизни – медицинский работник, воспитатель, швея.

В нашем обществе еще бытуют стереотипы в отношении распределения домашнего труда в семье, загруженность женщины в домашнем хозяйстве остается важным ограничительным фактором. Так, по данным выборочного обследования домашних хозяйств Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике в 2018 году женщины заняты домашним бытом 5,2 часа в день, в то время как мужчины – всего лишь 2 часа в день⁹. То есть поддержание традиционных ролей в семье, сохранение феномена «двойной нагрузки», когда на женщину возлагаются все обязанности по уходу за родителями, домом и воспитанию детей, создают неравные шансы и возможности для продвижения в карьере, полного погружения в научный труд.

Значит различия в положении женщин и мужчин все ещё существуют. И не все гарантированные законами равные права подкреплены гарантированными возможностями.

Возможности вовлечения женщин в научную деятельность. Один из мифов о женщинах в науке звучит так: «Заниматься

одновременно наукой и семьей не просто трудно, а невозможно». В мире такой подход постепенно теряет свою актуальность, что обусловлено активностью и инициативностью самих женщин.

«...Для того чтобы достичь полного и равного доступа женщин и девочек к науке, а также обеспечить гендерное равенство и расширение прав и возможностей женщин и девочек, Генеральная Ассамблея приняла резолюцию 70/212, провозглашающую 11 февраля Международным днём женщин и девочек в науке». Этот день еще раз открывает возможности рассказать о прошлых, настоящих и будущих инициативах в поддержку женщин, которые хотят сделать карьеру в науке. Ведь в мире, да и у нас в стране, множество примеров современных женщин-ученых, которые возглавляют научные учреждения, совершают открытия, преподают и меняют наши представления не только о мире вокруг, но и об академической карьере женщин.

Полезен мировой опыт в части развития гражданских институтов (неправительственных организаций), которые проводят плодотворные работы в области науки, ведут активное сотрудничество с другими зарубежными учеными и организациями.

В последнее время в Узбекистане наблюдаются тенденции по формированию активного гражданского общества. В стране насчитывается более 9 тысяч ННО, действуют филиалы и представительства более 30 международных и иностранных неправительственных организаций. Нормативно-правовая база для развития ННО включает около 20 законов, актов Президента Республики Узбекистан и решений Правительства. По инициативе Президента страны реализуется Концепция развития гражданского общества в 2021 — 2025 годах с развернутой Дорожной картой конкретных действий¹⁰. Однако, несмотря на такие меры, в должной степени не ощущается участие научных ННО в системном изучении проблем населения, их решении, особенно в поддержке женщин, детей и молодежи.

Таким образом, на уровне государства проводится комплексная работа по обеспечению

⁹ <https://gender.stat.uz>

¹⁰ Указ Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2021 года № УП-6181 «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021–2025 годах»

гендерного равенства, включая сферу образования и науки. Однако сохранение феномена «двойной нагрузки» на женщин в быту, стереотипы и мотивы выбора женщинами профессии, не ориентированной на академическую карьеру, ограничивают возможности женщин в части образования и их занятости в сфере науки.

Заключение. Подводя итоги, хотелось бы представить ряд предложений по расширению процесса вовлечения женщин в научную деятельность, в частности следующим путем:

- пропагандистская работа по разрушению гендерных стереотипов, стимулирование женщин развивать свои личные способности, стремиться к профессиональному росту и делать правильный жизненный выбор;
- дальнейшее совершенствование механизма реализации гендерной политики на основе принципа «наука + государство + институты гражданского общества»;

- глубокое изучение научно-ориентированных женских ННО с теоретической точки зрения и постоянный анализ их развития, создание правовых основ понятий «научные гражданские институты» и совершенствование их организационно-правовых форм;

- оказание содействия занятости женщин в науке и дальнейшее совершенствование механизма их государственной поддержки, в частности усиление адресности при выделении субсидий, грантов и социальных заказов;

- разработка государственных программ по широкому вовлечению женских научных негосударственных некоммерческих организаций в решение приоритетных задач государства;

- развитие волонтерской и благотворительной деятельности в сфере науки и исследований.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29.10.2020 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6181 «Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021–2025 годах» от 04.03.2021 г.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-5157 «О параметрах государственного заказа по приему на учебу в высшие образовательные учреждения Республики Узбекистан в 2021/2022 учебном году» от 22.06.2021 г.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №841 «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» от 20.10.2018 г.
5. Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. <https://gender.stat.uz/>
6. Интерактивный справочный инструмент «Женщины в науке», разработанный Статистическим институтом ЮНЕСКО. <https://ru.unesco.org/news>.
7. Российская наука в цифрах. – Москва: НИУ «Высшая школа экономики», 2018.



Dalimova Nilufar,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent,
e-mail: n.dalimova@mail.ru

TURLI AVLOD VAKILLARINING NIKOHGA KIRISHISH XUSUSIYATLARI HAMDA AYOLLARDAGI OILA VA KASBIY MAJBURIYATLARNING UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Hozirgi kunda oilaviy qadriyatlarni o'rganish juda muhim masala hisoblanadi. Chunki oilalar mustahkamligini ta'minlashda, oilaviy ajralishlarning oldini olishda hamda oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratishda oilaviy qadriyatlarning, an'analarning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Mazkur maqola ham oilalardagi qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu muammo doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, an'analar, oila tarixi, oila dinamikasi.

Аннотация. Изучение семейных ценностей на сегодняшний день является очень важной задачей. Потому что, наличие семейных ценностей, традиций имеет большое значение в обеспечении прочности семей, предотвращении семейных разводов и создании здоровой духовно-нравственной атмосферы в семьях. Данная статья посвящена изучению ценностей в семьях, в ней освещены результаты исследований, проведенных в рамках данной проблемы.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, традиции, история семьи, динамика семьи.

Annotation. The study of family values is a very important task today. Because the presence of family values and traditions is a great importance in ensuring the strength of families, preventing family divorces and creating a healthy spiritual and moral atmosphere in families. This article is devoted to the study of values in families, it highlights the results of research conducted within the framework of this problem.

Keywords: family, family values, traditions, family history, family dynamics.

Kirish. Hozirgi kunga kelib hayotiy qadriyatlar muammosi rivojlanishning yangi bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar, yashash uchun imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog'liq. Qadriyatlar haqidagi g'oyalar evolyutsiyasini tahlil qilish uni erta tajriba bilan aniqlangan ongsiz tuzilma sifatida talqin qilishdan uzoqlashish va uni inson mavjudligining turli kontekstlarini bog'laydigan ko'p o'lchovli konstrukt sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Hayotiy qadriyatlarni o'rganishning

zamonaviy metodik yondashuvlari uch aspektida keltirilgan: sotsiologik (hayot jadvali), amaliyotga yo'naltirilgan (bolalikda o'zlashtirilgan tajriba va an'analar) va tadqiqot (turli yosh bosqichlarida, voqealar ketma-ketligi va shaxsiy tarixdagi hayotiy qadriyatlarni tasvirlash orqali).

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatning o'zgarishlari zamirida hayotiy qadriyatlar tushunchasi hamda uning empirik tadqiqotlarini nazariy ishlab chiqish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi. Bu zamonaviy

dunyo voqeliklari o'rtasidagi o'sib borayotgan ziddiyatlar, hayot mazmuni haqidagi g'oyalar, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, Internet tarmog'i orqali uzatilayotgan hayot istiqbollari hamda insonning hayot vazifalari haqidagi mavjud an'anaviy tasavvurlari (o'qish, ish, oila/bolalar) va ularning vaqt oralig'i bilan bog'liq.

Keng miqyosda oilani qo'llab-quvvatlash barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mexanizmi sifatida qaraladi, shu jumladan, qashshoqlikni yo'q qilish, sog'lik va farovonlikni ta'minlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning huquqlarini himoya qilish va tengsizlikni kamaytirish¹.

Zamonaviy oila duch keladigan ko'plab muammolarning globallasuvi gender omilini, ish va oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanatni, uysiz oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni hisobga olgan holda oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq². Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nuqtayi nazaridan, bolalarni parvarish qilish xizmatlarini kengaytirish, erkaklar va ayollar uchun teng haq to'lash hamda oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish masalalarini hal qilish bo'yicha davlatlarning amaliy chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning ijtimoiy siyosat sohasidagi tizimli yondashuvi oila institutini mustahkamlash, shuningdek, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish (masalan, tuman va shahar darajasidagi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari, Zo'ravonlik va o'z joniga qasd qilishning oldini olish, jabrlanganlarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi) hamda oilani qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishga doir harakatlarda o'z ifodasini topmoqda. Masalan, O'zbekistonda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar amal qilmoqda, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul

¹ Цели в области устойчивого развития//Сайт Организации Объединенных Наций: URL: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals>

² Доклад «Реализация целей Международного года семьи и связанных с ним последующих процессов». 26.11.2019. Генеральная Ассамблея и Экономический и Социальный Совет Организации Объединенных Наций. URL: <http://undocs.org/ru/A/75/61%E2%80%93E/2020/4>.

qilindi³ hamda ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashuv tizimini takomillashtirish, shuningdek, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi⁴.

Ushbu muhim masalalardan kelib chiqqan holda biz ham oilaviy qadriyatlarni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Buning uchun tadqiqotimizda 410 nafar kishi ishtirok etdi, shundan 99 nafari erkak, 311 nafari ayollardir. Yosh davrlarini tabaqalashtirishga ko'ra, 18,8% respondentlar – o'spirinlik davri (21 yoshgacha), 48,8% – yetuklik davrining birinchi bosqichida (22–35 yosh), 31% – yetuklik davrining ikkinchi bosqichida (31–60 yosh), 1,5% qarilik davridagi (61 yoshdan yuqori) respondentlardir. Tadqiqot ishtirokchilarining o'rtacha yoshi – 32,10±11,06.

Tadqiqotning maqsadi turli avlod vakillari oilaviy qadriyatlarining o'ziga xosligini tizimli yondashuv asosida o'rganishdan iborat.

Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, nikohga kirishning asosiy motivi sifatida muhabbat va juftiga bog'langanlik (54,6%), o'z avlodini davom ettirish (49%), jamoatchilik an'analari (40%) ko'rsatkichlari dominantalik qilgan.

Aytib o'tish joizki, ayollar (32,5%) erkaklarga (13,1%) nisbatan ko'proq nikohga kirishishning asosiy sababi sifatida ota-onalar, qarindoshlar, do'stlar tomonidan bo'ladigan bosimni ko'rsatishgan. Bundan tashqari, ayollar nikohga kirishishning asosiy sabablaridan biri o'zining moddiy ahvolini yaxshilash imkoniyati (20,6% va 10,1% mos ravishda) degan fikrni erkaklarga nisbatan ko'proq bildirishgan. Erkaklar esa ayollarga nisbatan ko'proq farzandli bo'lishni kutish (33,3% va 19,3% mos ravishda) va jinsiy ehtiyojlarni qondirishni (20,2% va 12,2% mos ravishda) nikohga kirishishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatib o'tishgan.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-3808-сон қарори


⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.07.2018 й. ПҚ-3827-сон «Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

Respondentlar tomonidan O'zbekistonda nikohga kirishish motivlarining baholanishi, %
(umumiy tanlama va jins xususiyatlari bo'yicha)*

№	Javob variantlari	Umumiy tanlama bo'yicha	Erkaklar	Ayollar
1	Muhabbat va juftiga bog'langanlik	54,6	61,6	52,4
2	Avlodini davom ettirish istagi	49,0	55,6	46,9
3	Chunki an'analarda shunday	40,0	35,4	41,5
4	Ota-ona, qarindosh, do'stlar tomonidan bosim	27,8	13,1	32,5
5	Farzandli bo'lishni kutish	22,7	33,3	19,3
6	O'z moddiy muammolarini yaxshilash imkoniyati	18,0	10,1	20,6
7	Bo'lajak turmush o'rtoqlar dunyoqarashining o'xshashligi	17,1	18,2	16,7
8	Jinsiy ehtiyojlarini qondirish	14,1	20,2	12,2
9	Jamiyatda o'z o'rini yaxshilash istagi	12,7	15,2	11,9
10	Yolg'iz qolishdan qo'rqish	11,0	9,1	11,6
11	Barqaror qarilikni ta'minlash	10,0	14,1	8,7
12	Ota-ona yoki qarindoshlardan qochish	7,1	3,0	8,4
13	Kimdir haqida qayg'urish ehtiyoji	6,6	13,1	4,5
14	Psixologik qo'llab-quvvatlash va himoyaga bo'lgan ehtiyoj	5,1	3,0	5,8

* respondentlarga bittadan ko'p javob tanlash imkoniyati berildi.

Z avlod vakillari (23–37 yosh), Y (23–37 yosh) va X (38–57 yosh) avlod vakillariga nisbatan ko'proq nikohga kirishish motivi sifatida juftiga muhabbat va bog'langanlikni ko'rsatib o'tishgan (66,7%, 54,1% va 44,3% mos ravishda). O'zbekistonda nikohga kirishishning asosiy sababi sifatida ota-ona, qarindosh, do'stlar tomonidan bo'ladigan bosim degan fikrni ikki avlod, ya'ni Y (23–37 yosh) va Z (23–37 yosh) avlod vakillari X (38–57 yosh) avlod vakillariga nisbatan ko'proq ko'rsatib o'tishgan (30,9%, 32,3% va 19,6% mos ravishda).




1-rasm. Respondentlar tomonidan O'zbekistonda nikohga kirishish motivlarining baholanishi %
(umumiy tanlama va jins xususiyatlari bo'yicha)*

Nikohdan o'tishning eng optimal vaqti deb respondentlar birgalikda yashashdan oldin degan javobni ko'rsatib o'tishgan (74,4%), "bir hududda birgalikda yashay boshlagandan so'ng" degan javob (12%) va "bir necha yil birgalikda yashagandan so'ng" degan javob (6,1%) respondentlar tomonidan eng kam tanlangan.

Nikohdan o'tishning eng optimal vaqti bo'yicha respondentlarning fikrlari, %
(umumiy tanlama va jins xususiyatlari bo'yicha)*

№	Javob variantlari	Umumiy tanlama bo'yicha	Erkaklar	Ayollar
1	oilaviy hayot boshlangunicha	74,4	72,7	74,9
2	bir hududda birgalikda yashay boshlagandan so'ng	12,0	12,1	11,9
3	bir necha yil birgalikda yashagandan so'ng	6,1	9,1	5,1
4	bola tug'ilganidan so'ng	0,7	1,0	0,6
5	umumiy mulk paydo bo'lganidan so'ng	0,2	1,0	-
6	nikohdan o'tishga zarurat yo'q	1,5	1,0	1,6
7	boshqa	5,1	3,0	5,8

Nikohga kirishning optimal vaqti oilaviy hayot boshlangunicha bo'lgan vaqt, degan javobni eng ko'p qo'llab-quvvatlagan avlod Z avlod vakillari (23–37 yosh) bo'lib, ularning 81,3% i ushbu javob variantini tanlashgan. Xuddi shu ko'rsatkich bo'yicha Y avlod vakillari (23–37 yosh) 74,9% hamda X avlod vakillari (38–57 yosh) 66% natijalarni qo'lga kiritishgan.



2-rasm. Nikohdan o'tishning eng optimal vaqti bo'yicha respondentlarning fikrlari, %
(umumiy tanlama va jins xususiyatlari bo'yicha)*

57,6% respondentlarning fikricha, ayol kishi farzandli bo'lganidan so'ng uni 3 yoshgacha tarbiyalab, keyin ishga qaytishi lozim. Ta'kidlash joizki, bu fikr ayollarga nisbatan ko'proq erkaklarga xos bo'lib, erkaklarning 63,6% i va ayollarning 55,6% i ushbu fikrni ma'qullashgan.


Respondentlarning ayol kishining onalik va kasbiy majburiyatlarini birgalikda olib borishi haqidagi fikrlari, % (umumiy tanlanma va jins bo'yicha)*

№	Javoblar	Umumiy tanlanma bo'yicha	Erkaklar	Ayollar
1	yaxshisi, umuman oila qurish kerakmas	3,7	6,1	2,9
2	turmush o'rtoq, juftiga ega bo'lish, lekin bolalik bo'lmaslik kerak	3,2	4,0	2,9
3	bola tug'ib, ishni ham tashlab qo'yimaslik kerak	46,8	32,3	51,4
4	farzandli bo'lganidan so'ng uni 3 yoshgacha tarbiyalab, keyin ishga qaytish	57,6	63,6	55,6
5	bola tug'ilganda, ishni tashlab, ularni maktabgacha tarbiyalab, keyin ishga qaytish lozim	19,8	23,2	18,6
6	bola tug'ilgandan keyin ishni butunlay tashlab, o'zini oilaga bag'ishlash lozim	9,5	18,2	6,8

* respondentlar bir necha variantni tanlash imkoniga ega.

Shuningdek, respondentlar orasida “bola tug‘ib, ishni ham tashlab qo‘ymaslik kerak”, degan javob ham ustuvorlik qildi, ya’ni respondentlarning 46,8% i ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlashdi. Aytish joizki, bu fikr ko‘proq erkaklarga (32,3%) nisbatan ayollarga xosdir (51,4%).

Ayol kishining onalik va kasbiy majburiyatlarini birgalikda olib borishlari haqidagi uchinchi ustuvor fikr bu “bola tug‘ilganda, ishni tashlab, ularni maktabgacha tarbiyalab, keyin ishga qaytish lozim” (19,8%), degan fikr bo‘ldi.



3-rasm. Respondentlarning ayol kishi onalik va kasbiy majburiyatlarini birgalikda olib borishi haqidagi fikrlari % (avlodlar bo'yicha)*

Shunday qilib, respondentlarning nikohga kirish motivlari, nikohga kirishishning optimal vaqti xususiyatlari hamda ayollarning oilaviy va kasbiy majburiyatlarini birgalikda olib borishlari haqidagi javoblari aniq ko‘rinib turgan gender va yoshga xos xususiyatlarga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, oilaviy qadriyatlarining yaxlitligi hamda ko‘p o‘lchovli tabiati unda kognitiv, hissiy va xulq-atvor tarkibiy qismlarini ajratishda namoyon bo‘ladi, ularning murakkab o‘zaro ta’siri turli avlod vakillarining qadriyatlarida ko‘rinadi. Maqolada ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-psixologik (ijtimoiy-psixologik moslashuv, ijtimoiy-kognitiv motivatsion va o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari, kommunikativ va gender xususiyatlari) omillar turli avlod vakillarining qadriyatlarini belgilovchi omil sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гуткин М.С. Твоя профессиональная карьера. – Москва: Просвещение, 2000. – 192 с.
2. Шиндряева И.В. Профессиональные ценностные ориентации молодежи в контексте поколенческой теории. Cyberleninka, 2015. – № 6. – С.144–150.
3. Ярычев Н.У. Система ценностных ориентаций в разрезе поколений. [Евразийский Научный Журнал, 2016, – №2.](#) – С. 168–171.
4. Суетина Н.М. Ценности старшего поколения как фактор социальной стабильности: Дис... . канд. социол. наук. – Майкоп, 2006. – 150 с.
5. Strauss W., Howe N. The Fourth Turning: An American Prophecy – What the Cycles of History Tell Us About America’s Next Rendezvous with Destiny. – New York, 1997.



Xodjaye Sobir Djumayevich,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i
Email: khsobir@yahoo.com

O'ZBEKISTONDA KEKSALAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY NEGIZLARI

Annotatsiya. Maqolada tadqiqot natijalari asosida keksalarning ijtimoiy faolligi, ularda sog'lom turmush tarzini ta'minlash bilan bog'liq holat va muammolar ochib berilgan. Shuningdek, unda keksalarning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Tayanch so'zlar: keksalik, qarish, sotsiogerontologiya, nafaqa yoshi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik, begonalashuv, nafaqaga chiqish.

Аннотация. В статье раскрывается социальная активность пожилых людей, состояния и проблемы, связанные с обеспечением у них здорового образа жизни по результатам социологического исследования. С матерья также содержит предложения и рекомендации по повышению социальной активности пожилых людей в стране.

Ключевые слова: старость, старение, социogerontология, пенсионный возраст, социальная защита, социальная поддержка, здоровый образ жизни, социальная активность, отчуждение, выход на пенсию.

Annotation. The article reveals the social activity of elder people, the conditions and problems associated with ensuring a healthy lifestyle for them according to the results of a sociological survey. It also contains proposals and recommendations for increasing the social activity of older people in the country.

Key words: old age, aging, sociogerontology, retirement age, social protection, social support, healthy lifestyle, social activity, alienation, retirement.

Kirish. Dunyoning aksariyat davlatlarida Kodamlar muayyan yoshga qadam qo'yib, jismoniy va aqliy mehnat faoliyati hamda ijtimoiy roli o'zgariganida keksalar toifasiga o'ta boshlaydi. Bu o'zgarishlar nimalarda namoyon bo'ladi? Bu davr ko'pincha inson salomatligining yomonlashuvi, aqliy qobiliyati va tana funksiyalarining pasayishi bilan tavsiflanadi. Tibbiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, qarilik inson tanasida qaytarilmas o'zgarishlar ro'y berishi bilan boshlanadi va odatda bu xususiyat 55 yoshdan oshgan kishilarga tegishli

bo'ladi¹. Iqtisodiyot nuqtayi nazaridan qarilikni mehnat yoshidan kattaroq yoshning boshlanishidan e'tiboran hisoblash mumkin.

Asosiy qism. Qarish ko'p qirrali hodisadir². Unda ekzistensial, ijtimoiy, psixologik, biologik

¹ Тукумцева Б. Словарь-справочник по социальной геронтологии/под ред. – Самара: Самарский университет, 2003. – С 16.

² Ахолининг қариши ("vieillessement de la population") атамасини биринчи бўлиб француз демографи А.Сови (Sauvy А) киритган. Қаранг: Sauvy А. La population française jusqu'en 1956: Essai de prévision démographique // J. de la Société de Paris. – Paris, 1928. – N 12. – P. 321–327.

va boshqa jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Qarilik va qarish haqidagi fanlararo bilim sohasi gerontologiya hisoblanadi. Ijtimoiy gerontologiya gerontologiyaning bir tarmog'i sifatida, birinchi navbatda, ko'rib chiqilayotgan hodisaning ijtimoiy tomonlariga qaratiladi, shu bilan birga, u qarishning biologiyasi va psixologiyasi bilan bog'liqligini o'rganadi.

O'z navbatida, qarish sotsiologiyasi bu hodisani sotsiologiya doirasida ko'rib chiqadigan sotsiologiyaning bir tarmog'i hisoblanadi. Shu tufayli u keksa kishilarning ijtimoiy rollari, qadriyatlar va ularga nisbatan bo'ladigan munosabatlardagi ijtimoiy me'yorlar, ularning referent guruhlari, ijtimoiy mavqeyi (oila ichi va tashqarisida), turmush tarzi o'zgarishi bilan bog'liq boshqa masalalar bilan shug'ullanadi. Jamiyatda qarish hodisasini tadqiq etishda T.Parsonsnining strukturaviy funksionalizmi, R.Darendorfning sotsial konflikt nazariyasi, Dj. Xomans, P.Blauning ayirboshlash nazariyasi, ramziy interaksionizm (Dj.G.Mid, I.Gofman), P.Berger va T.Lukmanning ijtimoiy konstruktivizmi va bir qator nazariyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Keksa kishilarning ijtimoiy, tibbiy va psixologik muammolari, shuningdek, kishi qarishining ayrim jabhalari ko'pgina tabiiy va ijtimoiy fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Lekin ularning aksariyati uchun bu muammolar asosiy muammo hisoblanmaydi. Shuning uchun 1914-yilda dastlab tibbiyotda keksalik muammolari va qarishni o'zining asosiy tadqiqot obyekti sifatida belgilagan ilmiy yo'nalish – gerontologiya vujudga keldi. Keyinchalik gerontologiya muammosi, aynan, tibbiyot bilimlari chegarasidan chiqishi, zarur bo'lganda, turli "yordamchi" kasb mutaxassislari hamda boshqa ilmiy sohalarda yig'ilgan bilimlardan foydalanishi tez orada ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham gerontologiya bu ma'noda ko'pgina boshqa ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar "tutashgan" nuqtada turadi³. Har bir fan keksayayotgan insonning muammolarini yechishda o'zining metod va yondashuvlari bilan uning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Yuqorida sanab o'tilgan sotsiogerontologik nazariyalar keksalik sotsiologiyasidagi asosiy ta'limotlar hisoblanadi. Shu bilan birga, gerontologiya sohasida muvaffaqiyatli qarish ta'limotlari

³ Монсон П. Современная западная социология: теория, традиции, перспективы/ Пер со шв. – Санкт-Петербург. 1992.

ishlab chiqilmoqda⁴, nazariy nuqtayi nazardan ular hozirgi vaqtda keksa odamlarning hayot sifatini yaxshilash bo'yicha g'oyalarning butun majmuasini ifodalaydi va keksalikning ijtimoiy jihatlari to'g'risida bilimlarni amaliy qo'llash borasida muhim ahamiyatga ega. Keksalik sotsiologiyasi doirasida bevosita ishlab chiqilgan nazariyalardan biri sifatida ijtimoiy stratifikatsiya va aholi tarkibida keksalar guruhining o'rniga bag'ishlangan M.Rayli va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyani⁵ ko'rsatish mumkin.

Keksalik faqatgina jismoniy va aqliy o'zgarishlar hamda organizmning qarishi bilan belgilanmaydi. Inson keksalikni his qilishni, odatda, pensiyaga chiqqandan keyin boshlaydi va shu holatdagina uning hayotida, aytish mumkinki, mutlaqo yangicha turmush tarziga ega bo'lgan davr boshlanadi. Bu davr, o'z navbatida, ijtimoiy jihatdan kishining yangicha bir shaxs turiga aylanishiga sabab bo'ladi.

Nafaqa yoshi turli mamlakatlarda farq qilib, inson band bo'lgan mehnat faoliyatidan kelib chiqib, 27 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan oraliqda belgilangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 60 yoshdan oshgan, BMT esa 65 yoshdan oshgan odamlarni keksa odamlar sifatida tasniflaydi⁶. O'zbekistonda yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar esa 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar⁷. Ba'zi holatlarda ular mos ravishda 58 va 53 yoshda pensiyaga chiqishlari mumkin.

2022-yilning boshiga kelib O'zbekistonda aholining 60 yoshdan katta qismi, ya'ni keksalarning umumiy soni 3 101 423 nafarni tashkil etdi. Ularning 1 298 018 nafari, ya'ni 41,83 foizini 60–64 yoshli, 820 718 nafari, ya'ni 26,45 foizini 65–69 yoshli

⁴ Avighurst R.J. Successful aging // The Gerontologist. – Oxford, 1961. – Vol. 1, – N 1. – P. 8–13; Rowe J.W., Kahn R.L. Successful aging // The Gerontologist. – Oxford, 1997. – Vol. 37, – N 4. – P. 433–440; Lander McCarthy V., Bockweg A. The role of transcendence in a holistic view of successful aging // J. of holistic nursing. – Los Angeles (CA), 2013. – Vol. 31, – N 2. – P. 84–92.

⁵ Aging and society / Ed. by M.W. Riley, M. Johnson, A. Foner. – New York: Russell age foundation, 1972. – Vol. 3: A sociology of age stratification; Russell M. Aging and cohort succession. Interpretation and misinterpretation//Public opinion quart. Oxford, 1973. – Vol. 37, – №1. – P. 35–50.

⁶ Старость. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

⁷ Фукарларнинг Давлат пенсия таъминоти тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни <https://www.lex.uz/acts/112314>

keksalar, 503 149 nafari, ya'ni 16,21 foizini 70–74 yoshli, 247 365 nafari, ya'ni 7,979 foizini 75–79 yoshli, 161 159 nafari, ya'ni 5,19 foizini 80–84 yoshli va qariyb 73 014 nafari, ya'ni 2,35 foizini esa 85 yoshga yetgan va undan katta bo'lgan nuroniylar tashkil etadi. Raqamlardan ko'rinib turibdiki, keksalarning yosh ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi bilan ularning soni kamayib bormoqda.

1-jadval

Keksalarning yosh toifalari bo'yicha ulushi (ayol/erkak kesimida)

(2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)⁸

Yosh toifalari	Keksalar	
	soni	foizi
60–64 yosh	1 298 018	41,83
65–69 yosh	820 718	26,45
70–74 yosh	503 149	16,21
75–79 yosh	247 365	7,97
80–84 yosh	161 159	5,19
85 va undan katta	73 014	2,35
	3103423	100,0

2021-yilning oktabr-noyabr oylarida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Keksalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan bo'lib⁹, tadqiqotning asosiy maqsadi keksalar hayotini sotsiologik jihatdan tahlil qilish va baholash orqali ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, munosib hayot kechirishi hamda ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.


Insonning o'z hayotidan qoniqish darajasi ko'p hollarda uning kayfiyatini, kelajakka bo'lgan ishonchini, ijtimoiy faolligi, jismoniy va ruhiy salomatligini belgilab beradi. Jamiyatimizdagi keksalar orasida ularga qaratilayotgan e'tibordan qoniqish darajasi o'rganilganida, aksariyat respondentlar "qisman qoniqaman" (42%), – deb javob berdi. Shu bilan birgalikda, mavjud vaziyatdan to'liq qoniqqanlar 36,6 foizni, ko'p hollarda qoniqmaganlar 16,1 foizni va umuman

⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography>

⁹ Тадкикот мамлакатнинг олти худудий бирлигида, яъни Бухоро, Самарқанд, Наманган, Қашқадарё, Жиззах вилоятлари ва Тошкент шаҳрида 868 нафар кексалардан социологик сўров усули орқали ўтказилди

qoniqmaganlar 3,2 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar jamiyatdagi mavjud holatlar va keksalar siyosati borasida olib borilayotgan choratadbirlardan to'liq yoki qisman qoniqmaslik holati keksalarimiz orasida, taxminan, 60 foizni tashkil etishini ko'rsatmoqda (1-rasm). Demak, bunday qoniqmaslik sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Shaxsan siz davlat va jamiyat tomonidan sizga qaratilayotgan e'tibordan qoniqasizmi?



1-rasm. Respondentlarning hukumatning keksalarga nisbatan munosabatidan qoniqish darajasi (foiz hisobida)

Har bir keksaning o'z hayotidan qoniqish darajasini aniqlashda uning muammolari borligi va ushbu muammolarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Keksalarning, aynan, nimalardan qoniqmasliklarini aniqlash maqsadida berilgan savolga olingan javoblar orasida **moddiy yetishmovchilik (38,9%)**, **sog'lig'idagi muammolarning ortishi (38,2%)**, **keksalar vaqtini unumli sarflash uchun infratuzilmaning yo'qligi (36,6%)** hamda **pensiyaga chiqib ishsiz va e'tiborsiz qolganligi (31,9%)** ko'pchilik tomonidan asosiy sabablar sifatida e'tirof etildi. Undan tashqari, yashayotgan uyining ta'mirtalab ekanligi, jamoat transportida harakatlanishning mushkulligi, mahalla va oila a'zolari tomonidan keksalarga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi kabi holatlar ham ko'rsatib o'tilgan (2-jadval).

2-jadval

Keksalarning o'z hayot sharoitlaridan qoniqmaslik sabablari (foiz hisobida)

Agar hayotingiz va yashash sharoitingizning ma'lum jihatlari sizni qoniqtirmasa, buning sababini ko'rsata olasizmi?	
Fikrlar	Foiz
Pul yetishmovchiligi doimo sezilib turadi	38,9%
Sog'lig'imdagi muammolar yil sayin ortib bormoqda	38,2%
Keksalar vaqtini unumli o'tkazishi uchun infratuzilmaning (sport-sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar) mavjud emasligi	36,6%

Pensiyaga chiqib ishsiz qolganligim uchun o'zimni hech kimga keraksizdek his qilaman	31,9%
Yashayotgan uyimning sharoiti yaxshi emas, ta'mirtalab	24,4%
Jamoat transportida harakatlanish juda qiyin	22,3%
Mahalla tomonidan yetarlicha e'tibor berilmaydi	13,8%
Oilam tomonidan yetarlicha e'tibor yo'q	3,8%
<i>So'rov davomida savolnomadagi mazkur savolga uchtagacha javob berish imkoni berilganligi uchun javob variantlariga mos kelgan foiz miqdorining umumiy yig'indisi 100 foizdan 300 foizgacha bo'lishi mumkin</i>	

Yuqoridagi natijalarni navbatdagi savolga olingan javoblar va ularning tahlili ham tasdiqlaydi. Jumladan, mamlakatimiz keksa fuqarolarining yarmiga yaqini (41,7%) jamiyatda keksalarga bo'lgan hurmat va e'tibor pasayib borayotganligi, bu esa ularning turmush tarzi va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, muammolarga sabab bo'layotgani aniqlandi. Shu bilan birgalikda, **moddiy yetishmovchiliklar (34,1%), ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatining har doim ham yaxshi emasligi (33,4%), keksalar vaqtini unumli o'tkazishi uchun infratuzilma, ya'ni sport-sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar yetarli darajada mavjud emasligi (24,5%), keksa fuqarolar uchun ichki turizm imkoniyatlarining kamligi (22,3%)** kabi muammolar keksa fuqarolar orasida dolzarb ekanligi alohida ta'kidlandi. Shuningdek, qariyalarning manfaatlarini himoya qiladigan jamoat tashkilotining yo'qligi (18,0%), keksalar bilan yosh avlod o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tushunmovchilik va kelishmovchiliklarning mavjudligi (15,6%), mahalliy hokimliklar tomonidan keksa fuqarolarga nisbatan e'tiborning yetarli emasligi (15,1%) kabi muammolar ham borligi tadqiqot davomida ma'lum bo'ldi (3- jadval).

Demak, moddiy yetishmovchiliklar, salomatligidagi muammolar, keksalar bo'sh vaqtini band qilish uchun yetarlicha shakllangan infratuzilmaning yo'qligi hamda pensiyaga chiqqach, jamiyat (atrofdagilar)ning ularga nisbatan yetarlicha e'tibor bermayotganligi keksalarning o'z hayotlaridan qoniqish darajasining pasayishiga va shu bilan birgalikda, ijtimoiy faolligiga, salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

3-jadval

Keksalarning asosiy muammolari to'g'risidagi fikrlari (foiz hisobida)

Siz istiqomat qilayotgan hududda keksalarning asosiy muammolari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?	
Keksalarga bo'lgan hurmat va e'tibor pasayib bormoqda	41,7%
Moddiy yetishmovchiliklar	34,1%
Sifatli tibbiy xizmatning yo'qligi	33,4%
Keksalar vaqtini unumli o'tkazishi uchun infratuzilmaning (sport-sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar) mavjud emasligi	24,5%
Keksa avlod vakillari o'rtasida ichki turizm imkoniyatlarining kamligi	22,3%
Keksalarning manfaatlarini himoya qiladigan jamoat tashkilotining yo'qligi	18,0%
Keksalar bilan yosh avlod o'rtasidagi munosabatlardagi o'zaro tushunmovchilik va kelishmovchiliklar	15,6%
Mahalliy hokimliklar tomonidan e'tiborning yo'qligi	15,1%
Javob berishim qiyin	4,6%
<i>So'rov davomida savolnomadagi mazkur savolga uchtagacha javob berish imkoni berilganligi uchun javob variantlariga mos kelgan foiz miqdorining umumiy yig'indisi 100 foizdan 300 foizgacha bo'lishi mumkin</i>	

Moddiy yetishmovchilik ko'pchilik keksalarimiz uchun dolzarb muammo ekanligi aksariyat javoblarda o'z tasdig'ini topdi. Ularning asosiy daromad manbalarini esa pensiya (46,6%) va farzandlarining yordami tashkil etadi. Afsus bilan aytish kerakki, ba'zi holatlarda o'z hayotini moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida keksa fuqarolarimiz sog'lig'i jihatidan o'ziga to'g'ri kelmaydigan ish faoliyatlari bilan ham mashg'ul bo'lmoqda. Masalan, kirakashlik yoki mavsumiy, kunlik daromadlar. Bu ularning salomatligi va uzoq umr ko'rishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, albatta. Ayrim keksalarimiz pensiya miqdorining kamligi sababli o'z ish faoliyatlarini pensiyaga chiqqach ham davom ettirishadi. Olingan oylik maosh va pensiya miqdori ularga yashash uchun yetarli imkoniyat yaratadi. Ishlay olmaydigan va yordamga muhtoj, ba'zan nogiron bo'lib qolgan keksalar esa mahalla yoki qarindoshlari yordami, davlat ko'magi bilan o'z hayotlarini moddiy jihatdan ta'minlab kelayotgani tadqiqot davomida ma'lum bo'ldi (4-jadval).

4-jadval

Keksalarning yashash ehtiyojlari manbalari (foiz hisobida)

Siz nafaqaga chiqqach, o'z yashash ehtiyojlarini, asosan, qaysi manbalar asosida qondirasiz?	
Fikrlar	Foiz
Pensiya	46,6%
Farzandlarim yordamlashadi	24,5%
Oylik maosh	11,1%
Mahalla ko'maklashadi	4,7%
Qarindoshlarim yordamlashadi	3,3%
Kirakashlik orqali	2,9%
Davlat tomonidan oziq-ovqat va gigiyenik vositalar berib boriladi	0,9%
Mavsumiy daromadlar (tomorqa)	6,0%

Pensiya miqdorini ko'tarish, albatta, sekin-astalik bilan amalga oshiriladi. Buning uchun bir qator muammolarni yechish va mexanizmlarni ishlab chiqish talab qilinadi. Shunday ekan, keksalarning moddiy ehtiyojlarini qondirishning muqobil yo'llarini ham shakllantirish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, har ikkinchi keksa fuqaro nafaqaga chiqqach, har doim ham sevimli ish faoliyati bilan shug'ullana olmaydi. Natijada ba'zilarining tushkunlik holatiga tushishi ham kuzatiladi. Bu, bir tomondan, o'rgangan ish faoliyatini yo'qotish bilan, ikkinchi tomondan, moddiy yetishmovchilik bilan ham izohlanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, davlat siyosati doirasida keksalarning xohishini inobatga olgan holda ularning bilimi, salohiyati va salomatligiga mos bo'lgan faoliyat turlarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Keksalarning bandligi va ularga mos bo'lgan faoliyat turi, ish rejimi va **sifati to'g'risida so'ralganda**, ko'p hollarda ular **yarim kunlik yoki haftasida bir necha kunlik (19,6%), uydagi (14,9%) yoki uy tomorqasidagi ishlar (14,3%), shuningdek, o'z ishini davom ettirishi (12,4%) yoki ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishni** o'zlari uchun qulay deb bilishgan. Shu bilan birga, masofadan turib, vaqtinchalik, ya'ni mavsumiy ishlashni istaydiganlar ham yo'q emas.

Demak, keksalar ish faoliyati bilan mashg'ul bo'lishni istashsa, ko'p vaqt hamda kuch sarfini talab qilmaydigan, iloji boricha uydagi turib yoki uyga yaqin hududda ishlash imkonining bo'lishi, o'z sohasiga yaqin yoki o'sha sohada ishlashni istashadi.

Darhaqiqat, keksalar pensiyaga chiqqach, zerikib qolmasliklari va bor bilim, tajribalaridan foydalanish maqsadida ularni ijtimoiy faoliyat bilan band qilish ham jamiyat, ham keksalar uchun birday foydali bo'lishi mumkin. Bu kabi ijtimoiy faoliyatning moddiy jihatdan rag'batlantirilishi esa keksalar uchun motivatsiya sifatida xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval

Keksalarning qanday turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari kerakligi to'g'risidagi fikrlari (foiz hisobida)

Sizningcha, pensiyadagi insonlar ishlashni ma'qul topishsa, qanday faoliyat bilan shug'ullanishlari lozim?	
Fikrlar	Foizi
Yarim kunlik yoki haftada bir necha kunlik	19,6%
Uydagi ish	14,9%
Uy tomorqasida ishlashlari kifoya qiladi	14,3%
Ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lganliklari ma'qul (mahalla faoli bo'lish)	12,4%
O'zlarining doimiy ishini davom ettirishlari kerak	12,4%
Masofadan turib ishlash	9,0%
Vaqtincha ishga joylashishlari kerak (mavsumiy, ma'lum bir loyiha davrida va boshqalar)	8,0%
Pensiyaga chiqqach, iloji boricha ishlamaslik kerak	7,5%
Boshqa javob variantlari	2,0%
Jami	100,0%

Ijtimoiy ko'mak moddiy va jismoniy jihatdan yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Odatda keksalar surunkali kasalliklar, salomatligining yomonlashishi, qarovchisining yo'qligi, moddiy qiyinchiliklar tufayli mazkur toifaga kiradi. Tadqiqot davomida ularning necha foizi shu kabi xizmatlardan foydalanishi borasidagi bilimlari tekshirildi. Shunga ko'ra, respondentlarning 16,4 foizigina ijtimoiy ko'makning u yoki bu turidan foydalanishi aniqlandi (2-rasm). Vaholanki, yuqoridagi ma'lumotlar keksalarning aksariyatida moddiy yetishmovchilik va salomatligi borasida, shuningdek, e'tibor yetishmasligi tufayli muammolari borligini ko'rsatgan edi. Buning sababini aniqlash maqsadida qo'yilgan savol natijalari shuni ko'rsatdiki, ba'zi respondentlar garchi yordamga muhtoj bo'lsa-da, buni o'ziga ep ko'rmaganliklari (18,8%) yoki farzandlari buni istamaganligi uchun (5,8%) undan foydalanmaydi. Keksalarning beshdan bir

qismi (20% ga yaqini) ma'lumot yetishmasligi (bilimsizligi) sababli ijtimoiy ko'makni olish uchun qayerga murojaat qilish kerakligini (12,5%) va uning qanday turlari borligini (8,3%) bilmaydi. Har o'ninchi respondent esa korrupsion to'siqlar tufayli ularga taqdim qilinishi kerak bo'lgan ijtimoiy ko'makdan mahrum bo'lmoqda. Tadqiqotda qatnashgan 31 foiz respondent, haqiqatan, ijtimoiy yordamga muhtoj emas. Ayrim keksalar (11,3%) esa pensiyaga chiqqach ham ish faoliyatida band bo'lishi sababli o'z ehtiyojlarini o'zlari qondira oladi (6-jadval).

Demak, keksalarning ijtimoiy ko'makdan foydalanmasliklarining asosiy sabablari ijtimoiy yordamdan foydalanishdan uyalishi, buni o'ziga ep ko'rmaslik; bilimsizligi; korrupsion to'siqlar va haqiqatan, ijtimoiy yordamga ehtiyoji yo'qligidir. Keksalar o'rtasidagi bilimsizlik va korrupsion to'siqlarga qarshi davlat darajasida hamda doimiy ravishda kurashish maqsadga muvofiq.


6-jadval

Keksalarning ijtimoiy ko'makdan foydalanmaslik sabablari (foiz hisobida)

Nima sababdan ijtimoiy ko'makdan foydalanmaysiz?	Foizi
Bunga ehtiyojim yo'q	31,0%
Nafaqaga chiqqanim bilan ishlashda davom etayotganligim sababli	11,3%
Buni o'zimga ep ko'rmayman	18,8%
Farzandlarim buni o'zlariga ep ko'rishmaydi	5,8%
Ijtimoiy ko'makni olish uchun qayerga murojaat qilishni bilmayman	12,5%
Qanday ijtimoiy ko'mak turlari borligidan xabarim yo'q	8,3%
Ijtimoiy ko'mak imtiyozlaridan foydalanishimda korrupsion to'sinliklarga duch kelmoqdaman	10,0%
JBQ	2,5%
Jami	100,0


Ijtimoiy ko'makdan foydalanadigan respondentlarimizga aksariyat hollarda uyda bepul tibbiy patronaj xizmati (33,5%) ko'rsatib kelinadi. Shuningdek, tekin davolanish uchun order olgan (31,2%) keksalar ham borligi aniqlandi. Bepul oziq-ovqat va gigiyena mahsuloti ta'minotidan (17,5%) yolg'iz keksalar foydalanar ekan. Bepul dori-darmon bilan ta'minlanayotgan respondentlar 12,2 foizni, bepul protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlanganlar esa 5,7 foizni tashkil etdi (3-rasm).

Agar sizga ijtimoiy ko'mak ko'rsatilayotgan bo'lsa, uning turini ko'rsating



2-rasm. Keksalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy ko'mak to'g'risidagi fikrlar (foiz hisobida)

Keksalar o'zlarini bezovta qilgan masalalar yuzasidan davlat tashkilotlariga murojaat qilganlarida, ko'p hollarda ularning e'tiboridan qoniqmasliklari ma'lum bo'ldi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, aksariyat hollarda **xodimlarning sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lishi (28,6%), amalda muammolar yechib berilmasligi (27,1%), xodimlarning o'zlari olishi mumkin bo'lgan hujjatlarni keksalarga yig'dirib, sarson qilishi (qog'ozbozlik) (14,9%)** ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birgalikda, keksalarni qiziqtirayotgan savollar bo'yicha maslahat olish imkonining yo'qligi, tashkilotlarda hujjatlarning yo'qolishi, qo'pol muomala kabi holatlardan keksalar o'z noroziliklarini bildirishgan (3-rasm).




3-rasm. Keksalarning murojaatlaridan keyin ko'rsatilgan xizmatlardan qoniqmaslik sabablari (foiz hisobida)

Ijtimoiy ko'makdan foydalanuvchi keksalardan mazkur sohada nimalarni o'zgartirish lozimligi xususida so'ralganda, ular uchun **ijtimoiy yordamni tez va sifatli olish imkoniyatini yaratish (27,6%)** muhim ekanligi ma'lum bo'ldi. Albatta, ijtimoiy yordam imtiyoziga erishishdagi ma'lum to'siqlar va ko'rsatilayotgan xizmatning sifati har doim ham ko'ngildagiday bo'lmayotganidan dalolat bermoqda. Keksalarning **huquqiy bilimini oshirish (23,8%), yordamga muhtoj keksalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini nazorat qilish (19,7%)** orqali ham sohada ma'lum bir o'zgarishlarga erishish mumkin. **Keksalar to'g'risidagi qonunni qabul**

qilish sohani tartibga solish va keksalarning haquqlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Ammo bu faqat 14 foiz respondent tomonidagina ma'qullangan. Bu keksalar orasida qonunlarning kuchiga bo'lgan ishonchning pastligidan dalolat berishi mumkin. **Ijtimoiy xizmatlarni taqdim qiluvchi xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish (14,1%)** masalasi ham sohani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ularning mahorati bevosita xizmatning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi (1.5-rasm).

Sizning fikringizcha, keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida nimalarni o'zgartirish kerak?



5-rasm. Keksalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat sohasida qilinishi lozim bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi fikrlar (foiz hisobida)

Xulosa. Keksalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini va salomatligini yaxshilash, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlarni baholash va bu sohada nimalarga alohida e'tibor berish kerakligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, quyidagi umumlashtirilgan xulosalarni berish mumkin:

Birinchidan, keksalarning o'z hayotidan qoniqish darajasi ko'p hollarda ularning kayfiyatini, kelajakka bo'lgan ishonchini, ijtimoiy faolligini va bevosita jismoniy hamda ruhiy salomatligini belgilab beradi. Tadqiqot natijalaridan jamiyatimizdagi keksalarning 60 foizida u yoki bu darajada qoniqmaslik holatlari borligi aniqlandi. Bu holatga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ular qatorida birinchilardan moddiy yetishmovchilik, sog'lig'idagi muammolarning ortib borishi, keksalar vaqtini unumli sarflash uchun infratuzilmaning yo'qligi hamda pensiyaga chiqib ishsiz va e'tiborsiz qolgani kabilar namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, keksalar moddiy va jismoniy jihatdan yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlami sifatida ijtimoiy ko'mak doirasida davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanishi talab qilinadi.

Uchinchidan, keksalarning salomatligini ta'minlashga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri tibbiy xizmatning va sog'lomlashtirish tadbirlarining sifat darajasi hisoblanadi. Bu borada kuzatilgan holatni u qadar yaxshi, deb bo'lmaydi. Muntazam ravishda tibbiy ko'riklar tashkil etilishini keksalarning uchdan bir qismigina aytib o'tgan. Vaholanki, keksalarning barchasi uchun shunday ko'riklar olib borilishi kerak.

Keksalar orasida tibbiy xizmatga, jumladan, kasalxonada yotib davolanish, to'liq ko'rikdan o'tish, tor soha mutaxassislari ko'rigidan o'tishga bo'lgan xohish va ehtiyoj katta bo'lsa-da, amalda ularning shifokorga murojaat qilish darajasi yuqori emas. Mazkur holat keksalarning bepul tibbiy xizmat ko'rsatish sifatidan qoniqmasligi, pulli xizmatlar esa pensionerlar uchun qimmatlik qilayotgani bilan izohlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aging and society / Ed. by M.W. Riley, M. Johnson, A. Foner. – New York: Russell age foundation, 1972. – Vol. 3: A sociology of age stratification; Russell M. Aging and cohort succession. Interpretation and misinterpretation//Public opinion quart. Oxford, 1973. – Vol. 37, – №1. – P. 35–50.
2. Avighurst R.J. Successful aging // The Gerontologist. – Oxford, 1961. – Vol. 1, N 1. – P. 8–13.
3. Lander McCarthy V., Bockweg A. The role of transcendence in a holistic view of successful aging // J. of holistic nursing. – Los Angeles (CA), 2013. – Vol. 31, – N 2. – P. 84–92.
4. Монсон П. Современная западная социология: теория, традиции, перспективы/ Пер со шв. – СПб. 1992.
5. Rowe J.W., Kahn R.L. Successful aging // The Gerontologist. – Oxford, 1997. – Vol. 37, – N 4. – P. 433–440;
6. Старость. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
7. Б. Тукумцева. Словарь-справочник по социальной геронтологии/под ред. – Самара: Самарский университет, 2003. – С 16.
8. Фуқароларнинг Давлат пенсия таъминоти тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни <https://www.lex.uz/acts/112314>
9. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography>



Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Email: dildora@bk.ru

O‘ZBEKISTON OILALARIDAGI BARQAROR IJTIMOY HAYOTNI TA‘MINLASHDA GENDER MUAMMOLARINI O‘RGANISH HAMDA TARG‘IB ETISH

Annotatsiya. Maqolada yaqin yillarda oilalar barqarorligini ta‘minlash uchun mamlakatimizda ayollar masalasining umumijtimoiy jihatlari, uning madaniy-ma‘naviy xususiyatlarini hamda oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma‘rifiy-tashkiliy jihatdan o‘ziga xosligini har tomonlama o‘rganish dolzarb masalalardan biri ekanligi hamda qizlarni qadriyatlar tizimi bo‘yicha tarbiyalashda erkak va ayolning teng huquqliligi xususida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: oila, xotin-qizlar manfaatlari, tarbiya, ijtimoiy-ma‘naviy qadriyat, gender tushunchasi, gender tenglik.

Аннотация. В статье в целях обеспечения стабильности семей в последующие годы указывается на необходимость всестороннего изучения социальных аспектов женского вопроса в нашей стране, его культурно-духовных особенностей и социально-экономических, правовых, Учебно-организационные особенности налаживания семейных отношений является одним из актуальных вопросов, и в системе ценностей девушек выявлено равноправие мужчин и женщин в получении образования.

Ключевые слова: семья, женские интересы, образование, социально-духовная ценность, гендерная концепция, гендерное равенство.

Annotation. In order to ensure the stability of families in subsequent years, the article points out the need for a comprehensive study of the social aspects of the women's issue in our country, its cultural and spiritual characteristics and socio-economic, legal, educational and organizational features of establishing family relations is one of the topical issues, and in the value system of girls, equality of men and women in obtaining education was revealed.

Key words: family, women's interests, education, social and spiritual value, gender concept, gender equality.

Kirish. Oila jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Bu muqaddas dargohda inson nafaqat dunyoga keladi, balki u ma‘naviy va axloqiy tarbiya ham topadi. Oila kishilarning tarbiyaviy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi hisoblanib, u qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi va tez rivojlanadi. Jamiyat asosi – oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi

muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, jamiyat va oilada gender tarbiyani amalga oshirishda ayol va erkakning roliga e‘tibor qaratish lozimdir.

Asosiy qism. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin BMTning teng huquqli a‘zosi sifatida bu xalqaro hujjatlarni e‘tirof etdi va o‘z zimmasiga xotin-qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o‘tkazmaslik majburiyatini oldi, shu maqsadda xotin-qizlar manfaatlarining huquqiy himoyasini belgilovchi tegishli qonunlarini qabul qilib kelmoqda. Ma‘lumki, 2019-yil

2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma’qullangan edi.

Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o‘rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan ushbu Qonun huquqiy munosabatlarning nechog‘lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, Qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. To‘g‘ri, hozir biz yashayotgan davr – yangilanayotgan O‘zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim hollarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Ana shunday salbiy holatlarga qarshi mazkur Qonunning 2-moddasida” “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchiligida hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, genderning xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon

bo‘ladigan ijtimoiy jihatlarini ko‘rsatilgan.

Gender tenglikni ta’minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo‘lida qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, 2 ta qonun, 4 ta Prezident Farmoni, 1 ta Prezident qarori, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

“2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” loyihasi tayyorlangan holda uning yo‘nalishlari BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan va milliy gender qonunchiligiga moslashtirilgan.

2019-yilda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilindi, ya’ni eng asosiy qadam qo‘yildi. Mamlakatimizda qabul qilinishi ko‘zda tutilgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasining gender huquqiy ekspertizasidan o‘tkazilishi bo‘yicha Nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi. Demak, bundan buyon har qanday normativ hujjat, albatta, gender ekspertizasidan o‘tkazilgandan keyin qabul qilinadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlarini va sog‘ligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoridan joy olgan. Albatta, gender g‘oyasiga ko‘ra, dunyoda ayol muammosi – inson muammosi, inson huquqi – ayol huquqi. Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada.

Biz ayol huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil qilar ekanmiz, islom huquqshunosligida ayol huquqlariga yondashuv o‘ziga xos ekanini ta’kidlamalikning iloji yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu xususda shunday so‘zlar yozilgan: “O‘zbekiston Respublikasi demokratiya,

umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”¹.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo‘linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvur faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Insonda milliy ong va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma‘rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglashi, erkin va farovon jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi zamonda yangi qadriyatlar tizimini ham o‘zimizga qabul qilyapmiz. Buning yorqin misoli sifatida gender tenglik tamoyillarini o‘rnatish va oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olishni ko‘rish mumkin². Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlash yuzasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Inson huquqlarini ta‘minlash borasida olib borilayotgan siyosat, eng avvalo, konstitutsiyamizning 18, 46-moddalarida o‘z ifodasini topdi, barcha kodekslarda, qonunlarda jinslar tengligiga va uni ta‘minlashga alohida urg‘u berildi.

Gender muammolarini hal etishning eng og‘riqli tomoni ham oilaviy munosabatlar sohasiga tegishlidir. Chunki oila individ hayotining gender tenglik prinsipi to‘liq qamrab

ololmaydigan, qat‘iy ravishda o‘rnatilgan nisbiy iyerarxik tizimli (ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar o‘rtasidagi) munosabatlari doirasini o‘z ichiga oladi. Odatda bunday munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlariga qaraganda qarindoshlik aloqalari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, uning zamirida ruhiy-emotsional yaqinlik, doimiy va barqaror bo‘lgan o‘zaro ishonch, o‘ta xudbinona qarashlar doirasidan chetga chiqib ketuvchi samimiy va umumiy manfaatlarni anglash yotadi. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar doirasida gender munosabatlarni joriy etish ehtiyotkorlikni talab etadi. Shu bilan bir qatorda, an‘anaviy jamiyatlarda vaziyat biroz boshqacharoq. Bunday jamiyatlarda oila hozircha sezilarli darajadagi global sotsiomadaniy o‘zgarishlarga duchor bo‘lgani yo‘q. Ammo gender aqidasi, xuddi G‘arbdagi oila atrofida yuzaga kelgan muammolarga olib keluvchi o‘zgarishlar uchun peshrav vazifasini o‘tashi mumkin³.

Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Arastu, Aflotunlar eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan davlatni nazarda tutgan. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont o‘z asarlarida shunday holda yoritgan: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb ta‘kidlagan⁴.

Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy⁵ “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo‘lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012.

² Ўзбекистон қонунчилигида гендер тенглиги ва хотин-қизлар ҳуқуқлари қафолатлари. – Тошкент: “Zamin nashr”, 2020; Ўрозалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришга таъсири. Ижтимоий фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2006.

³ Абдурахмонов С. “Гендер ижтимоий барқарорлик аспектида” / Тарих ва жамият журналі, – № 1, – Тошкент: 2021.

⁴ Лурье С. Я. Антифон – творец древнейшей анархической системы / Вступ. ст. Д. И. Рублёва. Изд. 2-е, доп. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 168 с. (Размышляя об анархизме.)

⁵ Абу Наср Фаробий. Фозил кишилар шаҳри. – Тошкент: Халқ мероси, 1993.

erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan⁶.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatiga oid xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib, o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda⁷. Ayniqsa, hozirgi biz yashayotgan davr – Yangi O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda oramizda gender tenglik deganda faqatgina xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishnigina tushunadiganlar ham uchraydi. Lekin aslida unday emas. Milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi: “Gender” tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha “genus”, ya'ni “jins” ma'nosini anglatadi. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi hamda belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

E'tiborli jihati shundaki, bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida o'zgarishlar, oldinga siljishlar hamda yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, siyosatda ayollar faollashganining guvohi bo'lamiz, ya'ni davlat boshqaruvida, sudlov tizimida, ichki ishlar, bojxona tizimida ham xotin-qizlarning mehnat qilayotgani ayni haqiqatdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston oilalarida barqaror ijtimoiy muhitni

⁶ Тўйчиева Г.У. Аёл ва сиёсат. – Тошкент: 2004.

⁷ Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018

ta'minlash uchun gender muammolarini o'rganish va targ'ib etishda quyidagilarni inobatga olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bular:

birinchidan, ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zini chetga oladi. Go'yo farzandini bog'cha, maktab tarbiyalab berishi shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullangan, ammo ular, asosan, erkaklar nazoratida bo'lgan;

ikkinchidan, ota-onalar bolalarga birdek munosabatda, bir xil mehribon, g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar, bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa, tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin o'zlarini ham hurmat qilishni o'rgatishlari zarur;

uchinchidan, oilaning barqaror hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muhitni yaratish lozim. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;

to'rtinchidan, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashning psixologik, gender, huquqiy, tibbiy, ijtimoiy, diniy va ma'rifiy, mafkuraviy, jinsiy, shaxs madaniyati, konfliktlar yechimi, jismoniy tarbiya va sport, uy-ro'zg'or tutish, maishiy-gigiyenik, kiyinish odobi, oila an'analari, jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarida tarbiya topishlariga ahamiyat berish;

beshinchidan, gender stereotiplarni bartaraf etishda hamda gender tenglikni ta'minlashda milliy qadriyatlarning rolini hisobga olish lozim;

oltinchidan, oilada gender munosabatlarni shakllantirishning jamiyatdagidan farqli

ravishda alohida milliy gender konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uning umumjamiyat darajasidagi gender munosabatlar bilan uzviylikini ta'minlash muhim ahamiyatga ega;

yettinchidan, oilaning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq muammolarini maxsus o'rganilsa va buning uchun tadqiqot markazi tuzilsa, barqaror taraqqiyot uchun tashlangan muhim qadamlardan biri bo'lar edi.

Har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandining ana shunday

inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdordir. Ota-onaning fuqarolik burchi O'zbekiston oilalarida barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlash maqsadida gender muammolarining kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim va hokazolar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар қафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – 2019 йил 2 сентябрь // <https://lex.uz/docs/4494849>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 2 сентябрь // <https://lex.uz/docs/4494709>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2021 йил 29 декабрь
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017.
5. Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
6. Лурье С. Я. Антифон – творец древнейшей анархической системы / Вступ. ст. Д. И. Рублёва. Изд. 2-е, доп. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 168 с. (Размышляя об анархизме.)
7. Абу Наср Фаробий. Фозил кишилар шаҳри. – Тошкент: Халқ мероси, 1993.
8. Тўйчиева Г.У. Аёл ва сиёсат. – Тошкент, 2004.
9. Ўзбекистон қонунчилигида гендер тенглиги ва хотин-қизлар ҳуқуқлари қафолатлари. – Тошкент: Zamin nashr, 2020.
10. Ўрозалиева Г.Б. Гендер муносабатларининг аёллар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришга таъсири. Ижтимоий фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2006.
11. А.Қодирий номидаги Жиззах ДПИ ўқитувчиси С. Абдурахмонов “Гендер ижтимоий барқарорлик аспектида” / Тарих ва жамият журналі, – № 1. – Тошкент, 2021.



Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
e-mail: ikmatullayev_86@mail.ru

YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH ORQALI IJTIMOYLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishning nazariy va amaliy jihatlari, bu boradagi muammolar, olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish borasida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Tayanch so'zlar: yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, mehribonlik uyi, bolalar shaharchasi, ijtimoiylashuv, shaxs, bola, oila, foster oila, patronat, kasb, jamiyat, ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi.

Аннотация. В данной статье обсуждены теоретические и практические аспекты социализации детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки, посредством профессиональной ориентации, проблемы в этой связи, научно-исследовательская работа ученых. Были выдвинуты предложения и рекомендации по социализации педагогов.

Ключевые слова: дети-сироты, и дети, лишенные родительской опеки, детский дом, детский городок, социализация, личность, ребенок, семья, приемная семья, патронат, профессия, общество, родитель, воспитатель, учитель.

Annotation. In this article, the theoretical and practical aspects of the socialization of orphans and children deprived of parental care through professional orientation, problems in this regard, the research work of scientists were discussed. Suggestions and recommendations on the socialization of teachers were put forward.

Key words: Orphans and children deprived of parental care, orphanage, kindergarten, socialization, personality, child, family, foster family, patronage, profession, society, parent, educator, teacher.

Kirish. Insonning rivojlanishi, shaxs sifatida kamol topishi va jamiyatda o'z o'rnini egallashida, umuman olganda, uning ijtimoiylashuvida oila muhim o'rin egallaydi. Oiladagi qadriyat va an'analar, ota-ona va yaqinlar tomonidan ko'rsatiladigan mehr, g'amxo'rlikdan inson kuch olib voyaga yetadi, hayotda o'z o'rnini egallaydi. Oila muhitidan uzoqda voyaga yetgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida bu borada muammolar kuzatiladi.

Hozirgi vaqtda jamiyatda mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi dolzarbligicha qolmoqda. Sababi oila muhitidan uzoqda voyaga yetayotgan bolalarning katta hayotga ijtimoiylashuvi qiyin kechmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan so'nggi 11 yil ichida Mehribonlik uylaridan chiqqan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 3 ming nafardan ortiq sobiq tarbiyalanuvchilar hayoti o'rganilib, tahlil qilinganda, yoshlarning muassasalarni tark etganlaridan so'ng jamiyatga

moslashish davrida turli qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5215-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Milliy gvardiyaga respublikadagi mehribonlik uylari, bolalar shaharchalari va bolalar uylari birlashtirildi hamda “SOS – bolalar mahallalari” bilan hamkorlik qilish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi.

Mazkur chora-tadbirlar yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalashni rag‘batlantirish amaliyotini joriy etish hisobiga o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarni bosqichma-bosqich farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalash uchun o‘tkazishga erishiladi.

Asosiy qism. Har qanday inson hayotida kasb muhim o‘rin tutadi. Kasb egallagan insonda o‘ziga va kelajakka bo‘lgan ishonch yuqori bo‘ladi. Chunki u o‘z kasbi orqasidan oilasini boqadi, doimiy bandlikka erishadi. Shu bois insonni kasbga yo‘naltirish, unga kasb egallashga ko‘maklashish masalalari davlat siyosati darajasida hal qilinadi.

Bugungi kunda butun dunyoda yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kadr qilib tayyorlash asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada ularni maktab davridayoq kasbga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo‘naltirish maktab bitiruvchisini nafaqat kasblar olami bilan tanishtiradi, balki uning mehnat sohasida ijtimoiylashuviga, natijada mamlakat mehnat resurslarining, bandlik tizimining shakllanishiga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlarida yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Mehribonlik uyi va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining hayotida kasb egallash muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Chunki ular voyaga yetganidan so‘ng jamiyatda ijtimoiylashuvda birdan bir ko‘makdosh vazifasini o‘taydigan faoliyat ularning kasbiy faoliyati hisoblanadi. Ular kasb egallab, mehnat jamoalarida faoliyat ko‘rsatishlari jarayonida insonlar bilan muloqotga kirishadi, hamkasblari bilan bordi-keldi munosabatlarini o‘rnatadi.

Pedagog-psixolog M.V.Astaxovaning fikricha, “yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning hissiy turg‘un emasligi, ularda o‘quv motivatsiyalarining shakllanmaganligi, muloqot va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kasb tanlashda muammoga olib keladi”¹. Uning ta‘kidlashicha, Mehribonlik uyida kasb tanlashga ko‘maklashish tarbiyalanuvchilarning o‘z-o‘zini yuzaga chiqarishiga sharoit yaratish, o‘zining shaxsiy muvozanat maydonini shakllantirishga yo‘naltirilgan. U yerda kasb tanlashga ko‘maklashish uchta yo‘nalishda olib boriladi:

- kasb tanlashga ko‘maklashish;
- kasbni o‘zlashtirish va sotsiumga moslashish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish;
- faol hayot pozitsiyasiga va nuqtayi nazarga asoslangan hayotiy istiqbolni belgilash.

M.V.Astaxovaning tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning kasb tanlashlarida qator o‘ziga xosliklar mavjud va bu jihatlarni inobatga olish hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

A.D.Kirginsevaning fikricha, “Bola uchun oila jismoniy, psixologik, hissiy, intellektual va ijtimoiy shakllanishning eng qulay muhiti hisobalanadi”². Bola oilada o‘zining biologik va sotsial ehtiyojlarini qondiradi, o‘zining maqomini belgilaydi, o‘zini turli ijtimoiy rollarda qo‘llaydi.

Shu o‘rinda, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari hayotida ularning tarbiyalovchilari muhim o‘rin tutishini alohida ta‘kidlash lozim. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari asosiy yordamni o‘qituvchi (41,4 foiz) va tarbiyachilar (79,8 foiz)dan olishi, gimnaziyada ta‘lim oluvchilar esa qarindoshlar (59,2 foiz) va sinfdoshlari (55,1 foiz)dan tarbiyachilarning ijtimoiy maqomini o‘zida aks ettiradi³. Aynan tarbiyachilar qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun ota-ona o‘rnini bosishadi. Asosiy yordam va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishadi.

¹ Астахова М.В. Опыт профориентационной работы с воспитанниками детского дома / «Образование. Карьера. Общество» – №4 (55) 2017 – С. 54.

² Киргинцева А.Д. Особенности социализации воспитанников детских домов // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/50770/1/978-5-8019-0294-4_2012_297.pdf

³ Киргинцева А.Д. Особенности социализации воспитанников детских домов // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/50770/1/978-5-8019-0294-4_2012_297.pdf

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, maxsus maktab-internat muassasalaridan chiqqan bolalarning 40 foizi jinoyatchi, 40 foizi giyohvand bo'lishar, 10 foizi o'z joniga qasd qilish yo'li bilan hayotiga nuqta qo'yishar ekan. Faqat 10 foizigina mustaqil hayotga tayyor bo'lisharkan⁴.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, "Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G.Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U "Ijtimoiylashuv nazariyasi" (1987) kitobida mazkur atamani "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi⁵.

P.f.d., professor N.M.Egamberdiyevaning fikricha, agar shaxsning jamiyatga kirishishida moslashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi⁶.

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar va Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi masalasi qator olim va tadqiqotchilarning tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Xususan, O'.M.Asqarova Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini⁷, G.R.Yusupova Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasini⁸, I.O.Haydarov Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlarini⁹ tadqiq qilgan.

⁴ Бреева Е.Б. Социальное сиротство. Опыт социологического обследования // Социологические исследования. 2011. – № 4. – С. 12-15.

⁵ Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Дарелик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 85. (www.ziyouz.com kutubxonasi)

⁶ Ўша манба. – Б. 86.

⁷ Асқарова Ў.М. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизmlарини такомиллаштириш / пед. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2019.

⁸ Юсупова Г.Р. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларида tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasi / пед. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011.

⁹ Ҳайдаров И.О. Меҳрибонлик уйида тарбияланувчилар шaxсининг индивидуал ва ижтимоий психологик хусусиятлари / психол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.

O'.M.Asqarova Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning tarkibiy asoslari patronat xizmatni tashkil etishning mikroomillar bilan integrativ uyg'unligini ta'minlash zarurligiga, G.R.Yusupova mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatlarini shakllantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini yoritib berishga e'tibor qaratgan. I.O.Haydarov mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar hayotining, turmush tarzining, yashash sharoitlarining o'ziga xosligi, ularning individual psixologik, ijtimoiy psixologik xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'.M.Asqarovaning "Modernizatsiyalashgan tarbiya tizimini ishlab chiqishning ilmiy asoslari fundamental tarzda yoritib berilmagani respublikamizda mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi"¹⁰, degan fikrlariga to'la-to'kis qo'shilish mumkin.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir xorijiy olimlar J.Boulbi, K.Broun, U.Goldfarb, Y.Donaldson, R.Jonson, S.Nelson, R.Karterlar tomonidan amalga oshirilgan¹¹. Mazkur ilmiy izlanishlarda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda yuzaga keladigan emotsional xulq-atvor va intellektual muammolar, oila tipidagi bolalar uylarini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari aniqlashtirib berilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda 3 ta bolalar uyida 560 nafar, 16 ta mehribonlik uyi va 4 ta bolalar shaharchasida 1 ming 823 nafar, 86 ta maxsus maktab-internatda 21 ming nafar o'g'il-qizlar tarbiyalanmoqda. Bundan tashqari, 79 ming nafar bolalar homiylik, vasiylik va oila patronati qaramog'iga olingan¹².

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyul kuni o'tkazilgan nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'idan mahrum va yetim bolalarni davlat

¹⁰ Асқарова Ў.М. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизmlарини такомиллаштириш // педагогика фанлари докт... дисс. – Тошкент, 2019.

¹¹ Ўша манба.

¹² <https://president.uz/uz/lists/view/4517>

tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘nggi o‘n yilda mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari bitiruvchilarining 51 foiziga uy-joy ajratilgani, mehribonlik uylarida tarbiyalangan yigit-qizlarning 64 foizi ish bilan ta‘minlangani va ta‘lim-tarbiya sifati ham yuqori emasligi ta‘kidlab o‘tildi.

Mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, bilim va ma‘naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish maqsadida yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Unga ko‘ra, 16 ta mehribonlik uyi va 4 ta bolalar shaharchalaridagi yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mas‘ul bo‘lishi, buning uchun qo‘mondon o‘rinbosari lavozimi joriy etilib, alohida boshqarma tashkil etilishi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-son qarori¹³ ga muvofiq mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylari Milliy gvardiyaga birlashtirildi.

Milliy gvardiya markaziy devoni tuzilmasida o‘quv-tarbiya muassasalarida yoshlarning ta‘lim-tarbiya olish jarayonlarini hamda ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishga mas‘ul Milliy gvardiya qo‘mondonining o‘rinbosari lavozimi joriy etildi, Jamoat xavfsizligi universitetida “Harbiy vatanparvarlik, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida tashkil etildi.

Bugungi kunda Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan mehribonlik uylari direktor o‘rinbosarlari bilan alohida o‘quv dasturi asosida onlayn mashg‘ulotlar tashkil etilib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari

¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 августдаги ПҚ-5215-сон “Етим болалар ва ота-она қарамогидан маҳрум бўлган болаларни тарбиялашнинг тубдан янгиланган тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги // <https://lex.uz/ru/docs/5570968>

to‘g‘risida”gi PQ-5215-son qarorining mazmun-mohiyatidan shuni anglash mumkinki, ushbu toifadagi bolalarni “Mehribonlik” uylari yoki bolalar shaharchalarida emas, imkon qadar oila muhitida voyaga yetkazishga harakat qilinadi. Albatta, buni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan, maqbul yo‘l sifatida baholash mumkin.

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning hayotga ijtimoiylashuvini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- istiqbolda mehribonlik uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalanuvchilar sonining kamayishi va buning natijasida ushbu muassasalardagi tarbiyachi-mutaxassislarning ishsiz qolishidan kelib chiqqan holda ularni patronat xizmatiga jalb etish;

- ishsiz qolgan tarbiyachilar va bola asrab olish istagi bor ota-onalar hisobidan foster oilalarni shakllantirish, ularni Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida tomonidan maxsus kurslarda tayyorgarlikdan o‘tishlarini tashkillashtirish;

- yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni asrab olish bo‘yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish;

- ilg‘or xorij tajribalaridan kelib chiqqan holda foster oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga imtiyozlar tizimini tashkil etish borasida chora-tadbirlarni jadallashtirish;

- mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi, kasb-hunar egallashi, muassasadan chiqqandan keyingi taqdiri bo‘yicha tizimli monitoring ishlarini amalga oshirib borish;

- mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi masalalari bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish.

Xulosa. Inson hayotida oila muhim o‘ringa ega va uning ijtimoiylashuvida oila qatori kasbga yo‘naltirish ham yetakchi vazifani o‘taydi. Shunday ekan, tarbiyalanuvchilarni imkon qadar oila bag‘riga qaytishga va ularni kasbga yo‘naltirishga harakat qilish bu boradagi to‘siqlarni bartaraf etishda muhim masala hisoblanadi.

Shu bois turli psixologik metodikalardan foydalangan holda mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining kasbga

layoqatini aniqlash va natijalari yuzasidan zaruriy yoʻnalishlar berish zarur. Mehribonlik uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yoʻnaltirishga qaratilgan “Kasblar festival”larini tizimli ravishda oʻtkazib borish hamda ularga turli kasb vakillarining ishtirokini taʼminlash kerak.

Xalq taʼlimi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan umumtaʼlim

maktablarida “Kasbga yoʻnaltirish xizmat”larini va kasbiy maslahatchi lavozimlarini tashkil etish Maktab kasbga yoʻnaltirish xizmatlari oʻz faoliyatida kasbga yoʻnaltirishning ilmiy-amaliy xarakter kasb etishi, iqtisodiyot va jamiyatning professional kadrlarga ehtiyojining doimiy oʻzgaruvchanligi tizimli takomillashtirib borishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Киргинцева А.Д. Особенности социализации воспитанников детских домов // https://elar.urfu.ru/bits/tream/10995/50770/1/978-5-8019-0294-4_2012_297.pdf
2. Бреева Е.Б. Социальное сиротство. Опыт социологического обследования // Социологические исследования. 2011. – № 4. – С. 12–15.
3. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 85. (www.ziyouz.com kutubxonasi)
4. Асқарова Ў.М. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш / пед. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2019.
5. Юсупова Г.Р. Меҳрибонлик уйлари тарбияланувчиларида толерантлик фазилатини шакллантириш технологияси / пед. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011.
6. Ҳайдаров И.О. Меҳрибонлик уйида тарбияланувчилар шахсининг индивидуал ва ижтимоий психологик хусусиятлари / психол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/4517>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 августдаги “Етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни тарбиялашнинг тубдан янгиланган тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5215-сонли қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5570968>



Dulanboyeva Oygul Asilbek qizi

O'zMU Ijtimoiy fanlar

Sotsiologiya kafedrası tadqiqotchisi

e-mail: sujdiniya@mail.ru

SOTSIAL STATUS VA ROLLAR IJODKORLAR SOTSIAL QIYOFASINING ZARURIY ELEMENTI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada sotsial status va rollar kategoriyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan bo'lib, ularga sotsial qiyofa yaratishning o'ziga xos elementi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda ijodkorlar sotsial statusining o'z-o'zini belgilash, kasbiy, iqtisodiy, vaqt singari mezonlari ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, ijodkorlarning xulq-atvor standartlarini shakllantiruvchi ijtimoiy sanksiyalarning sotsial qiyofalarini yaratishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: status, rol, sotsial qiyofa, ijtimoiy sanksiya, kasbiy mezon, iqtisodiy mezon, vaqt mezon, xulq-atvor standartlari, foyda, ijodiy faoliyat, ijtimoiy iyerarxiya, ijtimoiy tizim, oilaviy sharoit.

Аннотация. В данной статье автор раскрывает сущность категорий социального статуса и роли, которые рассматриваются как особые элементы создания социального портрета. Исходя из этого показаны профессиональные, экономические и временные критерии самоопределения социального статуса творческих лиц. Также раскрыто значение социальных санкций в формировании стандартов поведения творческих лиц при создании их социального портрета.

Ключевые слова: статус, роль, социальный портрет, социальная санкция, профессиональный критерий, экономический критерий, временной критерий, стандарты поведения, выгоды, творческая деятельность, социальная иерархия, социальная система, семейные условия.

Annotation. In this article, the author reveals the essence of the categories of social status and role, which are considered as special elements of creating a social portrait. Proceeding from this, professional, economic, temporal criteria for self-determination of the social status of creative persons are shown. The significance of social sanctions in the formation of standards of behavior of creative persons when creating their social portrait is also revealed.

Key words: status, role, social portrait, social sanction, professional criterion, economic criterion, time criterion, behavior standards, benefits, creative activity, social hierarchy, social system, family conditions.

Kirish. Yosh ijodkorlarning sotsial qiyofasini o'rganish ularni status va rollar yondashuvi asosida tadqiq etishni talab etadi. Chunki muayyan ijtimoiy guruhning sotsial qiyofasini tasvirlash, uning yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi kabi mezonlar asosida jamiyatdagi maqomini belgilashni nazarda tutadi. Ushbu jarayon umumiy ma'noda ijtimoiy guruhning sotsial statusini aniqlashni anglatadi. Sotsiologiyada ijtimoiy kelib

chiqish, millat, irq kabi tabiiy statuslar hamda ta'lim, kasb kabi erishiladigan statuslar farqlanadi¹.

Asosiy qism. Status va rollar yondashuvi asoschilaridan biri R.Linton sotsial statuslarning ikki yoqlama ma'no kasb etishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, har bir inson o'zini o'rab turgan ijtimoiy iyerarxiyada muayyan statuslarni egallashi mumkin,

¹ Современная западная социология. – Москва, 1990. – С.331-332.

u bir paytning o'zida (rahbar, ota, xaridor, siyosiy arbob kabi) bir nechta statuslarni amalga oshiradi. Ba'zan individ o'zaro zid statuslarni ham egallaydi. Bunday hollarda u mazkur statuslardan birini tanlashga majbur bo'ladi.

Sotsial status individning ijtimoiy tizim doirasida muayyan o'rni, pozitsiyasi, maqomini anglatadi. R.Linton ta'biri bilan aytganda, "Muayyan ijtimoiy iyerarxiyadagi individ yoki guruhlarning statusi, ushbu ijtimoiy tizimi – kasb, jins, yosh, ijtimoiy kelib chiqish, oilaviy sharoit kabi sotsial mezonlar bilan shartlanganini ko'rsatadi"². Bu ma'noda status ko'p qirrali kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. M.Veyber statuslarning asosiy tavsifi sifatida turmush tarzi, kasb hamda mashg'ulot turini ko'rsatadi.

Aksariyat tadqiqotchilar shaxsning ko'p qirrali xususiyatini uning ayni paytda bir nechta statuslarni amalga oshirishi bilan izohlaydi. Masalan, muayyan kafedraning dotsenti: o'qituvchining dotsentligi kasbiy status bo'lsa, 42 yoshda ekani – yosh ko'rsatkichi, erkak ekani – jins ko'rsatkichi, intellektual ziyoliligi – stratifikatsion ko'rsatkich, o'rtacha ishhaqi – iqtisodiy ko'rsatkich sanaladi. Mazkur ko'rsatkichlarning barchasi bitta shaxsga tegishli bo'lib, uni turli tomondan baholash uchun asos yaratadi. Biroq bu statuslar boshqa shaxslar statuslari bilan munosabatga kirishgandagina sotsial ma'no kasb etadi va muayyan shaxs haqida tasavvur uyg'otishga imkon yaratadi"³.

Yuqorida aytib o'tilganidek, "sotsial status" tushunchasi "sotsial rol" tushunchasi bilan uzviy aloqadorlik kasb etgani holda muayyan statusdan kutiladigan xatti-harakatni anglatadi. Sotsial rol tushunchasiga R.Linton 1936-yilda o'ziga xos klassik ta'rif bergan holda mazkur tushunchani ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo'llaydi. Aynan Linton sotsiologiyaning asosiy kategoriyalaridan sanaluvchi mazkur ikki tushunchani o'zaro aloqadorlikda tadqiq etib, rolni statusning dinamik aspekti sifatida baholaydi.⁴

Muayyan statusga tegishli rollar yig'indisi rollar tizimi deb ataladi. Bundan tashqari, sotsial rollar kishining u yoki bu ijtimoiy guruhlarga mansubligi bilan ham bog'liq, shu bois individ bir vaqtning

o'zida bir nechta rollarni amalga oshira oladi. Bu ma'noda rol yaxlit xulq-atvor modelining alohida olingan aspekti sifatida namoyon bo'ladi. Individ ijtimoiylashuv jarayonida rollar va u bilan bog'liq xulq-atvor me'yorlarini qabul qiladi.

T.Parsons rollarning quyidagi besh asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning tasnifini ishlab chiqadi:

1. Ayrim sotsial rollar emotsional sovuqqonlikni talab etsa, ayrimlari, aksincha, his-tuyg'ularni ochiq ifodalashga asoslanadi.

2. Oldindan belgilangan yoki erishiladigan rollar.

3. Ba'zi rollar chegaralangan, ba'zilari esa biffuzali, kirishuvchan xarakterga ega bo'ladi.

4. Ayrim rollar rasmiy, boshqa bir rollar esa shaxsiy munosabatlarga asoslanadi.

5. Turli rollar turli motivatsiyalar bilan bog'liqlik kasb etadi⁵.

Polshalik sotsiolog F.Znanetskiyning fikriga ko'ra, "Har bir individ belgilangan huquq va majburiyatlar bilan shartlanuvchi muayyan ijtimoiy muhitda ma'lum maqom va pozitsiyaga ega bo'lib, turli sotsial rollarni bajaradi. O'z navbatida, ushbu rollar boshqa bir statuslarning funktsiya va pozitsiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu bois individlar tomonidan amalga oshirilishiga qaramay, ko'p hollarda ulardan mustaqil, alohida mavjud sanaladi.⁶

Sotsiologiyada sotsial rollar muayyan ijtimoiy pozitsiya bilan bog'liq me'yor yoki funktsiya sifatida qabul qilinadi. Sotsial rollar ularni bajarayotgan individlarning shaxsiy xususiyatlaridan mustaqil, erkin holda namoyon bo'ladi⁷.

"Jumladan, o'qituvchi, injener, yoki oiladagi otaning sotsial roli alohida individga bo'ysunmaydigan, obyektiv jarayonlar, masalan, jamoaviy mehnat taqsimoti kabi tizimlar tomonidan oldindan belgilangan bo'ladi. Ushbu rollarni bajarayotgan individlardan talab etiladigan majburiyatlar har doim ham bir ma'noli, qat'iy ko'rsatmalarni nazarda tutmasligi mumkin, biroq

⁵ Смелзер Н. Социология. – Москва, 1994. – С.91.

⁶ Знанецкий Ф. Исходные данные социологии // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С.74.

⁷ Комаров М.С. Введение в социологию. – Москва, 1994. – С. 10, 94, 112-113; Кравченко А.И. Социология. – Екатеринбург, 1998. – С.99-100; Социология / В.Н. Лавриненко и др., – Москва, 1998. – С.228; Социология / Под ред. А.В. Миронова и др. – Москва, 1996. – С.80; Тощенко Ж.Т. Социология. – Москва, 1998. – С. 318-319.

² Линтон, Р. КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ / Р. Линтон, И.Л. Галинская // Вестник культурологии. – 2013. — №4. — С. 51-53

³ Социология. Учебное пособие. – Минск, 1998. – С. 123-124.

⁴ Социология. Ук. соч. – С. 300.

shunga qaramay, mazkur normalar individdan holi, obyektiv hisoblanadi”⁸.

Sobiq Sovet sotsiologik an’alarida rol konsepsiyasi alohida tadqiq etilmadi. Keyinchalik ushbu konsepsiyaning ilmiy ahamiyatiga keng e’tibor qaratildi. Boisi rol konsepsiyasi insonning murakkab sotsial olamiga turli madaniyat va ijtimoiy tizimlar oqibatida yuzaga keladigan xilma-xil manfaatlar nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi”⁹.

Shuningdek, rol tushunchasi faoliyatga oid yondashuv bilan ham tavsiflanadi. Rol, ya’ni muayyan xatti-harakatni amalga oshirayotgan individning motivlari bilan ahamiyatlidir”¹⁰.

Status va rol konsepsiyalariga oid mulohazalar tahlili ijodkorlar, xususan, shoirlar status va rollarini turli pozitsiyalar nuqtayi nazaridan ko’rib chiqish imkonini yuzaga chiqaradi. Ijodkorlarning jamiyatdagi statusi va ular bajaradigan ijtimoiy funksiyalar turli davrlarda turlicha baholangan. Bundan tashqari, ijodkor tushunchasining o’zi qadimgi davrlardan to bugungi kungacha turli nuqtayi nazarlar kontekstida talqin etilgan. Zotan, ijodkorlik insoning o’ziga xos faoliyat turi sifatida keng mazmun-mohiyatga ega. Odatda, musiqa, tasviriy san’at, me’morlik, haykaltaroshlik, aktyorlik, raqqoslik, shoirlik va boshqa shunga o’xshash faoliyat turi bilan shug’ullanuvchi insonlar ijodkor shaxs sifatida qabul qilinadi. Ijodkorlik keng miqyosga ega fenomen bo’lganligi bois ham “ijodkor” tushunchasini aniq bir ma’noli ta’riflash imkonsiz. Fransuz sotsiologi N.Enish o’zining “Ijodkor bo’lish” asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Plyuralizm oqibatida chigal muammoga aylangan “ijodkor” tushunchasiga aniqlik kiritish juda muhim. Avvalambor, moddiy nuqtayi nazardan ijodkorlar uchun ajratilayotgan moddiy qo’llab-quvvatlash, ushbu yordamdan bevosita foydalanayotgan kishilarning ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas. Ma’naviy nuqtayi nazardan esa biror statusning jamiyatdagi nufuzi uning muvaffaqiyatlarini boshqalarning o’zlashtira olmasligi bilan belgilanadi”¹¹. Shu bois ijodkorlikning o’ziga xos mezonlari bo’lishi lozim.

⁸ Кон И.С. В поисках себя: Личность и ее самосознание. – Москва, 1984. – С.260.

⁹ Харчева В. Основы социологии. – Москва, 1997. – С.141.

¹⁰ Парсонс Т. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С.449.

¹¹ Heinich N. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996. – P.64.

Sotsiologik va ijtimoiy falsafiy adabiyotlarda “ijodkor” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan xilma-xil yondashuvlar uchraydi. Ularni umumlashtirgan holda ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruhga san’at va hunarmandchilik o’rtasidagi farqdan kelib chiqadigan ta’riflar kirsas, ikkinchisini havaskorlik va professionallar o’rtasidagi farqni ajratishga qaratilgan ta’riflar tashkil qiladi. Har ikkala holatda ham san’at hunarmandchilikdan, professionallik havaskorlikdan ko’ra autentlik xarakterga ega deb sanaladi. Masalan, N.Enish keltirgan ma’lumotlarda, Fransiyada chop etilgan (INSEE) statistik iqtisodiy tadqiqotlarga ko’ra, rassomlar yuqori intellektual ziyoli qatlamga mansub hisoblanadi. Vaholanki, oldingi tadqiqotlarda ular ruhoniylar, harbiy xizmatchilar bilan bir darajadagi kasbiy kategoriyaga kiritilgan edi. Shuningdek, N.Enish “ijodkor” tushunchasiga nisbatan quyidagi ta’rifni keltiradi: “Ijodkor o’z iqtidori natijasida insonlarda estetik zavq berishga sabab bo’ladigan original asar yaratgan kishi hisoblanadi. Ushbu kategoriyaning yadrosini tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, me’morchilik sohasidagi ijodkorlar tashkil etadi. Shuningdek mazkur toifaga haykaltaroshlar, fotograflar, dizaynerlarni ham kiritish mumkin. Texnik ijodkorlar, dekoratorlar, hunarmandlar faoliyat turiga ko’ra ushbu ro’yxatga kiritilmaydi”¹².

N.Enishning fikricha, mazkur tushunchaga ta’rif berishda davlat tashkilotlari nuqtayi nazaridan yondashish ijodkor statusini belgilashni yanada murakkablashtiradi. Chunki bu ma’noda yondashish ijodkorni kasbiy nuqtayi nazardan baholashni talab etadi. Masalan, Fransiyada 1964-yilda qabul qilingan. “Ijodkorlarni ayrim soliqlardan ozod qilish to’g’risida”gi Qonunga ko’ra, tasviriy san’at, haykaltaroshlik va adabiyot sohasida faoliyat olib boruvchi ijodkorlarning statuslari quyidagicha ta’riflanadi: Daromadining ellik foizini o’z ijod namunalariidan (rasm hamda kitob ko’rinishidagi asarlar) tashkil etuvchi kishilar ko’rsatilgan soliqlardan ozod etiladi.¹³

1974-yilda ushbu Qonunga o’zgartirishlar kiritilgan bo’lib, unga ko’ra, dizaynerlar va modelyerlar ham ijtimoiy himoyaga olinadi¹⁴.

Keyinchalik o’zgartirishlar kiritilishiga qaramay, ushbu Qonunda ko’rsatilgan mezonlar

¹² Heinich N. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996, p.65.

¹³ Heinich N. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996, p.65.

¹⁴ Текущая минимальная межпрофессиональная заработная плата.

ijodkor statusini to'la belgilab bera olmaydi. Chunki ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarning iqtisodiy farovonlikka bo'lgan intilishlari bir xil emas. Bundan tashqari, mazkur Qonunda ijod namunasining yaratilishi va undan keladigan foyda o'rtasidagi vaqt hisobga olinmagan. Zero, umri davomida birorta asarini sota olmagan, undan foyda olmagan ijodkorlar ham kam emas. Ijodkor tushunchasiga nisbatan bozor iqtisodiyotiga asoslangan foyda mezonini qo'llash nafaqat o'zining kreativligi, novatorligi oqibatida bozordagi talab-taklif munosabatlarini ilg'ay olish qobiliyatiga ega individual ijodkorlarni, balki pragmatik maqsad yo'lida ijodkorlardan foydalanuvchi, san'atga aloqador bo'lmagan kishilarga ham rag'bat berishga imkon yaratadi.

Shu bois foyda mezonni bir qator boshqa mezonlar bilan to'ldirilishni talab etadi. Masalan, bunday mezonlar qatoriga zamonaviy san'at konsepsiyalariga xos bo'lgan temporallik, ya'ni o'zgaruvchanlik xususiyatlarini hisobga oluvchi mezonlar, shuningdek, statistik va moliyaviy hisob-kitoblarga imkon beruvchi mezonlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, sotsiologlar odatda ilgari suruvchi kasbiy mezon ham ijodkor statusini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda ijodkor statusidan muayyan hujjat, masalan, diplomning mavjudligi yoki biror kasbiy, ijodiy uyushmalar, assotsiatsiyalarga a'zolik talab etiladi. Bu ma'noda ijodkorning sotsial statusi u bajaradigan kasbiy rollar bilan belgilanadi. K.M.Levitan kasbiy rollarni quyidagicha ta'riflaydi: "Kasbiy rol muayyan kasbdan talab etiladigan me'yoriy xulq-atvor modellarining yig'indisi bo'lib, u ushbu kasb haqidagi kishilarning tasavvuri yordamida nazorat qilinadi."¹⁵

Kasbiy rol – jamiyatdagi muayyan faoliyat turini bajarishga qaratilgan sotsial funktsiya. Kasbiy rol kishining u yoki bu harakatni amalga oshirishiga qarab emas, balki bajarilgan harakatning oqibatlariga qarab baholanadi. Unga ko'ra, kasbiy rollarning chegarasi qat'iy belgilanadi, biroq ular mutloq emas, chunki aniq u yoki bu harakatni amalga oshirish ko'p variantli xususiyat kasb etadi. Masalan, ijodkor shoir, yozuvchi ayni paytda pedagog, injiner, vrach yoki boshqa kasb egasi bo'lishi ham mumkin.¹⁶

¹⁵ Левитан К.М. Основы педагогической деонтологии. – Москва, 1994. – С.15.

¹⁶ Левченко Е.В., Шарафиева Е.В., Шурубор Н.Е. «Лица необщее выражень» // Высшее образование в России. 1993. – № 1. – С.76.

Shaxs sifatida ijodkor ayni paytda bir nechta rollarni bajaradi. Bu, o'z navbatida, rollarning o'zaro konfliktiga olib keladi.¹⁷ Rus tadqiqotchisi G.Shirokolovanning ta'kidlashicha, ijodkorlar orasida rollarning o'zaro ziddiyati ko'p uchraydi. Pedagogik faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan ijodkor olim o'quv metodik va ilmiy-ijodiy jarayondagi rollarning ziddiyati bois ulardan birini tanlashga majbur bo'ladi¹⁸. Bundan tashqari, ilmiy-ijodiy faoliyatning o'zida ham rollarning konflikti kuzatiladi. Tadqiqotchi V.I.Kupsovaning xulosalariga ko'ra, "har bir ijodkor olim yoki yozuvchi shoir muayyan ilmiy-ijodiy guruhlarining a'zosi sanaladi. Turli manfaatlarni ko'zlagan bir nechta ilmiy ijodiy jamoalarga mansublik shaxs bajarayotgan rollarning o'zaro konfliktiga imkon yaratadi. Tabiiyki, bu o'rinda ijodkor shaxsning bu rollardan birini tanlashiga to'g'ri keladi"¹⁹. Bu ma'noda ijodkor statusi haqida ijtimoiy va alohida individual ongda tasavvurlarning nomuvofiqligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan ijodkor shoir yoki yozuvchi haqida tor doiradagi kitobxon hamda o'quvchilarning fikri ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Lekin keng doiradagi jamoatchilik fikri ijodkor shaxsiyatiga nisbatan o'ziga xos ijtimoiy mas'uliyat yuklaydi.

Sotsiologiyada klassik mezon sifatida qabul qilinuvchi kasbiy mezonning ijodkor statusiga nisbatan qo'llanishida bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Masalan, yaqin tarixdan ma'lumki aksariyat shoir, yozuvchi, rassom yoki bastakorlarning ijodkor shaxs ekanliklarini tasdiqlovchi diplom, hujjatlari bo'lmagan. O'z navbatida, muayyan diplomga ega har qanday kishini ham ijodkor deya olmaymiz. Shu ma'noda ma'lumotlilikka ega bo'lish ijodkorga nisbatan asosiy mezon bo'la olmaydi.

Sotsiologlar kasbiy mezondan tashqari ijodkor statusini belgilashda vaqt mezonini ham taklif etadilar. Mazkur mezon kishining umri davomida muayyan ijodiy faoliyat bilan qancha vaqt mashg'ul bo'lganini nazarda tutadi. Ushbu mezon foyda mezoniga solishtirganda,

¹⁷ Добрынина В.И., Кухтевич Т.Н. Социальный конфликт в высшей школе России // Социально-политический журнал. 1994. – №3-6. – С. 169-180.

¹⁸ Широкалова Г. Диалог «Преподаватель - студент»: основные результаты социологического исследования // Информационный сборник НИ- ИВО. 1991. – №2. – С.38.

¹⁹ Философия и методологии науки. с1996. – С.442.

bir muncha samarali hisoblanadi. Masalan, 1974-yilda Fransiyadagi statistika va iqtisodiyot instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda atiga 30% ijodkor daromadlarining 50 foizini asarlarini sotishdan olishini aytgan. Ijodkorlarning 48 foizi esa vaqtlarining aksariyat qismini ijodiy faoliyatga bag'ishlaganligini ta'kidlaydilar.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, ijodning sof iqtisodiy va ma'naviy, gedonistik jihatlarini bir-biridan keskin farq qilishi ma'lum bo'ladi. Aksariyat ijodkorlarning faoliyati asosida iqtisodiy rentabillikdan ko'ra ijodga nisbatan ichki ma'naviy ehtiyoj dominantlik qiladi.

Ijodkor statusini ta'riflashda o'z-o'zini belgilash mezonini ham keltirish mumkin. Unga ko'ra, ijodkorlik mezonini kishining o'zi belgilaydi. Aniqrog'i, inson o'zini ijodkor deb hisoblasa, u ijodkor sanaladi. Ushbu ta'rif 1980-yilda qabul qilingan UNESCOning ijodkorlar statusiga oid tavsiyanomasida quyidagicha keltiriladi: "o'z ijodiy faoliyati mavjudligining asosiy omili deb bilgan, shu faoliyati natijasida san'at va madaniyat rivojiga hissa qo'shgan, mashg'ulot turi va kasbidan qat'iy nazar muayyan ijodiy faoliyatga da'vo qilgan kishi ijodkor sifatida qabul qilinadi"²⁰.

Bu o'rinda o'z-o'zini belgilash mezoni ziddiyatli ma'no kasb etmaydi. Bu yerda "ijodkor" tushunchasi bir muncha aniq ta'riflanganiga qaramay, ushbu ta'rifdan amaliy jihatdan kam foydalaniladi. 1974-yil Fransiyada o'tkazilgan tadqiqotlarda so'ralgan respondentlarning 60% i o'zini professional ijodkor sifatida bilishi, 15% respondent esa o'zini ijodkor deb atashdan tortinishini aytib o'tgan.

Yosh ijodkorlar, xususan, shoirlarning sotsial qiyofasini yaratishda status va rollar yondashuvidan tashqari ularning muayyan normativ standartlarga ko'ra xulq-atvorini tahlil etish ham ahamiyatli sanaladi. Shoir statusiga ega bo'lgan shaxs o'quvchilari, muxlislari, boshqa ijodkorlar hamda u a'zo bo'lgan uyushma rahbarlari bilan turlicha munosabatga kirishadi. Ayniqsa, muayyan ijodiy uyushmalarga a'zo bo'lgan ijodkorlar statusi shoir bajarishi kerak bo'lgan o'ziga xos xulq-atvor standartlarini talab qiladi. Jamoatchilik qabul qilgan xulq-atvor standartlariga muvofiq kelish uchun ijodkorlar o'z subyektiv etalonlarini doimiy ravishda shakllantirib borishlari kerak. Ushbu subyektiv etalon normativ talablarga asoslangan bo'lib, o'z navbatida, normativ talablar esa uzoq tarixiy davr

²⁰ Heinich N. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996, p.68.

mobaynida ma'lum xulq-atvor modellari asosida shakllanadi.

Ijodkorlardan kutiladigan normativ, ya'ni me'yoriy talablar muayyan sotsiomadaniy muhitda mavjud odat va ana'nalarga asoslangan norasmiy munosabatlar shaklida bo'ladi. Bu ma'noda odat va ana'nalarning mohiyati jamiyat tomonidan tan olingan ma'lum faoliyatni amalga oshirish hamda ularni bajarimaslikni keskin qoralash bilan belgilanadi. Rasmiy me'yorlar odatda davlat tomonidan o'rnatiladi. Norasmiy me'yorlar esa ijtimoiy ongda stereotiplar, an'analar, odatlar ko'rinishida ijtimoiylashuv natijasida vorisiylik tamoyili asosida avloddan avlodga o'tib boradi.

Ijodkor shaxsning sotsial roli o'ziga xos normativ (me'yoriy) struktura bilan belgilanadi. Bu o'rinda rollarning normativ (me'yoriy) strukturasi quyidagi to'rt elementni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Shaxsdan talab etiladigan xulq-atvor namunasi.
2. O'rnatilgan talablarning ushbu xulq-atvorga muvofiqligi.
3. Ushbu sotsial rolning bajarilishi yoki bajarilmasligini baholash.
4. Sanksiyalar²¹.

Me'yorlar individ xulq-atvorining o'ziga xos mezoni sanalib, jamiyat, o'z navbatida, ushbu xulq-atvorni baholaydi. Bu hol ijtimoiy me'yorlarning modal funksiyasini tashkil etadi.

Ijtimoiy me'yorlar bir qator o'ziga xos belgilar bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, sotsial xulq-atvor me'yorlari ratsional anglangan hamda mantiqiy izchil taqiq yoki ruxsat ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Bu ma'noda vosita maqsadga yoki bugungi maqsad uzoq ko'zlangan maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Aksariyat ijtimoiy me'yorlar, yuqorida ko'rsatilganidek, maqsad va vosita sifatida elementlarga ajratilmaydi, ular yaxlit streotip, xulq-atvor standartlari shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu standart va stereotiplar individning xatti-harakati sifatida amalga oshadi.

Ahamiyatlilik darajasiga ko'ra, sotsial me'yorlar muayyan iyerarxiyani tashkil etadi. Masalan, kasbiy etika me'yorlari, kundalik hayotdagi xulq-atvor me'yorlari. Ayniqsa, kundalik hayot xulq-atvor me'yorlari sotsial qiyofani belgilovchi muhim elementlardan biri sanaladi.²²

²¹ Философия и методологии науки. – Москва, 1996. – С.442.

²² Российская социологическая энциклопедия. Ук. соч. – С.319-320.

Har qanday shaxs kabi ijodkor ichki va tashqi sotsial nazorat doirasida o'z rollarini amalga oshiradi. Ijodkor jamiyat orasida muayyan mavqega ega bo'lib borarkan, o'zini shoir, rassom, yozuvchi, aktyor kabi statuslar bilan aynanlashtirib boradi. Ushbu statusga muvofiq rollar jamlanmasi shaxsning huquq va majburiyatlarini, xulq-atvor standartlarini hamda faoliyatini belgilab beradi. Shoir yoki yozuvchi statusiga muvofiq rollarning bajarilishi kitobxonlar, o'quvchilar, muxlislar, tanqidchilar sifatidagi jamoatchilik tizimi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Mazkur rollarning bajarilmasligi jamoatchilik nazorati tomonidan turli darajadagi sanksiyalarning qo'llanishiga sabab bo'ladi. Ch.Mills ijtimoiy sanksiyalar haqida quyidagilarni keltiradi: muayyan rollardan kutiladigan talablar, asosan, individning qadriyatlar tizimiga bo'lgan munosabatini belgilovchi quyidagi ikki jihatga ega:

1. Ayrim ijtimoiy rollardan kutiladigan ijtimoiy talablar rol bajaruvchi individning xulq-atvor standartlarini qisman shakllantiradi. Sodaroq qilib aytganda, bu individning o'z roliga nisbatan bahosi hisoblanadi.

2. Ayrim ijtimoiy talablar esa boshqalarning ushbu rolga nisbatan bildirishi mumkin bo'lgan reaksiyasiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, ular sanksiyalar deb ataladi. O'z navbatida, ijtimoiy sanksiyalar holatiga ko'ra, salbiy va ijobiy sanksiyalarga ajratiladi. Bu o'rinda sanksiyalar va ijtimoiy talablarning munosabatlari o'zaro bog'liqlik kasb etadi. Chunki muayyan individ uchun ijtimoiy talab bo'lgan holat boshqa individlar uchun sanksiya yoki aksincha bo'lishi mumkin²³.

Sotsial nazorat tizimida sanksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsial rollarni bajarishda sanksiyalardan keng foydalaniladi. Turli darajadagi davlat mukofotlari, grantlar, faxriy yorliqlar ko'rinishidagi rasmiy sanksiyalar shoir-yozuvchilarning sotsial rollarini bajarishlarida o'ziga xos nazorat funksiyasini amalga oshiradi. Bundan tashqari, kitobxonlarning e'tirofi, muxlislarining iliq munosabatlari, maqtovlar norasmiy sanksiyalar sifatida baholanadi. Shuning bilan bir qatorda, jamoatchilik tomonidan ijodkorlar faoliyatini nazorat qilishda turli ijodiy uyushmalar a'zolidan chiqarilish kabi salbiy ma'nodagi rasmiy sanksiyalar hamda masxaralash, laqablar qo'yish, xilma-xil

muhokama ko'rinishidagi norasmiy sanksiyalardan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor namunalari, asosan, sotsial rollar orqali amalga oshiriladi. Bu ma'noda rol statusning dinamik holati sifatida baholanadi. Ijodkor shaxs o'zini muayyan tabiiy, kasbiy, oldindan belgilangan status va rollar jamlanmasi bilan idenfikasiyalaydi. Sotsiologik adabiyotlarda identifikatsiya, shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xos mexanizmi sifatida ta'riflanadi. Mazkur jarayonga ko'ra, individ o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruhlarning qadriyatlarini me'yorlari, ideallari, xulq-atvor namunalari hamda rollarini o'zlashtiradi va qabul qiladi.

Identifikatsiya individ maqsadlarining biror ijtimoiy guruh, tashkilot, jamoa maqsadlari bilan aynan muvofiq kelishini anglatadi. Sotsiologiyada identifikatsiya to'liq va qisman identifikatsiyaga ajratiladi. Masalan, muayyan ijtimoiy guruh yoki kasbiy jamoalarning yadrosini to'liq identifikatsiyalashgan individlar tashkil etadi. Ularning xatti-harakatlari o'z majburiyat va burchlarini shunchaki bajarish bilan cheklanmaydi, zero, ularning shaxsiy manfaatlarini guruh yoki tashkilot manfaatlarini bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Aksariyat hollarda ijodkor shaxslar, xususan, shoir yozuvchilar o'zlarini millat, xalq, sinf kabi keng ijtimoiy birliklar bilan identifikatsiya qiladilar. Ularning identiklik holati muayyan xalq, millat, sinfning ziyoli qatlamini tashkil etishlari bilan belgilanadi. Chunki ijodkorlar san'atni populyarizatsiya qilish va aqliy mehnat bilan shug'ullanishdan tashqari turli o'zgarishlarga sabab bo'luvchi yangiliklarni ham yaratadilar. Shuning bilan bir qatorda, ular o'z faoliyatlarini bilan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishga katta hissa qo'shadilar.

T.Parsonsga ko'ra, ijodkor shaxslar faoliyat olib borayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimi nafaqat amaliy, balki yaratuvchanlik ahamiyatiga ham ega. Negaki ijodiylik shaxsni shakllantiradi. Ushbu munosabatlar bir xil sotsial strukturaga ega bo'lishiga qaramay, har bir shaxs ayni rollarni turlicha bajaradi. Bu har bir shaxsning betakrorligi va o'ziga xosligini ko'rsatadi²⁴.

²³ Миллс Ч. Высокая теория // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С.149-150.

²⁴ Парсонс Т. Система координат действия и общая теория системы действия: культура, личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С. 460.

Bu ma'noda ijodkor shaxsining faoliyati yangicha uslub, standart va xulq-atvor modellarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Biroq shunga qaramay, ularning faoliyati jamiyat talabiga ko'ra belgilanadi. E.Dyurgeym ta'biri bilan aytganda, "Agar jamiyat san'atkor va shoirlarning faoliyatini doimiy kuzatib, nazorat qilmaganda, Vatanimizning ulkan ma'naviyati o'zaro ziddiyatga kirishgan mayda bo'laklarga, tomonlarga ajralib ketgan bo'lar edi"²⁵.

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytganda, ijodkorlarga xos bo'lgan ijtimoiy status va rollar jamlanmasi ularning sotsial va shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'ziga xos qiyofasini belgilaydi. Ijodkorlar, xususan, shoirlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi nafaqat iqtisodiy, moddiy, ma'naviy shart sharoitlar bilan,

balki ular status va rollarining hayotga tadbiiq qilingani bilan ham belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, ijodkor shoir o'z-o'zini mazkur status bilan qanchalik identifikatsiya eta olishi uning jamiyatda egallagan o'rnini ko'rsatadi.

Yosh ijodkorlarning sotsial qiyofasini tasvirlash ularning sotsial status va rollarini, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini belgilashni nazarda tutadi. Shuningdek, ijodkorlarning sotsial qiyofasi qadriyatiy mo'ljallar, bo'sh vaqt, ijtimoiy siyosiy faollik kabi komponentlarni ham o'z ichiga olib, ularni tadqiq etishni talab qiladi. Bu o'rinda qadriyatga oid mo'ljallar sotsial qiyofaning status va rollardan keyingi muhim belgisi sanaladi. Zero, muayyan ijtimoiy guruhning an'anaviy tanlovi uning ijtimoiy tizimdagi ahamiyatini belgilaydi.

²⁵ Дюркгейм. Социология образования. – Москва, 1996. – С. 23.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Современная западная социология. – Москва, 1990. – С. 331
2. Линтон, Р. Культурные основания личности / Р. Линтон, И.Л. Галинская // Вестник культурологии. – 2013. – №4. – С. 51
3. Социология. Учебное пособие. Минск, 1998. – С. 123
4. Социология. Ук. соч. – С. 300
5. Смелзер Н. Социология. – Москва, 1994. – С.91.
6. Знанецкий Ф. Исходные данные социологии // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С. 74.
7. Комаров М.С. Введение в социологию. – Москва, 1994. – С. 10
8. Кон И.С. В поисках себя: Личность и ее самосознание. – Москва, 1984. – С. 260.
9. Харчева В. Основы социологии. – Москва, 1997. – С.141.
10. Парсонс Т. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С. 449. HeinichN. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996. – P.64.
11. Heinich N. Être artiste. Klincksieck. Paris, 1996, – P. 65.
12. Левитан К.М. Основы педагогической деонтологии. – Москва, 1994. – С.15.
13. Левченко Е.В., Шарафиева Е.В., Шурубор Н.Е. «Лица необщее выраженье» // Высшее образование в России. 1993. – № 1. – С.76.
14. Добрынина В.И., Кухтевич Т.Н. Социальный конфликт в высшей школе России // Социально-политический журнал. 1994. – № 3-6. – С. 169
15. Широкалова Г. Диалог «Преподаватель – студент»: основные результаты социологического исследования // Информационный сборник НИ-ИВО. 1991. – №2. – С.38.
16. Философия и методологии науки. – Москва, 1996. – С. 442.
17. Российская социологическая энциклопедия. Ук. соч. – С. 319
18. Миллс Ч. Высокая теория // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С. 149–150.
19. Парсонс Т. Система координат действия и общая теория системы действия: культура, личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль. – Москва, 1994. – С.460.
20. Дюркгейм. Социология образования. – Москва, 1996. – С.23.



Эргашев Пулат Собирович,
 Главный психолог Международной школы Ал-Беруни,
 доктор психологических наук, доцент

ПОЛ И ЧУВСТВО СИММЕТРИИ: ОБ ОДНОМ АСПЕКТЕ ПОЛОВОЙ СПЕЦИФИКИ ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье представлены результаты эмпирического исследования половых особенностей чувства симметрии. При этом феноменологический анализ разнообразия форм и направлений проявления характеристик симметричности в окружающем мире, позволил определить концепт «чувство симметрии» как чувственное переживание, обусловленное психическим отражением степени упорядоченности, уравновешенности и соразмерности предметов и явлений. На основе представления о дифференциальных признаках эмоционального реагирования в зависимости от пола, было выдвинуто предположение о значимой роли этого фактора в эмоциональном отражении симметрии и ее нарушения. Представленные количественные данные позволяют утверждать половую специфичность развития чувства симметрии. В частности, было выявлено что отношение к симметрии в группе испытуемых женского пола однороднее, чем в группе испытуемых мужчин. Данная специфика отношения к симметричности проявляется в большем внутригрупповом разбросе показателей чувства симметрии среди испытуемых мужского пола, при относительно равномерном распределении результатов испытуемых женского пола. Кроме этого, полученные данные свидетельствуют о том, что половые особенности восприятия симметрии лица и ее нарушения более отчетливо выражаются во времени обнаружения асимметричности, во взаимосвязи скорости с точностью, в чем девочки превосходят мальчиков.

Ключевые слова: пол, чувство симметрии, детерминанта, эмоциональное отношение, динамика, фактор, статистическая разность, дисперсия.

Annotatsiya. Maqolada simmetriya tuyg'usining jinsiy xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari keltirilgan. Shu bilan birga, atrofimizdagi dunyoda simmetriya xususiyatlarining namoyon bo'lish shakllari va yo'nalishlarining xilma-xilligini fenomenologik tahlil qilish "simmetriya tuyg'usi" tushunchasini aqliy aks ettirish, ya'ni obyektlar va hodisalarning tartibli, muvozanat va mutanosiblik darajasi tufayli hissiy tajriba sifatida aniqlashga imkon berdi. Jinsga bog'liq bo'lgan emotsional reaksiyaning differensial belgilari konsepsiyasi asosida simmetriya va uning buzilishini hissiy aks ettirishda ushbu omilning muhim roli haqida faraz qilindi. Taqdim etilgan miqdoriy ma'lumotlar simmetriya tuyg'usi rivojlanishining gender o'ziga xosligini tasdiqlashga imkon berdi. Xususan, ayollarning subyektlar guruhida simmetriyaga munosabati erkaklar guruhiga qaraganda bir xil ekani aniqlandi. Simmetriyaga munosabatning bu o'ziga xosligi erkak subyektlar o'rtasida simmetriya tuyg'usi ko'rsatkichlarining ko'proq guruh ichida tarqalishida, ayol subyektlarning natijalarini nisbatan teng taqsimlashida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yuz simmetriyasi va uning buzilishini idrok etishning gender xususiyatlari asimmetriyani aniqlash vaqtida, tezlikning aniqlik bilan bog'liqligida aniqroq ifodalangan, bunda qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ustunlik qiladi.

Tayanch so'zlar: jins, simmetriya tuyg'usi, determinant, emotsional munosabat, dinamika, omil, statistik farq, dispersiya.

Annotation. The article presents the results of an empirical study of the sexual characteristics of the sense of symmetry. At the same time, the phenomenological analysis of the variety of forms and directions of the manifestation of the characteristics of symmetry in the surrounding world allowed us to define the concept of "sense of symmetry" as a sensory experience caused by the mental reflection of the degree of order, balance and proportionality of objects and phenomena. Based on the idea of differential

signs of emotional response depending on gender, an assumption was made about the significant role of this factor in the emotional reflection of symmetry and its violation. The presented quantitative data allow us to assert the sexual specificity of the development of a sense of symmetry. In particular, it was found that the attitude to symmetry in the group of female subjects is more homogeneous than in the group of male subjects. This specificity of the attitude to symmetry is manifested in a greater intra-group spread of indicators of a sense of symmetry among male subjects, with a relatively uniform distribution of the results of female subjects. In addition, the data obtained indicate that the sexual characteristics of the perception of facial symmetry and its violations are more clearly expressed in the time of detection of asymmetry, in the relationship of speed with accuracy, in which girls are superior to boys.

Keywords: gender, sense of symmetry, determinant, emotional attitude, dynamics, factor, statistical difference, variance.

Введение. Жизнь современного человеческого общества характеризуется такими социальными изменениями, о которых несколько столетий назад даже не представляли. Важнейшим социокультурным явлением нового времени, безусловно, является размежевание во многих областях жестких границ мужского и женского мира. Действительно, сегодня уже сложно представить, что многое из того, чем занимаются женщины было до недавнего времени исключительной прерогативой мужчин. Освоение женщинами новых для себя традиционно мужских ролей вызывает все больше интереса к проблемам полового развития. В психологии все больше исследований, где выявляется роль полового фактора как детерминанты особенностей психической деятельности. Однако, многое в этой области все еще остается неизученным, в том числе значение полового фактора в переживании чувства симметрии.

При обсуждении эмоциональных явлений вопрос о половой дифференциации всегда кажется вполне очевидным, поскольку даже на уровне обыденного сознания нельзя не констатировать специфичность переживания определенных чувств мужчиной и женщиной. Специальные научные исследования также подтверждают определенные дифференциальные значения. Действительно, во многих исследованиях выявлены отчетливые различия в эмоциональной сфере лиц мужского и женского пола. Родители детей дошкольного возраста чаще говорят об эмоциях девочек и о переживаемых ими эмоциональных событиях. Возможно, поэтому уже двухлетние девочки активнее используют слова, обозначающие эмоции, чем мальчики, экспрессивность

поведения женщин также отмечается многими исследователями (Ильин, 2010). Так, в работе К.Н. Сухановой показано, что мужчины чаще сдерживают проявление эмоций, чем женщины (60% против 40%), и больше нуждаются в эмоциональном участии (100% и 60%). При этом представители сильного пола чаще игнорируют эмоциональные проблемы (80% против 30%). Женщины чаще сохраняют эмоциональную безучастность в отношениях (60% против 40%) (Суханова, 2001).

Сравнение склонности к переживанию базовых эмоций у школьников и школьниц разного возраста, проведенное Е.П. Ильиным и М.С. Пономаревой, показало, что у девочек и девушек во всех возрастных группах склонность к страху выражена значительно больше, чем у мальчиков и юношей (Ильин и Пономарева, 2001). В первые годы жизни нет различий в частоте и продолжительности гнева у мальчиков и девочек, но с возрастом их частота и интенсивность у мальчиков возрастают, а у девочек – убывают. Л.В. Куликов выявил значимые различия в самооценке печали: у женщин она выше. В склонности к проявлению радости, по данным М.С. Пономаревой, не обнаружено четких половых различий (Ильин, 2010).

К определению понятия “чувство симметрии”. “Чувство симметрии” определяется нами как эмоциональное переживание, обусловленное психическим отражением степени упорядоченности, уравновешенности и соразмерности предметов и явлений (Эргашев, 2011). Такому пониманию “чувства симметрии” нас сподвигает определение понятия “симметрия”, согласно которому это – “Пропорциональность, соразмерность в расположении частей целого

в пространстве, полное соответствие (по расположению, величине) одной половины целого другой половине» (Ушаков, 213). По лингвистическому анализу становится понятным, что симметричность возникает, когда части целого настолько идентичны друг другу, что измерение одной части делает возможным строить заключение о параметрах другой части, без ее непосредственного измерения. Другими словами, основу симметричности всегда составляет пропорциональность частей друг другу, их соразмерность и сочетаемость относительно друг друга. Соответственно, применение понятия «симметрия» подразумевает описание объектов на основе их частей. В тоже время пропорциональность может предполагать не только взаимную сочетаемость отдельных составляющих объекта, но и соотношение параметров частей относительно целого.

Согласно справедливому утверждению основоположника современной науки о симметрии немецкого математика Германа Вейля «Симметрия является той идеей, посредством которой человек на протяжении веков пытался постичь и создать порядок, красоту и совершенство» (Вейль, 1968). Несмотря на то, что стремление к «порядку», «красоте» и «совершенству» связано с определенными чувственными переживаниями даже в самых на сегодняшний день объемных толковых психологических словарях (Меёриков и др., 2006), (Reber, 1995) нет определения понятию «чувство симметрии». Мы не нашли определения этому явлению также в словаре художественных терминов (Сокольников, 1998), хотя специалисты в области дизайнерского искусства признают, что симметрия дает ощущение строгости, важности, спокойствия, тогда как асимметрия вызывает чувство динамизма, свободы (Ковешникова и Ковешников, 1999), беспокойства, сложности (Писаренко и Ставнистый, 2005).

При отсутствии конкретного определения чувства симметрии в науке, очень знаменательно, что данным понятием нередко оперируют писатели в художественной литературе для описания психологического портрета литературных героев. Например, в одном из эпизодов романа «Смерть в облаках» Агата Кристи отмечает особую эмоциональную

реакцию Эркюля Пуаро на определенную ситуацию: «Пуаро ничего не ответил, распрямился, поправив на столе вилку и солонку. Беспорядок всегда действовал ему на нервы и оскорблял его чувство симметрии» (Агата Кристи, 1990). В другом произведении Агата Кристи вновь подчеркивает особое отношение главного героя к симметрии и нарушению симметричности: «В свое время Пуаро пожаловался, что яйца бывают и крупными, и мелкими, а это оскорбляет его чувство симметрии» (Агата Кристи, 1992). В романе «Загадка Эндхауза» А. Кристи недвусмысленно указывает на то, что людям с высокоразвитым чувством симметрии симметричность в окружающем мире очень необходима для сосредоточения внимания и наведения порядка в мыслительных действиях. Так, описывая поведение Пуаро в ситуации рассеянности, автор пишет следующее: «За завтраком мой друг был молчалив и рассеян. Он крошил хлеб, издавал какие-то невнятные восклицания и выстраивал в симметричном порядке все, что стояло на столе. Я попытался было завязать разговор, но вскоре махнул рукой» (Кристи, 1992).

Исследователи обращают внимание как Ганс Касторп из романа «Волшебная гора» Томаса Манна не скрывает своего впечатления от симметричности тела человека: «Посмотри на восхитительную симметрию, с какой построено здание человеческого тела» (Манн, 1959), (Руднев, 2008).

Итак, в художественных произведениях нередко описания положительного или отрицательного отношения некоторых героев к симметрии и ее нарушению в окружающем мире. Тем временем, отсутствие в специальной литературе какого-либо определения «чувства симметрии» при частом упоминании данного понятия в художественных произведениях наталкивает на мысль о том, что возможно, это просто фигура речи, своеобразная фразеологическая единица, наподобие такого фразеологизма как «чувство локтя». Однако детальное изучение фразеологического словаря русского языка, включающего в себя 7000 актуальных для языковой практики фразеологизмов (Булыко, 2007) не подтвердило правомерности такого рода предположений. Кроме того, несмотря на то, что авторы солидных

научных работ по психологии не предлагают определений этому понятию, они используют его при описании различных психологических явлений.

В научном лексиконе понятию “чувство симметрии” наибольшее внимание уделял А.Маслоу в фундаментальном труде «Мотивация и личность» рассматривает чувство симметрии как частное проявление одной из высших потребностей – эстетической потребности (Маслоу, 2008). Вместе с тем, А.Маслоу указывает на то, что такие потребности как потребность в порядке, симметрии, завершенности, законченности, системе, структуре могут носить не только когнитивный или эстетический, но и невротический характер (Маслоу, 2008). Наряду с нередким упоминанием понятия «чувство симметрии» в научной литературе, исследователи подчеркивают, что такое эмоциональное переживание было издревле свойственно человеку. Согласно данным палеонтологии и археологии, чувство симметрии зародилось более двух миллионов лет назад. В.И. Вернадский в работе «Химическое строение биосферы земли и ее окружение» писал о том, что «Чувство симметрии и реальное стремление выразить его в быту и в жизни существовало в человечестве с палеолита или даже эолита, то есть самых длительных периодов в доистории человечества, который длился для палеолита около полумиллиона лет, а для эолита – миллионы лет» (Вернадский, 2001).

С первого взгляда кажется очевидным более положительное отношение к симметрии со стороны женского пола. Ведь не просто так им легче должно даваться правописание и пунктуация (Мойр и Джессл, 1992), в основе которых лежит присущая в большей степени девочкам аккуратность и тщательность (Ильин, 2003), не зря они владеют лучшей способностью синхронно перестраиваться в соответствии с условиями изменяющейся среды, при быстрой психической реакции даже на слабые раздражители (Иорданов, 2003), эстетические потребности во всех возрастах более выражены у девочек (Ильин, 2010). Кроме того, согласно данным М. Рокича, для мужчин более ценными, чем для женщин, являются захватывающая жизнь и комфорт, самореализация, свобода, удовольствие, социальное одобрение, тогда как

для женщин в большем приоритете – счастье, внутренняя гармония, собственная безопасность, самоуважение и мудрость (Ильин, 2010). Если анализировать иерархию ценностей с точки зрения символического значения симметрии и асимметрии, можно предположить, что более важная для мужчин свобода, захватывающая и разнообразная жизнь, самореализация вероятнее всего больше связана с асимметрией, безопасность, ощущение гармонии, мудрость, которые в большей степени значимы для женщин, по сути, ближе всего к симметрии. Другими словами, первоначально можно предположить, что стремление к сохранению симметричности в большей мере характерно для женского пола.

Однако данные специальных исследований предостерегают нас от поспешных, навязанных социальными стереотипами обобщенных суждений. Например, в исследовании А.В. Кудинова доказано, что в стремление юношей и девушек к упорядоченной организации своей деятельности существенных отличий не наблюдается. Они в равной мере предпочитают сохранять порядок на своём рабочем месте, пытаются контролировать и проверять себя в ходе работы, чётко выделяют среди накопившихся дел второстепенное и главное (Кудинов, 2005).

Результаты эмпирического исследования и их результаты. Для изучения полового аспекта эмоционального отношения к симметричности мы сравнили результаты учащихся девушек и парней, а также студенток и студентов. Также для анализа зависимости изучаемых явлений от полового фактора в более длительной временной перспективе мы решили добавить сюда сравнительный анализ результатов учащихся 7 класса средней школы (n=26), которые были собраны с помощью упрощенного варианта шкалы Ф.Бэррона-Дж.Уэлша. По итогам анализа результатов статистической обработки первоначально необходимо констатировать, что по t-критерию Стьюдента между показателями чувства симметрии учащихся и студентов мужского и женского пола существенных отличий не было выявлено. Однако в этих результатах наше внимание привлекла другая закономерность (смотрите таблицу 1). По результатам статистического анализа по двухвыборочному F-тесту для дисперсии, было выявлено, что во всех возрастных группах

имеет место статистическая разность одной направленности в показателях дисперсии.

Таблица 1

Показатели разности дисперсии в результатах испытуемых мужского и женского пола по уровню чувства симметрии (по F-критерию Р.Фишера)

Группы испытуемых	Статистические показатели			
	Женский пол	Мужской пол	F	F-критическое
Школа ($n_1=16$; $n_2=10$)	8,82	20,4	0,43	0,37
Лицей ($n_1=23$; $n_2=24$;))	54,08	82,54	0,65	0,49
Университет ($n_1=18$; $n_2=12$;))	42,53	76,36	0,55	0,39

Как видно из табличных данных, в каждой возрастной группе испытуемые мужского пола имеют большой разброс показателей, который на статистически значимом уровне отличается от результатов женской половины. Другими словами, отношение к симметрии в группе испытуемых женского пола однороднее, чем в группе испытуемых мужского пола. Интерпретация половых различий несколько затрудняется в силу того, что приписывание многих особенностей однозначно тому или иному полу нередко легко опровергается новейшими исследованиями или начинают требоваться дополнительные уточнения в свете появившихся новых данных. Поэтому за основу интерпретации более оправдано выбирать такие особенности, половая дифференциация которых не вызывает разночтения. В вопросах пола, полагаем, таковым является стремление к доминированию. В исследованиях доказано, что уже в детском возрасте, девочки ценили свою чувствительность и межличностную гармонию, а мальчики – доминирование и грубость (Бендас, 2009). Поскольку в стремлении к доминированию (Бушуева, 2010), (Субботина, 2010), в установке на соперничество (Ильин, 2010) большую роль играет гормональный компонент, меньше всего разумно затевать спор по поводу обусловленных этим фактором психологических качеств. Тем

более, есть данные о том, что по *тесту на умственное вращение визуальных образов*, когда испытуемому нужно опознать целевой объемный объект среди похожих на него объектов, повернутых в разные стороны, мужчины имеют существенное преимущество перед женщинами. Однако мужчины, страдающие повышенным уровнем женского гормона эстрогена и обладающих повышенной выраженностью вторичных женских половых признаков, показывают более сниженную способность выполнения этого зрительно-пространственного теста. Были также получены аналогичные результаты, но уже на группе женщин: женщины с повышенным уровнем мужского гормона андрогена показывали более высокий уровень выполнения данного теста (Гусев, 2007).

Итак, на наш взгляд, именно стремление к доминированию, в большей степени характерное для представителей мужского пола, является важной причиной выявленной тенденции. Видимо, при сильном желании быть в доминирующей роли, мужчина сильнее переживает конкурирующую ситуацию, что вынуждает его пытаться выделиться, сделать что-то по-другому, чем у остальных. Несомненно, такой подход приводит к большому количеству индивидуальных показателей, которые плохо согласуются друг с другом. Наоборот, более развитые адаптивные качества женщин, в частности, пластичность, изменчивость «женской» психики, ее способность ощущать дыхание внутренних и внешних воздействий (Иорданов, 2003), побуждает к большему единству с общегрупповыми показателями.

Как известно, человеческое лицо, будучи объектом познания, имеет особую специфику, что зачастую затрудняет прямую экстраполяцию выводов о закономерностях психического отражения предметов материального мира на социально-перцептивные процессы. Учитывая специфику человеческого лица как объекта восприятия, с одной стороны, и важнейшее значение симметричности лица в его эмоциональной оценке перцепиентом, с другой стороны, мы решили не ограничиваться изучением полового аспекта чувства симметрии относительно абстрактных изображений и

рассмотреть данную проблему в контексте оценки изображения лица. Для выявления половых особенностей чувства симметрии, проявляющихся в восприятии лица человека, нами было проведено эмпирическое исследование по следующему порядку:

- перед группой учащихся (n=15) младшего школьного возраста ставилась задача обнаружить нарушения в симметрии изображений 3 мужских и 3 женских лиц;
- в качестве подсказки к каждому изображению лица с нарушенной симметрией прилагалась пара, в которой симметричность не была нарушена;
- учеников просили максимально быстро отметить случаи асимметрии и сдать решенный тест учителю, который отмечал на нем очередность сдачи;
- при обработке результатов учитывался порядковый номер сдачи работы и правильность ответов (вычисление статистической разности и коэффициентов корреляции).

Как видно из представленного материала (смотрите рисунок 1), девочки, действительно быстрее решали тестовое задание – их нет

среди тех, кто сдал тест в самом конце (в первой десятке 7 девочек и 3 мальчика). В принципе, такие результаты согласуются с выводами исследователей о том, что при выполнении заданий на внимание девочки ориентируются на быстроту, а мальчики – на точность работы (Ильин, 2010). В связи с этим можно предположить, что девочки лучше справляются, когда асимметричность выражена более отчетливо, они быстрее мальчиков их обнаруживают. В тоже время мальчики в целом, затрачивая больше времени также способны выявить большее количество нарушений, что видимо, говорит об их способности выявлять более скрытые диспропорции.

Отсутствие значимых различий по количеству правильных ответов поддерживает наше предположение о том, что мальчики и девочки обнаруживают примерно равное количество нарушений симметричности во внешности, однако девочки достигают результата в первую очередь за счет быстрой фиксации более выпуклых деталей, мальчики за счет медленного поиска мелких элементов (смотрите таблицу 2).




Рис.1. Графическое изображение последовательности сдачи решенных тестов учащимися разных полов.

Количественные показатели выявления нарушений лицевой симметрии младшими школьниками

Статистические показатели	Условные группы	
	Девочки	Мальчики
Общее среднее количество правильных ответов	4,2	4,4
Показатели статистической разности (по Стьюденту)	t=0,3/p≥0,05	
Среднее количество правильных ответов по мужским лицам	1,87	2,28
Среднее количество правильных ответов по женским лицам	2,25	2,14
Показатели статистической разности (по Стьюденту)	t=0,96 p≥0,05	t=0,36 p≥0,05
Показатели корреляции ранга затраченного времени и количества правильных ответов (по Ч.Спирмену)	-0,19 p≥0,05	-0,83 p≤0,05

Таким образом, не было выявлено статистически значимых различий в количестве правильных ответов мальчиков и девочек при поиске нарушения симметричности на изображениях человеческого лица. Возможно, причиной этому является недостаточность опыта в сфере пола в детском возрасте, в котором вероятно, более весомую значимость имеют другие факторы, например, образ жизни ребенка (об этом факторе в следующем параграфе).

Несмотря на отсутствие, статистически значимых дифференциаций по количеству правильных ответов, необходимо указать на одну достаточно знаменательную деталь – девочки более успешны в выявлении нарушения симметричности лица своего пола (M=1,87/M=2,25), тогда как результаты мальчиков по оценке мужского и женского лица более однообразны (M=2,28/M=2,14). Последнее позволяет предположить, что девочки очень рано становятся критически внимательными относительно лиц своего пола. Мальчикам такое свойство не характерно, по крайней мере, в детском возрасте.

Вместе с констатацией отсутствия различий в общих показателях выявления нарушения симметрии, необходимо указать еще на один дифференциальный признак, обнаруженный в нашем исследовании. Речь идет о том, что при вычислении коэффициента ранговой корреляции между временем, затраченным на поиск асимметрии и количеством правильных

ответов, выявлена интересная взаимосвязь (смотрите таблицу 3.4). В частности, было выявлено, что в результатах мальчиков имеет место статистически значимая отрицательная корреляция (r=-0,83), которой не обнаружено в показателях девочек (r=-0,19). Последнее означает, что высокое место по фактору скорости среди мальчиков намного чаще, чем среди девочек, связано с низким рангом по параметру правильности решений. Другими словами, фактор скорости негативнее сказывается на точности ответов мальчиков в обнаружении асимметричности на лице человека.

Выводы. Таким образом, изучение половозрастных особенностей переживания чувства симметрии позволило выявить ряд знаковых положений. В частности, по результатам исследований в этом направлении можно сделать следующие выводы:

1. Половая специфика отношения к симметричности проявляется в большем внутригрупповом разбросе показателей чувства симметрии среди испытуемых мужского пола, при относительно равномерном распределении результатов испытуемых женского пола.

2. Половые особенности восприятия симметрии лица и ее нарушения более отчетливо выражаются во времени обнаружения асимметричности, во взаимосвязи скорости с точностью, в чем девочки превосходят мальчиков.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бендас Т.В. Психология лидерства: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 447 с.
2. Большой психологический словарь/ Под редакцией Б.Г. Мещерикова, В.П. Зинченко. –3-е изд., доп. и перераб. – Санкт-Петербург: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2006. – 672 с.
3. Булыко А.Н. Фразеологический словарь русского языка: около 7000 фразеологизмов. – Москва: Харвест, 2007. – 448 с.
4. Бушуева Н.В. Женское политическое лидерство: гендерные исследования в России // Социология власти. 2010. – №4. – С.100-108.
5. Вейль Г. Симметрия /Под ред. Б.А.Розенфельда. – Москва: Наука, 1968. – 191 с.
6. Вернадский В.И. Химическое строение биосферы Земли и ее окружения. – Москва: Наука, 2001. – 376 с.
7. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология мужчины и женщины. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 544 с.
8. Ильин Е.П. Пол и гендер. – Санкт-Петербург: Питер. 2010. – 688 с.
9. Ильин Е.П., Пономарева М.С. Возрастно-половая динамика базовых эмоций//Ананьевские чтения - 2001: Сборник тезисов научно-практической конференции. – Санкт-Петербург, 2001 г. 23-25 октября. – С.292-293.
10. Иорданов А.Ф. Особенности развития гендерных структур интегральной индивидуальности у студентов гуманитарного вуза: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Ставрополь: Сев.-Кавказ. гос. техн. ун-т, 2003. – 20 с.
11. Ковешникова Е.Н., Ковешников А.И. Основы теории дизайна: Учебное пособие для студентов вузов. – Москва: Машиностроение, 1999. – 206 с.
12. Кристи А. Детективные романы и повести. – Томск: Томское книжное издательство, 1990. – 560 с.
13. Кристи А. Собрание сочинений. В 20 т. Т. 4. Убийство в проходном дворе: Повесть; Загадка Ситтафорда: Роман; Загадка Эндхауза: Роман; Смерть лорда Эджвера: Роман: Пер. с англ./Сост. А. Титов. – Москва: Артикул, 1992. – 621 с.
14. Кудинов А.В. Гендерные особенности проявления организованности в юношеском возрасте: Автореф. дисс. ... канд. психол. наук. – Новосибирск: НГПУ, 2005. – 22 с.
15. Манн Т. Волшебная гора/ Собрание сочинений в 10 томах. Под ред. Н.Н.Вильмонта, Б.В.Сучкова. – Т.3. – Москва: Художественная литература, 1959. – 496 с.
16. Маслоу А. Мотивация и личность. – 3-е изд., Пер. с. англ. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 352 с.
17. Мойр Э., Джессл Д. Пол мозга. Истинные отличия мужчин от женщин/ Перевод М. Скороходова. – Москва: Delta, 1992. – 60 с.
18. Общая психология в 7 томах. Под ред. Б.С. Братуся / Т.2: Ощущение и восприятие / А.Н.Гусев. – Москва: Издательский центр «Академия», 2007. – 416 с.
19. Писаренко Т.А., Ставнистый Н.Н. Основы дизайна. – Владивосток: ТИДОТ ДВГУ, 2005. – 112 с.
20. Руднев В.П. Поэтика гипомании. Памяти Дмитрия Александровича Пригова // Консультативная психология и психотерапия. 2008. – №4. – С.99-123.
21. Сокольникова Н.М. Изобразительное искусство: Учебник для учащихся 5-8 кл.: В 4 ч. Ч.4.Краткий словарь художественных терминов. – Обнинск: Титул, 1998. – 80 с.
22. Субботина Н.Д. Естественные и социальные составляющие агрессии // Гуманитарный вектор, 2010. – №4 (24). – С.88-99.
23. Суханова К.Н. Гендерные проблемы эмоций// Психология XXI века: Сб. тез. межд. межвуз. науч.-прак. конф. студ. и аспирантов. – Санкт-Петербург, 2001 г., 12-14 апреля. – С.257-258.
24. Ушаков Д.Н. Толковый словарь современного русского языка. – Москва: Аделант, 2013. – 800 с.
25. Эргашев П.С. Чувство симметрии: проблемы феноменологии// Педагогика таълим. – Тошкент, 2011. №1. – С.35-39.
26. Reber A.S. The Dictionary of Psychology. – Leningrad: Penguin Books, 1995. – 868 p. 218



Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li,
 "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
 psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINING TALQIN ETILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining oila va nikoh munosabatlari haqidagi fikrlar yoritilgan. Maqolada oilaviy munosabatlarga oid qadriyatlarimiz, oilaviy nizolarni hal qilishda sharq mutafakkirlarining nasihatlari o'rin olgan. Sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarga qarashlari ijtimoiy-psixologik jihatdan yoritilgan.

Tayanch so'zlar: oila, sharq mutafakkirlari, psixologiya, qarashlar, nizolar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды восточных мыслителей на семейно-брачные отношения. В статье собраны наши ценности по семейным отношениям, советы восточных мыслителей в решении семейных споров. Освещены социально-психологические взгляды восточных мыслителей на семейные отношения.

Ключевые слова: семья, восточные мыслители, психология, взгляды, конфликты.

Annotation. This article discusses the views of oriental thinkers on family and marriage relationships. The article contains our values on family relations, the advice of oriental thinkers in resolving family disputes. The views of Eastern thinkers on family relations are socio-psychologically revealed.

Key words: family, Eastern thinkers, psychology, views, conflicts.

Kirish. Insoniyat yashash uchun qadam bo'lgan manzil borki, u yerda o'ziga xos bo'lgan madaniyat, urf-odat, an'analar shakllangan. Ular ming yillar davomida sayqal topgan, hayotning turli dovonlaridan o'tgan qadriyatlarga aylangan. Shunday bebaho moddiy va ma'naviy meroslarni bugungi kunda hamma mamlakat ham to'laligicha asrab qola olmagan. Rivojlangan mamlakatlarda inson erkinligi, uning xohish-istaklari birinchi o'ringa qo'yilishi natijasida o'sha hududda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimiga katta zarar yetmoqda. Oilaviy munosabatlar butunlay boshqacha ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Buning natijasida yoshlarning tarbiyasida deviant xulq-atvorlilar soni va turi ortdi. Oila instituti mustahkamligining zamiri

bo'lgan "oilaning yadroviy xususiyati" quyidagi oilaviy jarayonlar asosida shakllanadi: oilada er va xotin, farzandlar birgalikda bitta dasturxon ustida suhbatlashish, kunlik hayotiy yumushlarni muhokama qilish, ertangi kun rejalarini kelishib olish va maslahatlashish. Zamonaviy oilalarda ushbu qadriyat yo'qolib bormoqda. Aksariyat oilalarda er muntazam ravishda oiladan tashqarida ovqatlanishni ma'qul deb hisoblaydi. Otasiz, onasiz dasturxonda ovqatlanish odatiy holga aylanib bormoqda. Yuqoridagi hodisa ixtiyoriy yoki majburiy tarzda amalga oshadi.

Asosiy qism. Global muammo sifatida ko'rilayotgan migratsiya jarayoni aynan yuqoridagi xususiyatlarning shakllanishiga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Oilaning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida boshqa bir mamlakatga borib ishlash natijasida oilada farzandlar uzoq muddat otasiz, onasiz yoki ota-onasiz yashashga majbur bo'lmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, ular bilan muntazam aloqalar o'rnatish yo'lga qo'yilmoqda. Xorij mamlakatlariga borib o'qish va yashash imkoniyatlari oshdi. Oilalarda sharqona qadriyat, o'zbekona oilaviy munosabatlarga nisbatan o'zgarish paydo bo'lmoqda. Bizning hudud, bizning mamlakat o'z qadriyatlarini, sharqona va diniy meroslarini asrab qolgan sanoqli xalqlar qatoriga kiradi. Bunday bebaho meroslarni o'rganish va unga har qanday ilmiy ishning mazmun-mohiyati sifatida qarash lozim.

Bizni o'z tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizdan boshqa hech narsa yorug'likka olib chiqmasligini tushunsak, baxt uzoqda emas, aksincha, ichimizdaligini tushungan bo'lar edik. Baxtli bo'lish uchun uzoqqa ketishning keragi yo'q, o'zimizga kelsak bo'ldi [1].

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, uni asrash va farzand tarbiyasi kabi muammolar har qanday davrning, jamiyatning asosiy muammosi bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari, allomalari bu masalalar bo'yicha o'zlarining nodir qo'lyozmalarini meros qoldirganlar. Sharq manbalariga e'tibor qaratsak, islom dini ta'limoti negizidagi oilaga oid ilk asarlar pandnoma, hikmatlar ko'rinishida yaratilgan. Chunki islom ta'limoti inson tarbiyasi masalasida eng katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oyalar insonni psixologik va jismoniy yetuklikka chorlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqining uch ming yillik tarixini aks ettirgan, qadimgi madaniyatimiz va ulkan ma'naviyatimizdan saboq beruvchi, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalni ustun deb bilgan "Avesto" yozma yodgorligining oilaviy masalalar haqidagi fikriga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. "Avesto"da oila mustahkamligini asrash, nikohning qonun-qoidalari, er-xotinning majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning tartiblari to'liq ko'rsatib o'tilgan.

"Avesto"da o'sha davr hayotining turli jabhalari o'z ifodasini topadi. Unda xalqning mehnati, istaklari, motivlari va tasavvurlari haqida fikr yuritiladi, oilaviy munosabatlarning mohiyati yaratuvchilik va bunyodkorlik ramzi sifatida o'sha

davr uchun muhim bo'lgan dehqonchilik kasbi bilan ajoyib qiyosiy tahlil qilib beriladi. "Yosh kelin eriga go'dak hadya etganiday, yer ham uni chap va o'ng qo'li bilan parvarish qilgan odamga mo'l-ko'l hosil beradi. Ishlov berilmagan va ekilmagan yer ersiz va farzandsiz johil qiz kabi baxtsizdir. Qiz yaxshi erni orzu qilganiday, yer ham yaxshi qo'shchiga ilhaq" [2].

Millatning oilaviy munosabatlari, ularni to'g'ri yo'lga chorlovchi hayotiy yo'l-yo'riqlari, ibratli, mazmundor xalq og'zaki ijodi namunalari avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib, takomillashgan chinakam qadriyatdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson bu yorug' dunyoga toza fitrat bilan keladi. Uning bu hayotda kim bo'lib shakllanishi oila tarbiyasi, qo'ni-qo'shni, qisqa qilib aytganda, ijtimoiy muhit tufayli yuzaga keladi.

XII asrda Kaykovus tomonidan o'z o'g'liga nasihat sifatida yozilgan "Qobusnoma" (Nasihatnoma) asaridagi ishq, sevgi, oila, er-xotin masalalari go'yoki bugungi davr uchun yozilgandek. Asarda ko'tarilgan muammolar XXI asr yoshlarini tarbiya qilish, oila qurish, farzand tarbiyasi kabi masalalarning yechimini yoritib bergan. O'zbek tilidagi oila darsliklarida A.R.Lemexova tomonidan yigit va qizlar orasidagi o'zaro munosabatlar tahlil qilinganligi haqida juda ko'plab ma'lumotlar uchratamiz. Olim tomonidan o'rganilgan ushbu munosabat turlari va uning xususiyatlari o'n asr oldin "Qobusnoma"da o'z aksini topganini ko'rish mumkin.

Masalan, A.R.Lemexova bugungi kunda yoshlar muhabbatda asosiy rolni jinsiy yaqinlik deb o'ylashini va muhabbatni noto'g'ri tushunishining sabablarini ko'rsatib o'tgan. "Qobusnoma"da bu masala quyidagicha yozilgan: "... xiradmandlar (aqlli kishilar) oshiqlikdin parhez qilmishlar, nedimkim, avval bir zebo suratni ko'rgusidir, undan so'ng ko'ngulga pisand (yoqtirilgan) tushgusidir. Ko'ngulga pisand tushg'ondin so'ng tab'inga moyil bo'lur, ko'ngul uning suratini taqozo qilur. Agar sen shahvatingni ko'ngul ixtiyoriga qo'ysang, ko'nglingni shahvatga tobe' qilursan va uni yana bir ko'rmoq tadbirida bo'lursan. Ikki marta ko'rg'ondin so'ng ko'ngling havosi g'olib bo'lur, undin so'ng uch martaba ko'rmakka qasd qilursan. Uchinchi martaba uni ko'rib, har so'z aytib javobin eshitsang, ixtiyorni qo'lingdin berursan va undan so'ng o'zingni saqlamoq tilasang ham saqlay olmassan. Ishq ilkingdin ketur. Har kun ishq ziyoda bo'lur, ko'ngulga noiloj tobe' bo'lursan. Ammo

agar birinchi ko'rg'onda o'zingni saqlasang, aqlni ko'ngulga muakkal (biror ish topshirilgan kishi) qilsang va o'zingni o'zga narsaga mashg'ul etsang va ma'shuqangning diydoridan ko'z yumib, o'zga yerda qaror tutsang, bir hafta ranj chekarsan va ul balodin o'zingni qutqarursan" [3].

Bugungi kunda oilaviy munosabatlarda rashk, arziyas sabablar asosida nizolarning yuzaga kelishi va uning natijasida ajrimlarning ortib borayotgani hech kimga sir emas. Yoshlarga oilaviy munosabatlarda sabr-toqat, og'ir sharoitlarda bardoshlilik, har qanday munosabatlarda me'yor borligini tushuntirish va shunday xislatlarni shakllantirish bo'yicha hech qanday ta'lim muassasalari, hattoki ota-onalar ham saboq bermayotganligini ta'kidlash kerak. Afsuski, bugungi kunda migratsiya jarayonida oilalarda farzandga bo'lgan e'tibor, er va xotin munosabatlaridagi noto'kislik, yosh oilalardagi er va xotinlar uzoq muddat birga yashamaslik holatlari o'zbek oilalarining mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

"Qobusnoma"da yosh oilalarga yuqoridagi muammolarga duch kelmasligi uchun quyidagicha maslahat berilgan: "agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo'lur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayrat (kuchli rashk, qizg'onish) ko'rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo'lur va begona dushmandin hazar qilsa bo'lur, lekin undin hazar qilib bo'lmas" [3].

Abu Nasr Forobiyning "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir". Forobiyning ushbu fikrida ota-onalar, eng avvalo, uy ishlarida, er-xotinning bir-biriga hamda jamiyatga bo'lgan munosabatida, salomatligiga e'tiborda, yurish-turishda farzandlari uchun namuna bo'lishi kerak, degan g'oya aks ettiriladi. Ota-bobolarimiz ham o'zlari, birinchi navbatda, namuna bo'lgan holda, keyin o'z farzandlariga nasihat qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatganlar. Abu Nasr Forobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", – degan ekan [4].

Oila va nikoh masalalariga bag'ishlangan asarlari bilan ham Abu Ali ibn Sino o'z davrida mashhur bo'lgan. Ibn Sinoning oilada ayollar qanday bo'lishlari kerakligi haqidagi tavsiyalari hech

qachon o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Uning "Tadbiri manzil" asarida ayollarning adab-xulqli bo'lishi haqida so'z boradi. Mazkur asarda ayollarga xos bo'lgan quyidagi sifatlar keltiriladi: sharm-hayoli bo'lishi, tabiatan jasur bo'lishi, o'z erini qattiq sevishi, tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylashi, bilimli bo'lishi, dinga ishonishi, uyatchan, ezma bo'lmasligi, o'z eriga bo'ysunishi, to'g'ri, kamtar va farosatli bo'lishi kerak. U hech qachon o'z sha'niga dog' tushirmasligi kerak. Eri bilan ehtiyotkor bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib, muloqotga kirishishi, xushmuomala bo'lishi kerak [5].

Oila institutining mustahkam bo'lishi er va xotin munosabatlarini yaxshi, barqaror hamda to'g'ri shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Er-xotin munosabatlarining mustahkam bo'lishi uchun qoidalar mavjud. Muhammad Sodik Qoshg'ariyning "Yaxshi kishilar odobi" ("Odob as-solihin") asarida bu masalaga quyidagicha izoh beradi: "Xotin to'rt narsada erdan past va to'rt narsada erdan baland bo'ladi. Umrda, qomatda, molda, nasabda past bo'ladi. Ammo jamolda, chiroyli xulqda, adabda, iffatda baland bo'ladi". Asarda yuqoridagi qoidaga amal qilinsa, oila odobiga amal qilingan bo'ladi, deb ta'kidlanadi. Hozirgi kunda yuqoridagi sifatlar va xislatlarning amalda qo'llanilmayotganini ko'rishimiz mumkin. Aksariyat yoshlar o'z juftini boshqa motivlar asosida tanlamoqda. Afsuski, ularning turmush o'rtoq tanlash motivlarini ijtimoiy tarmoqlar shakllantirmoqda, natijada ularning oilaviy munosabatlari uzoqqa bormayapti. Oilaviy nizolar, bir-birini tushunmaslik, xiyonat kabilar sababli ajrimlar soni ortib bormoqda.

Keyingi yillarda oiladagi nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish borasida ilk ilmiy tadqiqotlar xorijiy psixolog olimlar izlanishlarida o'z aksini topgan bo'lsa-da, XX asr boshlarida Turkiston zaminida kechgan milliy uyg'onish davrining nafaqat adabiyoti, balki ijtimoiy-psixologik, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ham kuchli turtki bergan qomusiy ilm egasi, professor Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" risolasida insonning ijtimoiy borlig'ini ta'minlaydigan sabab bu jinsiy munosabatlar sifatida: "Agar u tamoman dunyodan ko'tarilsa, bashariyat inqirozga duch kelishi aniq", – deb ta'kidlagan edi [6].

XX asrning boshida yashab ijod etgan Rizouddin ibn Faxruddinning "Oila" asarida oilaviy

munosabatlar, er-xotinning o‘zaro munosabatlari, ota-onaning burchlari va vazifalari, farzandlar burchi, farzand tarbiyasida onaning roli, xotinning o‘z vazifalari, farzandlarni uylantirishda ota-onaning majburiyatlari to‘g‘risida juda ibratli maslahatlar berilgan. “Oila” asarida oila qurish va xotinlar vazifasi to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlaydi: “... uylanish masalasini islom shariati buyuk narsalardan deb bilib, oila tuzishni mamlakat tashkil qilish qadar kerakli hisoblab, bu borada bir qancha nizomlar ham chiqqanligi ma’lum. Oila uchun chiqqan nizomlarni, bir kunmas bir kun kelib, vaqti yetganda amal etuvchilar o‘z oilalarini ko‘rkam ravishda tuzar va nihoyat, ushbu kichkina mamlakatni idora qila olurlar. Shu sababdan ko‘pmi-ozmi surajak umrlarini rohat bilan kechirishar va umrlaridan qolgan sanoqli soatlari barokatli bo‘lur” [7].

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan Sharq allomalarining oila va nikoh haqida, oilada farzand tarbiyasi, er-xotin munosabatlari borasidagi ilmiy va falsafiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarni olish mumkin. Oila jamiyatning ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi ijtimoiy muhitdagi siyosiy, iqtisodiy, psixologik, ma’naviy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq ravishda amalga oshgan. Ijtimoiy olamdagi muntazam o‘zgarishlar, insonlarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari hamda mehnat migratsiyasi, etnik xususiyatlari, xalqlarning psixologiyasi, diniy qarashlari ham oilaviy munosabatlarning estetik, huquqiy, ijtimoiy va psixologik mezonlariga ta’sir ko‘rsatgan.


Oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilganimizda, unda oilaning huquqiy, psixologik, ota-onalarning burchlari masalasi doim olimlarning ilmiy tadqiqoti obyektiga bo‘lib kelgan. Ularning asosiy maqsadlari o‘z davrining yoshlari oilani buyuk qadriyat, mas’uliyat,

burch va sharaf ekanini anglab yetishi uchun harakat qilganlar. Hozirgi yoshlar oila mustahkamligi uchun milliy an’analarimiz, qadriyatlarimiz haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishlari juda muhim hisoblanadi. Chunki oilada turli inqirozlar, nizolar, kelishmovchiliklar, yaxshi va yomon kunlar juda ko‘p bo‘ladi. Ularni sabr bilan yengib o‘tish uchun yuqoridagi xususiyatlar madad bo‘ladi. Sharq mutafakkirlarining asarlarida uylanish, xotin tanlashga doim e’tibor qaratilgan, chunki insoniyat tarixining barcha davrlarida ayollar avlodlar davomchisi sifatida ko‘rilgan. Haqiqatan ham inson bolasi odamlar orasida yashar ekan, shaxslararo munosabatga kirishadi hamda o‘sha jamiyatdagi insonlarning psixologiyasi, o‘sha odamlarning qarashlari yashaydi va unga moslashadi. Jamiyat muloqotmand, tarbiyali, zehnli, kreativ, faol odamlarni yaxshi ko‘radi. Yuqoridagi individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishi oila tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanligini unutmashimiz kerak.

Farzand tarbiyasidagi nazoratsizlik, bolalarda deviant xulq-atvorning shakllanishiga olib kelishini ming yil oldin ogohlantirilgan. E’tiborsizligimiz natijasida yoshlarni o‘z holiga tashlab qo‘yishimiz oqibatida ularning ijtimoiy tarmoqlarda aldanib turli yomon yo‘llarga kirib ketishi hollari ko‘paymoqda. Bola o‘z-o‘zini anglash jarayonida barcha anglangan narsalarni oilada, ota-onadan, aka-ukadan ko‘rib individual-psixologik xususiyatlarini shakllantiradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, oilani mustahkamlovchi yadroviiy xususiyatlar ota-ona va farzand o‘rtasidagi suhbat jarayonida shakllanadi. Migrant otalar, migrant onalar zamonaviy texnikaning kuchi bilan har kuni farzandlari bilan muloqotda bo‘lishi, har kuni ulardan xabardorman degan tuyg‘u bilan yashashi mumkin, ammo bu xususiyatlar ular oilalarining mustahkamligini ta’minlovchi omil emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Саид Чамлижа. Иймон ва ҳузун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 128 б.
2. Маҳмудов Т. Авесто ҳақида. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 38.
3. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўз.Рес. Матбуотни қўллаб-қувватловчи жамғарманинг “Истиқлол” маркази, 1994.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: “Абдулла Қодирий” нашриёти, 1993. – Б. 10.
5. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1967. – Б. 99.
6. Абдусаматов Х.У. Никоҳдан ташқари муносабатларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психол. фан.фал.док дисс. – Тошкент, 2019. – 125 б.
7. Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. / Таржимон: Т.Зиёев. – Тошкент: “Меҳнат”, 1991. – Б. 64.



Alimova Nargiza Rustam qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
nargisalimova0104@mail.ru

SAN'ATNING TARIXIY TARAQQIYOTIDA AYOL OBRAZINING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada san'atning tarixiy taraqqiyoti davomida ayol obrazining ifodalanishi va transformatsiyasi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif ayollar obrazining san'at tarixida aks ettirilishini beshta davrga (ibtidoiy, qadimiy yoki antik, o'rta asrlar davri, yangi va eng yangi tarix hamda zamonaviy davr san'ati) ajratgan holatda tasniflagan.

Tayanch so'zlar: ayol, ayol obrazi, ibtidoiy davr san'ati, din, mif, haykaltaroshlik, rassomchilik, "Paleolit davri Veneralari", "Sher boshli ayol" haykali, she'riyat, adabiyot, go'zallik.

Аннотация. В данной статье проводится философский анализ выражения и трансформации женского образа в ходе исторического развития искусства. Автор классифицирует отражение образа женщины в истории искусства на пять периодов (первобытный, древний или античный, средневековый, новая и новейшая история, современное искусство).

Ключевые слова: женщина, женский образ, первобытное искусство, религия, миф, скульптура, живопись, «Венера эпохи палеолита», статуя «Львиноголовая женщина», поэзия, литература, красота.

Annotation. This article provides a philosophical analysis of the expression and transformation of the female image during the historical development of art. The author classifies the reflection of the image of women in the history of art into five periods (primitive, ancient, medieval, modern and contemporary history, and contemporary art).

Keywords: woman, female image, primitive art, religion, myth, sculpture, painting, "Venus of the Paleolithic period", "Lion-headed woman" statue, poetry, literature, beauty.

Kirish. Har bir jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy jihatdan taraqqiy etishi ma'lum ma'noda ushbu jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning ijtimoiy faolligi darajasi bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu esa o'sha jamiyatdagi ijodkorlarning yaratgan asarlarida ham o'z aksini topib boradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu, avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaf, muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi"¹.

¹ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 341 б.

San'at ijtimoiy ong shakli, insoniyat tarixining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. U o'zida turli davrlarda turli xalqlarning orzu-istaklarini, intilishlarini, ma'naviy ehtiyojlarini va estetik ideallarini, borliqning ijtimoiy ongdagi in'ikosini aks ettiradi. Tarixiy nuqtayi nazardan ayol obrazining transformatsiyaga uchrab borishini tadqiq etish uchun umumiy san'at tarixiga murojaat qilish zarur. Chunki tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida ayollar obrazining san'at asarlarida u yoki bu darajada aks ettirilganligining guvohi bo'lamiz.

Ayollar obrazining san'at tarixida aks ettirilishini quyidagicha davrlarga ajratgan holda tasniflashimiz mumkin:

1. Ibtidoiy san'at.
2. Qadimiy yoki antik san'at.

3. O'rta asrlar davri san'ati.
4. Yangi va eng yangi tarix san'ati.
5. Zamonaviy san'at.

Ushbu tasnif insoniyat tarixini o'rganishda qo'llanib kelinadigan umumiy tasnif doirasida bo'lib, uning har bir davri o'ziga xos estetik ehtiyojlardan, ijtimoiy ongning taraqqiy etish darajasidan kelib chiqqan. Ularning har biriga atroflicha to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Asosiy qism. Ibtidoiy san'atda aks ettirilgan ayollar obrazi. Ushbu tarixiy davr haqida so'z ketganida, uning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish zarur:

- eng katta davr – ushbu davr ilk san'at asarlari paydo bo'lgan miloddan avvalgi, taxminan, 30-40-mingyillikdan toki qadimgi dunyoning ilk sivilizatsiyalari shakllangan miloddan avvalgi 4-mingyillikkacha bo'lgan 35–30-mingyillikni o'z ichiga oladi;

- ma'lumotlar nisbatan eng kam davr – buning asosiy sababi bizgacha bu davrga oid faqatgina ma'lum moddiy ashyolar (asosan, toshdan yasalgan mehnat qurollari) yetib kelganligi, uzoq tarixiy geologik jarayonda insonlarning yashash manzillari turli tuproq qatlamlari ostida yo'qolib ketgani bilan izohlanadi;

- sodda mifologik dunyoqarash hukmronligi – dunyoning turli hududlaridan topilgan qoyatoshlardagi va yashash manzillari devorlaridagi suratlarda bu yaqqol o'z aksini topgan;

- anonimlik – bu davrda chizilgan biror surat, yasalgan haykalning muallifi bizga ma'lum emas, hattoki ularning qaysi etnik birlikka mansubligini ham tadqiq etishning imkoniyati yo'q;

- ijtimoiy hayotning, asosan, matriarxat shakli mavjudligi – so'nggi paleolit (miloddan avvalgi 40–12-mingyillik) davridan boshlab urug' va qabilalarda qarindoshchilik ona tomonidan belgilangan, bu, taxminan, bronza davri (miloddan avvalgi 3–2-mingyillik)gacha davom etgan.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib aytishimiz mumkin, bu davrda faqatgina ayollarning san'atda aks ettirilishi haqida emas, umuman san'atning o'zi haqida fikr yuritish qiyin, lekin arxeologik topilmalarga asoslanib, ba'zi xulosalarni chiqarishimiz mumkin. Bugungi kunga qadar eng qadimiy san'at namunasi sifatida e'tirof etiluvchi yodgorlik Germaniyaning Shtadel g'oridan topilgan “Sher-odam” haykali

hisoblanadi². Ushbu haykalning yoshi, taxminan, 32–40 ming yilga teng. Va eng qizig'i ushbu haykal ba'zi tadqiqotchilar tomonidan “Sher boshli ayol” sifatida talqin etilmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida haykaldagi moda sher boshi va tananing tuzilishi ko'rsatilmoqda³. Boshqacha aytganda, tarixdagi hozircha biz bilgan eng qadimiy artefakt, eng ibtidoiy san'at asari ayol va sher tasvirlangan antropomorf mifologik jonzot haykali bo'lib turibdi. Bu esa san'atning paydo bo'lishi bevosita ayol obrazining unda aks etishi bilan chambarchas ravishda amalga oshganligini tasdiqlaydi.

Ibtidoiy haykaltaroshlikda, asosan, ayol qiyofasi aks ettirilishi, katta ehtimol bilan, matriarxat boshqaruv tizimi bilan bog'liq. Qadimgi tosh davriga tegishli bo'lgan ko'plab tarixiy artefaktlar qatorida ayollarning jismoniy holati tasvirlangan ko'plab haykalchalar ham mavjud bo'lib, arxeologlar tomonidan ularga “Paleolit davri Veneralari” degan umumiy nom berilgan. Ushbu nom Qadimgi Rimda go'zallik ilohasi bo'lgan Venera nomidan olingan. Bugungi kunda olimlar 20 ga yaqin shu turdagi haykalchalarni topishgan. Ular orasida “Villendorf Venerasi”, “Xole-Fels Venerasi”, “Lespyug Venerasi”, “Malta Venerasi”, “Lossel Venerasi” va boshqa haykalchalar mashhur. Ularning yoshi 40 mingdan 10 ming yilgacha bo'lib, Pireney yarimorolidan Sharqiy Sibirgacha, Shimoliy Afrikadan Germaniyagacha bo'lgan keng geografik maydondan topilgan. So'nggi yillarda topilgan va hali to'liq o'rganilmagan ba'zi artefaktlar ham “Paleolit Veneralari” (“Tan-Tan Venerasi” – Marokashdan, “Berexat-Ram Venerasi” – Yaqin Sharqdan) sifatida talqin etilmoqda va ularning yoshi 500–230 ming yilga teng⁴.

“Paleolit davri Veneralari”ning tashqi ko'rinishi bir-biriga o'xshash. Ularning barchasida ayolning farqli jismoniy belgilari bo'rttirib ko'rsatilgan, ko'kraklar, qorin, bo'ksa dumaloq shaklda tasvirlangan. Oyoqlar va qo'llar deyarli yo'q. Haykalchalarning bosh qismiga ham katta e'tibor qaratilmagan. Ba'zi haykalchalar homilador ayolni aks ettirgan. Bu haykallar qandaydir diniy mazmun kasb etib,

² Yuval Noah Harari. *Sapiens: A Brief History of Humankind*. 1st edition. Harper (UK), 2015. – P. 26.

³ Duckeck, Jochen (10 December 2008). “Lionheaded Figurine”. *Archaeology*. Retrieved May 17, 2009.

⁴ Karen Diane Jennett. *Female Figurines of the Upper Paleolithic*. (Honors Thesis). San Marcos, Texas. May, 2008. – 84 p.

hosildorlik ma'budasi yoki Ona ma'budani aks ettirgan⁵, degan taxminlar ham mavjud. Umuman olganda, ularda ibtidoiy san'atning ma'lum qoidalari sezilib turibdi: ko'krak va bo'ksa dumaloq, haykalchalar, asosan, romb shaklida yasalgan⁶.

Eng mashhur "Paleolit davri Veneralari" dan biri "Sher boshli ayol" haykalidan, taxminan, 5 ming yil keyin yasalgan (miloddan avvalgi 29 ming yil) yana bir ayol tasvirlangan yodgorlik – Germaniyaning Vilendorf shahridan topilgan 11 santimetr uzunlikdagi "Villendorf Venerasi" yoki "Paleolit Venerasi" deb atalgan haykalcha edi. Ushbu haykalchada ayolning biologik ko'rinishi yaqqol aks ettirilgan, ko'krak, bo'ksa aylanasi, qorin qismi katta dumaloq shaklida tasvirlangan, soch turmagi yoki bosh kiyimiga ham alohida e'tibor qaratilgan⁷. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan ayol haykalchasining bunday ko'rinishda tasvirlanishi matriarxat davridagi ayolning kuchini, hukmronligini, nasl davom ettirishini aks ettiradi, deb hisoblaydi⁸. Ushbu haykalcha diniy-mifologik obraz bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Biroq, afsuski, ushbu fikrlarni tasdiqlovchi ilmiy ma'lumotlar yetarli emas.

Ibtidoiy san'at namunalari sifatida bugungi kunga qadar, asosan, tasviriy san'atning ibtidoiy turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) ga tegishli bo'lgan yodgorliklar yetib kelgan. Musiqa, raqs va ibtidoiy qo'shiqlarning mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Lekin ushbu raqsning konkret elementlari, musiqa yoki qo'shiqning aynan biror qismi bizgacha yetib kelmagan. Shu bilan birga, tasviriy san'atning ilk namunalari kabi musiqa, raqs, og'zaki ijod namunalari ham diniy mazmuni aks ettirganligi yoki ovning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun amalga oshirilganini taxmin qilish mumkin. Farazimiz bo'yicha ushbu she'riy matnlar, marosim qo'shiqlari, sahnalashtirilgan rituallarda,

⁵ Soffer O., Adovasio J. M., Hyland, D. C. (Summer 2000). "The "Venus" Figurines: Textiles, Basketry, Gender, and Status in the Upper Paleolithic". *Current Anthropology*. 41 (4): 511–537.

⁶ Семенов В.А. Первобытное искусство: Каменный век. Бронзовый век. – Санкт-Петербург: Азбука-классика, 2008. – С. 53. – 592 с.

⁷ Walpurga Antl-Weiser. The anthropomorphic figurines from Willendorf. *Wissenschaftliche Mitteilungen Niederösterreichisches Landesmuseum*. 19: 19–30. St. Pölten 2008.

⁸ Абдуллаева Н.Д. "Санъат тарихи" (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2004. – Б. 9.

albatta, urug' boshlig'i bo'lgan ayol, ayol va qaysidir hayvon tanasi uyg'un holda tasvirlangan antropomorf mifologik obraz yoki vafot etgan qabila boshlig'i bo'lgan ayolga murojaatlar, maqtovlar va ta'kidlar bo'lgan bo'lishi kerak. Bunda nisbatan sodda dunyoqarash egasi bo'lgan ibtidoiy insonlar ularning ruhiy va ma'naviy xususiyatlari bilan bir qatorda jismoniy ko'rinishiga ham e'tibor bergan bo'lishlari kerak. Lekin, afsuski, ushbu qarashlar faqatgina ilmiy farazlardan iborat.

Ilk san'at namunalari haqida gapirganda, ibtidoiy insonlarning Lasko, La-Feressi (Fransiya), Altamir (Ispaniya) yoki Zarautsoy, Sarmishsoy (O'zbekiston) kabi manzilgohlardagi devoriy rasmlarga ham urg'u beramiz. Ushbu devoriy suratlarda, asosan, ov manzarasi tasvirlangan, yovvoyi hayvonlar, bizonlar, tog' echkilari, kiyiklar, ovchilarning tasvirlarini ko'rishimiz mumkin. Ov qilish ko'p jismoniy kuch talab qilgani tufayli bu faoliyat bilan, asosan, erkaklar shug'ullanishgan. Shu tufayli ushbu devoriy pannolarda ayollar tasvirini deyarli uchratmaymiz.

Qadimiy yoki antik san'atda ayollar obrazi.

Ushbu davrga ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lgan davrdan toki O'rta asrlargacha bo'lgan davr (milodiy V asr)ni qamrab oladi. Bu davrda ibtidoiy davrdagiga nisbatan san'at asarlarining turfa xilligini kuzatish mumkin. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Bobil, Xitoy, Hindiston, antik Yunoniston va Rimda vujudga kelgan madaniy yodgorliklar qatorida ayollar siymosi aks etgan san'at asarlarini ham uchratish mumkin. Har bir sivilizatsiya ayollar obrazini tasvirlashda o'ziga xos usulda yondashgan.

Masalan, qadimgi misrliklar ijtimoiy ongida jamiyatni turg'un, o'zgarimas qiyofada anglashga urinish mavjud bo'lgan. Bu esa san'atda ham o'z aksini topgan. Xususan, insonning bo'yi, ko'rinishi va geometrik proporsiyalari doimo bir xil qiyofada va o'lchamlarda, hatto marom-ritmda tasvirlangan⁹. Bu Misrdagi tasviriy san'atda aks ettirilgan ayollar obrazida ham yaqqol ko'zga tashlangan.

Qadimgi misrliklar uchun din kundalik turmush tarzining ajralmas qismi hisoblangan. Ularning xudolar kultida ko'plab ayol xudolar yoki antropomorf ilohalarni ko'rish mumkin edi. Masalan, Amaunet (ayol boshli ilon iloha – Amonning

⁹ Хусанов Б., Қодирова Д. Санъат ва эстетик тарбия. – Тошкент: Университет, 2018. – Б. 56.

rafiqasi), Bastet (quvonch, zavq, ayollar go‘zalligi ilohasi bo‘lgan mushuk boshli ayol), Isida (taqdir ilohasi), Maat (haqiqat va tartib ilohasi), Xatxor (unumdorlik va homilador ayollar homiysi) kabi ayol xudolar misrliklar e‘tiqodida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, ularga atab ibodatxonalar qurilgan. Aksariyat holatda ibodatxonalar ilohalarning haykalchalari bilan bezatilgan.

Qadimgi Misrga tegishli bo‘lgan aksariyat suratlarda insonlar yon tomondan tasvirlangan bo‘lib, ularning ko‘zlari to‘g‘riga yo‘naltirilgan, bu o‘ziga xos jihat ayollarning suratlarida ham yaqqol sezilib turadi. Misrlik ayollar uchun go‘zallik idealining aniq mezonlari ishlab chiqilgan va bu san‘at asarlarida ham o‘z aksini topgan. Misr ayollari qomati kelishgan, uzun bo‘yli, terisi toza, ko‘krak va bo‘ksa aylanasi katta bo‘lmagan, xushbichim, shu bilan bir qatorda, ozg‘in emas, oyoqlari uzun holatda tasvirlanadi. Yuz qiyofasida katta lablar, qirra burun va katta bodomqovoq ko‘zlar go‘zallik ideali sifatida talqin etilgan. Zamonaviy ingliz arxeologi Leonard Kottrell qadimgi Misr ayollari obrazi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Misr xonimlari 5 ming yildan keyin ham ular barchani lol qoldirishi mumkinligini bilsalar, naqadar baxtiyor bo‘lar edilar! Qadimgi Gretsiya va Rim go‘zallari ham ajoyib, lekin ular bizni hayajonlantirmaydi. Ular haykallari yasalgan marmar kabi sovuq ko‘rinadi. Ammo Nefertiti “Dior” libosini kiyib, zamonaviy restoranga kirsalar, u barcha odamlarni hayratga solgan bo‘lar edi. Hatto uning pardozi ham g‘iybatga sabab bo‘lmaydi”¹⁰. Yuqorida tilga olingan Misrning qadimiy malikalaridan biri Nefertiti Misr xalqining go‘zallik ideali hisoblangan va yuqoridagi talablarning aksariyatini o‘zida aks ettira olgan. Unga atab yasalgan haykallar, chizilgan suratlar buni yaqqol ko‘rsatib turadi.

Misrliklardan farqli ravishda qadimgi yunonistonliklar inson qiyofasini tasvirlashda faqatgina jismoniy xususiyatlarni inobatga olmasdan, balki insonning ichki ma‘naviy borlig‘ini, fe‘l-atvorini ham tashqi ko‘rinishida aks ettirishga urg‘u bergan. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Suqrotning fikricha, axloq va go‘zallik uzviy aloqador bo‘lib, inson san‘atning asosiy obyekti hisoblanadi. Yunon ijtimoiy ma‘naviy hayotida

¹⁰ Leonard Cottrell. *Lady of the Two Lands: Five Queens of Ancient Egypt*. – USA. The Bobbs-Merrill Company, Inc, Indianapolis, 1967. 238 pages.

politeistik dunyoqarash, antropomorf yoki to‘liq inson qiyofasidagi xudolar kultidan iborat diniy-mifologik tasavvurlar hukmron bo‘lgan. Bu xudolar orasida Afina, Afrodita, Gera, Artemida kabi ayol qiyofasidagi ilohalar ham bo‘lgan. Ular yunon jamiyatidagi kabi erkak xudolar bilan deyarli bir xil darajada ulug‘langan. Ular, asosan, teatr, arxitektura, me‘morchilik, ayniqsa, haykaltaroshlik va musavvirlikda tasvirlangan, ularga ibodat va qurbonliklar qilingan. Usta Praksitel Knit orolida ma‘buda Afrodita haykalini, usta Fidiy esa boshqa ma‘bud va ma‘budalar haykallarini yasagan. Ular ma‘budlarni qanchalik go‘zal yasasalar, ularga yanada ko‘proq ibodat qilinardi. “Go‘zallik qisqa muddat hukmronlik qiluvchi qirolichadir, lekin san‘at shu go‘zallikni manguga aylantirishi mumkin”, – degan edi Suqrot. Ta‘kidlash kerakki, Afrodita, Artemida, Gera, Afina kabi ilohalarning turli san‘at turlarida aks ettirilgan go‘zallik mezonlari bugungi kungacha ahamiyatini yo‘qotmagan.

Qadimgi Yunonistonning ilk sivilizatsiyalaridan biri bo‘lgan Minoy sivilizatsiyasiga tegishli Krit orolidagi Knoss saroyidan miloddan avvalgi XVI asrga tegishli bo‘lgan freskalar topilgan bo‘lib, ularning orasida ko‘plab ayollarning tasvirlarini uchratish mumkin. Masalan, “Ho‘kiz ustidagi akrobatlar”, “Ko‘k rangdagi xonimlar” kabilar. Eng mashhur freska esa “Parijlik ayol” (La Parisienne, “Minoylik xonim” nomi bilan ham mashhur) tasviri hisoblanadi. Ushbu freskadan biz ilk yunon sivilizatsiyasi va yunon ayollariga xos bo‘lgan go‘zallik mezonlarini anglashimiz mumkin¹¹. Xususan, “Parijlik ayol”ning tasvirida yorqin ranglar ishlatilgan bo‘lib, ko‘z atrofi ajralib turadigan tarzda chizilganligi, lablarning yorqin rangi o‘ziga tortadi. Rangtasvirdagi yorqin ranglarning ishlatilishi, surat orqali ham jismoniy, ham ruhiy jihatlarining aks ettirilishi yunon san‘atining yutug‘i desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarga tegishli bo‘lgan Milos orolida qurilgan Venera (yoki Afrodita) haykali keyinchalik yunonlar uchun go‘zallik idealiga aylangan. Bugungi kunda Parijdagi mashhur Luvr muzeyida saqlanayotgan ushbu san‘at asari oq marmardan yasalgan bo‘lib, bo‘yi 2,02 metr, tana tuzilishi bugungi moda industriyasi talablariga deyarli to‘liq javob bera oladi – 89-69-93

¹¹ Любимов Л.Д. *Искусство древнего мира*. – Москва: Просвещение, 1971. – С. 319

sm nisbatda. Haykalning bugungi ko‘rinishida uning qo‘llari sinib ketganini ko‘rishimiz mumkin. Endi haykalning estetik jihatlariga to‘xtalsak. Haykal Veneraning bo‘ksasidan yuqori qismi libossiz tarzda tasvirlangan, bu orqali tana go‘zalligi, terining tiniqligiga urg‘u berilgan. Soch klassik yunon ayollari turmush tarziga mos tarzda turmaklangan. Yunon ijodkorlari inson yuzini tasvirlashda uni teng uchga yoki to‘rt qismdan iborat bo‘lgan, qat‘iy simmetriya ko‘rinib turgan holatda aks ettirishga uringan. Bu holatda uchga bo‘lishda burunning qirrasini va qoshning yuqori qismi, to‘rtga bo‘lishda esa iyakning cheti, yuqori labning qirrasini, ko‘zlar, peshonaning yuqori qismi oralig‘i simmetriya holatida bo‘lishiga urg‘u berilgan. Ushbu qonuniyat Venera haykalida ham qo‘llangan. Katta ko‘zlar, qirra burun, peshonaning bo‘rtib chiqmasligi va antik soch turmagi har qanday yunon ayollari haykalida e‘tibor markazida bo‘lgan.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, qadimgi yunonlar san‘atning go‘zalligini garmoniyada, xususan, tana va ruhning uyg‘unligida deb bilishgan. Yunon san‘atida go‘zal insonlar tasviri sifatida tana qismlari va yuz tuzilishidagi a‘zolar tasviri bir-biri bilan uyg‘un holatda tasvirlangan asarlar nazarda tutilgan.

Qadimgi Rimda go‘zallik mezonlari yanada rivojlantirilgan, go‘zallik tushunchasi foydalilik, o‘z funksiyasini to‘liq bajarish tushunchasi bilan aynanlashtirilgan. Masalan, antik Rim haykaltaroshligi va musavviriligini kuzatadigan bo‘lsak, ayollar obrazi odatda o‘rta yoshdagi, to‘lishgan va atrofida bir etak bola bilan tasvirlangan. Rimliklar nazdida go‘zal ayol – serfarzand ayol hisoblangan va bu qarash san‘at asarlarida ham aks ettirilgan. Boshqa tomondan olib qaraganda esa, rimlik ayollar qomatlarini saqlab qolishga harakat qilishgan, buning uchun esa ular jismoniy mashqlar bilan faol shug‘ullanishgan. Rim badiiy tasvir san‘atlari obrazlarini kuzatadigan bo‘lsak, ularda yunon va etrusk madaniyatiga xos belgilarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, rimlik xonimlar tasvirlangan rasmlar va haykallarda yunonlar kabi soch turmagiga alohida e‘tibor berilgan, ularning yuz tuzilishida bodomqovoqli katta ko‘zlar, qirra burun va kamon shaklini eslatib turuvchi lablar yorqin tasvirlanar edi.

O‘rta asrlar davri san‘atida ayol obrazining tasvirlanishi. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada

hukmronlik qilgan mafkura – katolik xristianlik qarashlari san‘atda ham to‘liq o‘z aksini topgan, haykaltaroshlik, musavvirlik, badiiy adabiyotda, asosan, diniy mavzularga murojaat qilgan. O‘z-o‘zidan san‘at asarlarida eng mashhur ayol qahramon sifatida Madonna (Islom ta‘limoti bo‘yicha Bibi Maryam) gavdalanirila boshlandi. Odatda ushbu tasvir xristian dinining boshqa diniy personajlari (go‘dak holatidagi Iso Masih (a.s.), avliyo Ioann, muqaddas Anna kabi) bilan birgalikda tasvirlangan. Madonna tasviri, ayniqsa, G‘arbiy Yevropa va Italiyada mashhur bo‘lgan. Bu mazmundagi suratlarining san‘at olamini egallashida ikkita omilni ajratib ko‘rsatish zarur: birinchidan, cherkov bosimi. Cherkov faqatgina ma‘naviy hayotda emas, balki siyosiy hayotda ham hukmron mavqeda bo‘lgan, Rim papasi ma‘lum davlatlarning qirollaridan ham qudratliroq bo‘lganiga tarix guvoh. Ikkinchidan, diniy mazmundagi suratlarining buyurtmachisi, asosan, cherkovlar va monastirlar bo‘lgan. Turli ikonalar, cherkov uchun freskalar, mozaikalarda Bibi Maryam obrazining aks ettirilishi tabiiy edi.

Ushbu davrdagi rassomchilik va haykaltaroshlik eng o‘ziga xos jihatlaridan biri insonning tashqi ko‘rinishi orqali ichki dunyosini ochib berishga intilishdir. Bu davrda badiiy obraz, xususan, ayollar obrazi, asosan, o‘tkinchi hayotning qiyinchiliklaridan ezilgan, ruhning erkinlikka intilishini istayotgan holatda tasvirlanardi.

Avgustin Avrelian va Foma Akvinskiy kabi xristian faylasuflari, ilohiyotshunoslari ta‘limotiga ko‘ra, go‘zallik o‘ziga xos zinapoyani tashkil etadi. Ular bir holatda: jonlilik, tuyg‘u, san‘at, yuksaklik, ranginlik bo‘lsa, boshqa bir holatda jismdan, badandan, badan orqali ruh vositasida ruhdan ruhga, Xudoga, Xudo yoniga kabi kategoriyalarni tashkil qiladi. Bu ikki faylasufning qarashlari sxolastik falsafaning negizlarini shakllantirgan bo‘lib, ular insonning asl mohiyati uning ruhida mujassam bo‘lishini, tana esa vaqtinchalik qobiq ekanini ta‘kidlashadi.

Ilk o‘rta asrlardagi nasroniy mutafakkiri Laktansiy: “Xudo eng mohir san‘atkordir, u hayvonlarga o‘zini himoya qilish va rizq topish uchun o‘tkir tishlar, shoxlar va tirnoqlar ato etgan”, – deya ta‘kidlaydi. Insonga bu narsalar yarashmas edi, husnini buzardi. Buning o‘rniga insonga chiroyli husn va aql berdi.

Cherkov san‘at va insonlarning turmush tarzidagi deyarli barcha jabhalarda hukmronlikni

qo'lg'a oldi. Hattoki go'zallik mezonlari ham ruhoniylar tomonidan belgilab berilar edi. Tashqi jihatdan go'zal bo'lish gunoh darajasiga yetdi, soch turmaklari hamda o'ziga oro berish, pardoz qilish taqiqlandi. Ba'zi holatlarda ayollarning haddan ortiq darajada go'zal bo'lishlari yoki yorqin sariq rangli sochga ega bo'lishlari ularning cherkov tomonidan "jodugar" deb topilishiga ham sabab bo'lgan¹². Umumiy go'zallik mezonlari o'zgargan, asosan, ayollarni tasvirlashda ularning ichki go'zalligini aks ettirish dominantga aylangan. Diniy mazmundagi suratlariga hamohang tarzda chizilgan badavlat dvoryanlarning ayollari, aristokrat xonimlarning suratlarida ham Xudo va cherkovga bo'ysunish g'oyasi singdirilgan. Umuman olganda, rangpar, o'rta darajadagi jismoniy imkoniyatlarga ega, lablar va yuzlar qurib qolgan tarzda tasvirlangan ayollar obrazlari O'rta asrlarda yashagan Yevropa ayollarining tipik ko'rinishini aks ettirar edi.

O'rta asrlarning oxirlarida sekin-astalik bilan san'atdagi sxolastik qarashlar o'z o'rmini erkin ijodiy muhitga bo'shata bordi. Bu jarayon qarshiliklarsiz bo'lmagan, albatta. XIII-XIV asrlarda ayollar go'zalligini, nafosatini ideallashtirish italyan musavviri Sandra Botichellining "Veneraning tug'ilishi", "Uch nazokat" kabi suratlarida, Giyom de Lorris va Jan de Myon yozgan "Atirgul haqida roman" kabi boshqa ko'plab asarlarda o'z ifodasini topgan¹³. Lekin bu asarlar ham qisman o'rta asrlarga xos bo'lgan jismoniy jihatdan kuchsiz ayollarni tasvirlagan. Ushbu san'at asarlari esa Renessans davrining, yangi va keyinchalik eng yangi tarix san'atining shakllanishiga sababchi bo'lgan.

Yangi va eng yangi tarix san'atida ayollar tasviri. Yangi davr tarixining boshlanishi XV-XVI asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu davrning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu davrda san'at va ijtimoiy taraqqiyotning barcha jabhalarida antik madaniyat hamda san'atga yuzlanish, undan namuna olish boshlandi. Yevropa san'ati uchun yorqin antik davr o'rniga kelgan monoton, sxolastik, cherkov ta'sirida o'tgan mingyillikdan so'ng yana jo'shqin Renessans davri boshlandi.

Ushbu tendensiya san'at asarlarida ayollar obraziga murojaatlarda, obrazlarning rang-

barangligida ham namoyon bo'lib bordi. Madonna obrazi bilan bir qatorda Venera obrazi ham san'at asarlarida tez-tez uchray boshladi. O'rta asrlarda cherkov tomonidan ayollar husniga, tanasiga nisbatan o'rnatilgan tabu bekor bo'ldi, ruhiy holat ikkinchi darajaga tushib qoldi. Barcha san'atkorlar – rassomlar, haykaltaroshlar, shoirlar, yozuvchilar, musiqachilar ayollarning tashqi go'zalligiga e'tibor qaratishdi, tarannum etishdi.

Eng dastlab Italiyada paydo bo'lgan Yevropa Renessansining yirik vakillari – Sandro Botichelli, Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo Buonarotti, Titsian, Jorjone, Antonio da Korredjo, Parmedjanino kabi ijodkorlar yaratgan rasmlar, haykallarda, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokachcho, Uilyam Shekspir, Migel de Servantes kabi yozuvchi, shoirlarning ijod mahsullarida biz ayollar obrazining aks ettirilishi bilan bog'liq transformatsion jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu o'zgarishlarning asosiy sababi o'sha davrlarda Yevropada boshlangan ijtimoiy ongda o'zgarishlar, xususan, gumanizmning paydo bo'lishi hisoblanadi.

Uyg'onish davri Yevropaning barcha hududlariga bir vaqtda kirib kelmagan. Bu jarayonda Italiya peshqadamlikni qo'lg'a olgan edi. Biz tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda Renessans davrining barcha o'ziga xos jihatlariga emas, balki faqatgina ayollarning san'at asarlarida aks etishining estetik tomonini yoritishga harakat qilamiz. XV-XVI asrlar oralig'ida italiyalik ijodkorlar tomonidan olib kirilgan yo'nalishlar XX asrga qadar san'at rivojida katta rol o'ynagan. Xususan, ayollarning san'at asarlarida aks etishida ham. Bu davrda Rafael Santining "Sikstin Madonnasi", "Madonna Granduka", "Chinnigulli Madonna", "Madonna Alba", "Baliq bilan Madonna", "Muqaddas oila", "Shoxli ot bilan xonim", "Fornarina"¹⁴; Leonardo da Vinchining "Madonna Benua", "Madonna Litta", "Qoyadagi Madonna", "Mona Liza" ("Jakonda" nomi bilan ham mashhur), "Oq suvsarli xonim", "Go'zal Ferronera", "Jinevra de Benchi portreti", Mikelanjelo Buonarottining "Zinadagi Madonna", "Madonna Bryugge", "Madonna Doni", "Madonna Pitti"¹⁵; Titsian Vechelioning "Urbanlik Venera",

¹² Можейко М.А. Женщина глазами средневековой культуры: антифеминизм как фобия // Журн. Белорус. гос. ун-та. Социология. 2017. – № 2. – С. 128–138.

¹³ Хусанов Б., Кодирова Д. Санъат ва эстетик тарбия. – Тошкент: Университет, 2018. – Б. 57.

¹⁴ Махов А. Б. Рафаэль. – Москва: Молодая гвардия, 2011. – 376 [8] с.

¹⁵ Брион Марсель. Микеланджело / Пер. с фр. Г. Г. Карпинского = фр. Michel-Ange. – Москва: Молодая гвардия, 2002.

“Oyna oldidagi Venera”, “Violanta”, “Flora” kabi rasmlari, haykallari o‘z davrida ayollar obrazining aks ettirilishida katta maktabga asos soldi. Ushbu ijodkorlarning asarlarini tahlil qilib, shuni bilish mumkinki, ular ayollar obrazini aks ettirishda 3 yo‘nalishda faoliyat olib borishgan:

1. Diniy kontekstdagi Madonna obrazi. O‘rta asrlardagi Madonnalardan farqli ravishda bu davr ijodkorlari Madonnalarni tasvirlashda yorqin ranglar va xilma-xil epizodlardan foydalanishdi. Birgina Rafael Santining ijodida 40 dan ortiq Madonnalarni uchratish mumkin¹⁶.

2. Zamondosh ayollarning portretlari. Uyg‘onish davri ijodkorlari turli rakurs va turli mavzudagi ayollar portretlarini yaratishdi. Xususan, da Vinchining 4 ayolga bag‘ishlangan portretlari (“Mona Liza”, “Oq suvsarli xonim”, “Go‘zal Ferronera” hamda “Jinevra de Benchi portreti”) ayniqsa, mashhur edi.

3. Antik davrdagi ayollarga oid mifologik obrazlar yoki shu uslubning zamonasiga moslangan ko‘rinishlari. Bu tendensiya Sandro Botichelli (“Veneraning tug‘ilishi”), Leonardo da Vinchi (“Xonim va Oqqush”), Titsian Vechelio (“Urbianlik Venera”, “Oyna oldidagi Venera”) ijodida namoyon bo‘ladi.

Bu davrda ayollar obrazi uchun ideal go‘zallik quyidagi atributlarni o‘z ichiga olishi talab etilardi: baland bo‘y, keng yelkalar, ingichka bel, durdek tovlanuvchi oq tishlar, qizil lablar, erkin harakat va tik qomat, shu bilan birga, judayam ozg‘in bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘lmagan. Soch rangi oq-sariq rangda bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Buning uchun bo‘yoqlardan, yasama sochlardan foydalanilgan. O‘rta asrlarda go‘zallik ideali bo‘lgan ozg‘in, rangpar, siniq, asketizmni targ‘ib qiluvchi qomat o‘rniga, to‘lishgan, hayot ufurib turgan ayol qiyofasi markaziy o‘rinni egallagan.

Renessans davrida boshlangan san‘atdagi evolyutsiya keyinchalik barokko, rokoko, ampir, romantizm, realizm yo‘nalishlarida ham davom etgan. XIX asr oxirlarigacha yaratilgan san‘at asarlarida aks ettirilgan ayollar qiyofasiga e‘tibor qaratsak, ularning barchasining tashqi ko‘rinishida hayot ufurib turganini, to‘lishgan qiyofa va psixologik portretni ko‘rishimiz mumkin. Barokko

uslubida ijod qilgan Piter Pol Rubens (1577–1640), Mikelanjelo Merizi da Kavaradjo (1571–1610), Annibale Karrachi (1560–1609), Anton Van Deyk (1599–1641), Rembrant (1606–1669), Yan Vermeer (1632–1675) asarlarida ayollar yanada to‘laroq holatda, yasama sochlar va o‘ta hashamdor liboslarda tasvirlangan. Eng mashhur rassomlardan Rubens antik tarix mavzusiga ham ko‘p murojaat qilgan, uning Veneralari (“Oyna oldidagi Venera” kabi asarlarida) barokko uslubiga xos tarzda to‘liq qomat bilan tasvirlangan. Bu tendensiya rokoko uslubida ham davom ettirilgan. Keyinchalik ampir, realizm bilan birgalikda ayollarning tabiiy go‘zalligini aks ettirish san‘atga qayta boshlagan. Ushbu tendensiya faqatgina tasviriy san‘at turlari uchun emas, balki badiiy adabiyot, teatr san‘ati uchun ham xos bo‘lgan. Buni Shekspir, Servantes va boshqa ijodkorlar asarlarida aks ettirilgan ayollar obrazida ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy san‘atda ayollar obrazining aks ettirilishi. Odatda zamonaviy san‘at deyilganda, XX asrning boshidan hozirgi davrgacha oraliqdagi san‘at nazarda tutiladi. Zamonaviy san‘at – san‘at uslublarining majmuasi. Modern, simvolizm, impressionizm, kubizm, supermatizm, syurrealizm kabi uslublar paydo bo‘lgan va o‘z ijodkorlariga ega bo‘lgan bugungi zamonaviy san‘at ayollar obrazini yaratishga noodatiy yondashdi. Xususan, oldingi davrning asosiy elementlaridan biri hisoblangan ayollar korsetlaridan voz kechildi. Ayollar tobora tabiiyroq, tobora ijtimoiy hayotda realroq aks ettirila boshlandi. Simvolizm bilan esa sodda xalq uchun tushunarsiz bo‘lgan san‘at kirib keldi, barcha elementlar – ranglar, kiyimlar, tana holati, soch turmagi ma‘lum ramzlarga bo‘ysundirildi. Ba‘zida esa ijodkorlar lahzadagi hissiyotlarni o‘z asarlarida aks ettirishga harakat qilishdi. Kubizm (P.Pikasso), supermatizm (K.Malevich) yo‘nalishidagi asarlarda esa yaxlit obrazni oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin emas edi, har bir tomoshabin san‘atni o‘z dunyoqarashi spektridan o‘tkaza olishi kerak edi. Buni P.Pikassoning “Ayol portreti”, “Soch tarayotgan yalang‘och ayol” suratlarida, K.Malevichning “Uch ayol” rasmlarida ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy san‘at kinomatografiya, fotografiya kabi zamonaviy san‘at turlari, estrada, jazz, myuzikl kabi yangi janrlarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Ushbu san‘at turlarida ham ayollar obrazi faol tarzda aks ettirib kelinmoqda. Bunda

¹⁶ Стам С.М. Флорентийские мадонны Рафаэля: Вопросы идейного содержания. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1982. – 80 с.


har bir san'at turining o'ziga xos xususiyatlari va estetikaning umumiy qonuniyatlariga e'tibor qaratilishi haqiqiy san'at asarlari yaratilishi uchun asosiy omil bo'lmoqda.

Xulosa. Fikrlarimizni umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkin, san'at asarlarida ayollar siymosi ibtidoiy ilk san'at namunalardan zamonaviy san'at durdonalarigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot mobaynida soddadan murakkabga qadar

takomillashib, evolyutsiyaga uchrab, rivojlanib borgan. Bu tendensiya barcha san'at turlarida kuzatilib, evolyutsion jarayonlar bugungi kunga qadar davom etmoqda, ayol obrazining tarixiy transformatsiyasi zamonaviy san'at namunalari ham aksini topib kelmoqda. Aynan an'anaviy va zamonaviy sinkretik san'at turlarida ayol obrazining aks etishi masalasiga keyingi tadqiqotlarda alohida to'xtalib o'tish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 341 б.
2. Yuval Noah Harari. Sapiens: A Brief History of Humankind. 1st edition. Harper (UK), 2015. – P. 26.
3. Duckeck, Jochen (10 December 2008). «Lionheaded Figurine». Archaeology. Retrieved 17 May 2009.
4. Karen Diane Jennett. Female Figurines of the Upper Paleolithic. (Honors Thesis). San Marcos, Texas, 2008. – P. 84.
5. Soffer O., Adovasio J. M., Hyland D. C. (Summer 2000). «The Venus» Figurines: Textiles, Basketry, Gender, and Status in the Upper Paleolithic». Current Anthropology. 41 (4): – P. 511–537.
6. Семенов В.А. Первобытное искусство: Каменный век. Бронзовый век. – Санкт-Петербург: Азбука-классика, 2008. – С. 53.
7. Walpurga Antl-Weiser. The anthropomorphic figurines from Willendorf. Wissenschaftliche Mitteilungen Niederösterreichisches Landesmuseum. 19: 19–30. St. Pölten 2008.
8. Абдуллаева Н.Д. Санъат тарихи (ўқув кўлланма). – Тошкент, 2004. – Б. 9.
9. Хусанов Б., Қодирова Д. Санъат ва эстетик тарбия. – Тошкент: Университет, 2018. – Б. 56–57.
10. Leonard Cottrell. Lady of the Two Lands: Five Queens of Ancient Egypt. USA. The Bobbs-Merrill Company, Inc, Indianapolis, 1967. – P. 238.
11. Любимов Л.Д. Искусство древнего мира. – Москва: Просвещение, 1971. – С. 319
12. Можейко М.А. Женщина глазами средневековой культуры: антифеминизм как фобия // Журн. Белорус. гос. ун-та. Социология. 2017. – № 2. – С. 128–138.
13. Махов А. Б. Рафаэль. – Москва: Молодая гвардия, 2011. – 376[8] с.
14. Брион Марсель. Микеланджело / Пер. с фр. Г. Г. Карпинского. фр. Michel-Ange. – Москва: Молодая гвардия, 2002.
15. Стам С.М. Флорентийские мадонны Рафаэля: Вопросы идейного содержания. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1982. – С. 80.



Umarova Navbahor Shokirovna,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
e-mail: navbaxor78@mail.ru

QADRIYATLAR YOSHLARNI IQTISODIY IJTIMOIYLASHTIRUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar hamda ularning iqtisodiy munosabatlarda natija, jarayon, egoizm va altruizmga nisbatan yo'nalganligi bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: o'spirin, yoshlar, qadriyat, iqtisodiy ijtimoiylashuv, iqtisodiy yo'nalganlik, egotsentrizm, alturizm.

Аннотация. В статье изложена факторы, влияющие на экономическую социализацию молодежи и их направленность на экономические результаты, процессы, эгоизм и альтруизм.

Ключевые слова: подростки, юноши, ценность, экономическая социализация, экономическая направленность, эгоцентризм, альтруизм.

Annotation. The article describes the determinants that affect the economic socialization of young people and their focus on economic results, processes, selfishness and altruism.

Key words: teenagers, young men, value, economic socialization, economic orientation, egocentrism, altruism.

Kirish. Globallashtan dunyo hamjamiyatida jahon bozori konyunkturasi o'zgarib, raqobatning keskin kuchayib borayotgani mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirishning mutlaqo yangicha yondashuv tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etib, butun mamlakat bo'ylab yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ustuvor yo'nalish darajasiga olib chiqildi.

Bu borada jamiyatimizda amalga oshirilayotgan xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, ularning tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish masalasi – oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi [1].

Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" davlat dasturi doirasidagi keng ko'lamli islohotlar samarasi o'laroq, mamlakatimiz yanada shiddat bilan rivojlanib, xalqimizda o'z oldiga qo'ygan ezgu va ulug' maqsadlarga erishishga nisbatan ichki intilish ortmoqda. Davlat dasturining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli bo'limi tarkibidan olgan taraqqiyot maqsadlarida "Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish; Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish" vazifalari belgilandi. Buning amaliy jihatini, mamlakatimizda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan respublikaning

hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar" (2022-yil) doirasida hal etilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarda ko'rishimiz mumkin [2].

Aynan shu ikki qonunosti hujjati oila instituti – yoshlarni, ayniqsa, qizlarimizni iqtisodiy jihatdan ijtimoiylashuvini yanada jadallashtiruvchi muhim huquqiy asos bo'lib, psixologiya sohasi vakillari oldida tizimli ravishda ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni olib borish vazifasini kun tartibiga qo'yadi.

Asosiy qism. 2021-yildagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda O'zbekistondagi 20–24-yoshgacha bo'lgan yoshlar 2 758 841 nafar, 25–29 yoshlilar 3 218 218 nafarni, ya'ni 20–29 yoshlilar soni 5 977 059 nafarni, umumiy aholining 17,3 foizni tashkil qilgan [3]. "Inson kapitali rivojlantirish" yo'lida sarflanayotgan mablag' va resurslarga kelajakka tikilgan sarmoya, deb yondashilayotgani ayni muddaodir. Bu mablag'lar kelajakda mamlakatga, jamiyatga, xalqqa ortig'i bilan qaytadi. Shu sababli yoshlarga oid siyosat yuritish, bu borada muayyan siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishi davlatimiz hayotida salmoqli o'rin tutadi. Ta'kidlash kerakki, respublikamiz olimlari tomonidan ijtimoiylashuv samaradorligini ta'minlovchi ayrim omillar o'rganilgan va o'rganilmoqda. Ammo shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoni muammosini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga doir ilmiy manbalar yetarlicha emas.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan avvalgi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishi. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizcha, shaxsning iqtisodiy hodisalarga oid yangi axborotlarni maqsadli tarzda tezlik bilan qabul qilishi, oydinlashtirishi, tahlil asosida amaliyotda qo'llashi, tafakkurdagi sintez, solishtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi jarayonlarni ishga solib, innovatsiyalar yaratishga harakat etishi undagi "iqtisodiy bilim va

madaniyat"ni belgilovchi fazilatlar shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi va bunday xatti-harakatlar algoritmi uning iqtisodiy jihatdan ijtimoiylashganligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Fanda iqtisodiy ijtimoiylashuv umumiy ijtimoiylashuvning muhim va tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayon shaxs tomonidan uning turli xil iqtisodiy faoliyat turlarida tegishli rollarning ijrochisi (mulkdor, tadbirkor, xaridor, iste'molchi, soliq to'lovchi, aksiyador va boshqalar) sifatida ishtirokini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va hayotiy qadriyatlarini interiorizatsiyalashtirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Shaxsdagi hayotiy qadriyatlarning shakllanish jarayoni [4] iqtisodiy ijtimoiylashuvga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida baholanib, bunda asosiy ahamiyat kasb etadigan yosh davri o'spirinlik davridir. Sababi, aynan o'spirinlik davriga kelib, ya'ni optatsiya bosqichidagi shaxsda qadriyatlar tizimi shakllanishining barqarorlik xususiyatini ko'rish mumkin. Fikrimizcha, o'spirin sinalluvchidagi ustuvor qadriyatlarning namoyon bo'lishida: 1) oila; 2) yaqin do'stlarining ishonchi; 3) bilim; 4) jamiyatda tan olinishga nisbatan ehtiyojlar ustuvorligini kuzatish mumkin. Mazkur xulosadan kelib chiqib, yosh davrining keyingi yoshlik bosqichida: 1) shaxsning hayotiy maqsad va qadriyatlari; 2) ijtimoiy ideallar; 3) ijtimoiy-iqtisodiy mavqe kabi omillar bilan bog'liq shaxs ko'nikma va malakasini tadqiq etish motivatsion-qadriyatli tuzilmaning mohiyatini yoritishda kengroq ma'lumotlar beradi, degan ishchi farazni qo'yish mumkin.

Ishchi farazni tekshirish yo'lida, bozor iqtisodiyoti sharoitiga muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashgan yoshlar xulq-atvoridagi ustuvor ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlash maqsadida olib borilgan izlanishlarimizda P.N.Ivanov, Y.F.Kolobovalarning "Shaxsning hayotiy qadriyatlarini aniqlash (Must-test)" projektiv metodikasidan [5] foydalanib, quyidagilarni qo'lga kiritdik. Xususan, yondashuvimizga muvofiq, javoblarda qayd etilgan terminal qadriyatlar interpretatsiyasi iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlikning to'rtta darajasi: a) natijaga; b) jarayonga; v) egoizmga; g) altruizmga nisbat olib amalga oshirildi.

Bunda natijaga oriyentatsiya qiluvchi: 1) xavfsizlik va himoyalanganlik; 2) moddiy

muvaffaqiyat; 3) mamnunlik hissi; 4) salomatlik; 5) ma'naviy hayotdagi boyluk; 6) ma'naviy-diniy jihatdan mazmundor hayot kabi terminal qadriyatlarni ifodalagan javoblar shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonida iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlikning 1-darajasi sifatida qabul qilindi.

Jarayonga nisbatan yo'nalganlikni tushuntiruvchi: 7) jamiyatdagi ochiqlik, erkinlik va demokratiya, 8) shaxsiy yuksalish hamda 9) shaxslararo munosabatlar va aloqalar kabi terminal qadriyatlar iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlikning 2-darajasi sifatida e'tirof etildi.


Yoshlardagi egotsentrik ustanovkalariga asoslanuvchi: 10) hokimiyatga intilish va ta'sir o'tkazish; 11) mashhurlik; 12) mustaqillik kabi terminal qadriyatlarni ifodalovchi javoblar esa muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvning muhim shartlaridan hisoblanadigan iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyorlikning 3-darajasi sifatida o'rganildi.

Nihoyat, sotsiotsentrik ustanovkalar ta'sirida shakllangan yoshlarning altruizmga nisbatan yo'nalganlik darajasi 4-darajani tushuntirishda qabul qilinib, uning yordamida: 13) insonlarga xizmat qilish; 14) muhabbat va sadoqat va 15) jozibadorlik kabi qadriyatlar mohiyati tadqiq etildi hamda ularning shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri aniqlandi.


Yoshlarning iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlik darajasining gender farqlari (n=150)

T/r	Iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlik darajalari	Yoshlar		Foizda
		yigitlar (n=80)	qizlar (n=70)	
1.	natijaga nisbatan yo'nalganlik	25	19	29,4
2.	jarayonga nisbatan yo'nalganlik	35	17	34,7
3.	egoizmga nisbatan yo'nalganlik	21	28	32,7
4.	altruizmga nisbatan yo'nalganlik	41	11	34,7

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mazkur projektiv metodika orqali Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 150 nafar yoshlar sinovdan o'tkazilib, yo'riqnomaga muvofiq, o'n besh xildagi hayotiy terminal qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan izlanish quyidagi natijalarni ko'rsatdi.



Jadvaldagi ma'lumotlarni, biz, metodika yo'riqnomasiga ko'ra, respondentlarning iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonida iqtisodiy munosabatlarga bo'lgan yo'nalganligini ifodalovchi to'rtta darajaga muvofiq tahlil qildik. Qabul qilingan shartga muvofiq 1-daraja – bu yoshlarning natijaga nisbatan yo'nalganligini anglatuvchi daraja hisoblanadi. Jami respondentlar orasidan 29,4 foizining javoblari, ularni natijaga nisbatan yo'nalganligini ko'rsatdi. Jumladan, tadqiqotda qo'lga kiritilgan natijalarni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, ular quyidagi jihatlari orqali ishonchli sanaladi. Ya'ni, bu toifa yoshlar faoliyatlari davomida turli-tuman qarama-qarshiliklarga uchrashlariga qaramasdan, ustuvor shakllangan qat'iyatlilik, barqarorlik xususiyatlari hisobiga doimo natijaga erisha oladilar.



Xususan, 18,6 foiz yoshlarning javobidan ma'lum bo'lishicha, masalan, "agar urush boshlansa, juda ham dahshatli"; "agar yovuzlik g'alaba qozonsa, juda ham dahshatli" deb bildirgan fikr egalari hisoblanadigan yoshlar bugungi kunda jamiyatda ro'y berayotgan voqeliklar va holatlardan, o'z va yaqinlari hayotidan xavotirlanayotganligini namoyon qilib, xavfsizlik va himoyalanganlikka nisbatan ustuvor qadriyatlarni e'tirof etishgan. 36,0 foiz yoshlar jismoniy qulaylikka hamda har tomonlama hayotdan lazzatlanish (masalan, yaxshi ovqat, ichimlik, va hatto kiber sport)ga intilishni ifodalaydigan qadriyatlarni ulug'lashlari orqali o'zlaridagi mamnunlik hissi darajasini namoyon etishgan. Jumladan, "men uchun eng zaruri bu hayotda hamma narsadan totib ko'rish"; "men uchun eng zaruri bu yaxshi yeb-ichish va kiyinish" yoki "men uchun eng zaruri CS:GO (Counter-Strike: Global Offensive), DotA (Defense of the Ancients), PUBG (Player Unknown's Battlegrounds) kiber sport platformalarida do'stlarim bilan muloqotda bo'lish va (yoki) hammadan kuchli ekanligimni isbotlash" kabi fikrlar shaxs uchun ahamiyatli va asosiysi natija ekanligini tasdiqlovchi javoblardir.

Shuningdek, 58,6 foiz sinaluvchi uchun moddiy muvaffaqiyat bosh qadriyat hisoblanadi. Buni tasdiqlaydigan quyidagi "juda ham dahshatli, agar bir umr yotoqxonada yashab o'tsam"; "agarda mening maoshimni kechiktirishsa, men chidab tura olmayman"; "men uchun eng zaruri yaxshi haq to'lanadigan ish topish"; "men uchun eng zaruri 1xBet mobil ilova yordamida tavakkal qilib yaxshi daromad egasi bo'lish" kabi fikrlar o'z hayot sharoitini yaxshilash, kafolatlangan daromad olish, moddiy ta'minlanishni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar orqali izohlanadi hamda natijaga nisbatan yo'nalganligini ko'rsatadi. Bu xil javoblar yoshlarning iqtisodiy voqeliklarga nisbatan o'zidagi his-tuyg'ularga yo'g'rilgan munosabatini yaqqol namoyon qiladi hamda iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoniga shaxs emotsional olamiga daxldor komponentlarning uzluksiz ta'siri borligini isbotlaydi. Xuddi shunday jarayonni biz yoshlar tomonidan qayd etilgan faqirlikka, yo'qchilikka, xususiy mulkka, boylikka va hokazolarga nisbatan bo'lgan shaxsiy ustanovkalarga tayanilgan motivatsion munosabatlar tizimida ham kuzatishimiz mumkin.


12,0 foiz yoshlar tomonidan "halollik vaktsinasi"ga nisbatan bildirilgan fikr-mulohazalardan

ma'lum bo'lishicha, jamiyatdagi ochiqlik, erkinlik va demokratiya ijtimoiy haqiqat zaruratini keltirib chiqaradi. Shu jihatdan olib qaraganda ham, "agarda ... rahbarlar(im) toshbag'ir va (yoki) korrupsioner bo'lishsa, men chidab tura olmayman" deb bildirilgan fikr egalarining barchasida hokimiyatga nisbatan talabchanlik mavjudligi kuzatiladi. Shaxsiy yuksalishni qadrlaydigan 67,3 foiz yoshlar uchun kasbiy (Hard Skills) va (yoki) shaxsiy (Soft Skills) jihatdan rivojlangan bo'lish hayotiy talabchanlikning zaruriy sharti demakdir. Bunday talabchanlik "agarda insonlar yuksak maqsadlar sari intilishmasa, men chidab tura olmayman"; "men uchun eng zaruri o'zim uchun belgilangan darajada qotib qolmaslik" kabi fikrlar orqali tasdiqlanadi. 22,3 foiz yoshlar o'zlarini yolg'izlikdan xalos etuvchi yoki hayotlaridagi bo'shliqning o'rnini to'ldiruvchi biror bir ijtimoiy guruh a'zosi sifatida his etishga (javoblarda bunday guruhlarning vertual shakllari, masalan ijtimoiy portallar – Instagram, TikTok, Facebook, Telegram, YouTube, Twitter, Skype, "VKontakte", "Odnoklassniki" va hokazolar ham qayd etilgan) va doimiy muloqot guruhiga ehtiyoj sezishadi. Bularga misol sifatida "agar atrofimdagilar meni tushunishni to'xtatsalar, juda ham dahshatli"; "agar "Instagramm"da umuman do'sting bo'lmasa, juda ham dahshatli" kabi javoblarni keltirish mumkin. Umuman olganda, jami 34,7 foiz respondentlarning javoblari jarayonga nisbatan yo'nalganlikni ko'rsatadi va natijalar ijtimoiylashuv jarayoni darajasining ta'siri bevosita ekanligini isbotlaydi. Ana shu toifa sinaluvchilarning umumiy natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular, odatda, natijaga erishish yo'lida kam fikrlaydigan va topshiriqlarni bajarishda kechikadigan shaxslar ekanligi ma'lum bo'ladi. Ulardagi bu holat, o'z navbatida, o'qish faoliyati natijasiga ham ta'sir qiladi, ko'pincha ularni mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan qiziqish o'ziga jalb qilib, natijaga erishish esa ulardan shunchalik ko'p izlanishni talab qiladiki, oqibatda, faoliyatga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi. Demak, bu toifa sinaluvchilar uchun asosiysi natija emas – bu jarayonning o'zida ishtirok etish va shu orqali ehtiyojni qondirish hisoblanar ekan. Shu bois biz, yoshlarning jarayonga nisbatan yo'nalganligini iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlikning 2-darajasi sifatida belgiladik.


Iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyorlikning 3-darajasini tushuntiruvchi yoshlarning egoizmga nisbatan yo'nalganlik darajasi

32,7 foiz sinaluvchilarning javoblarida aniqlandi. Xususan, hokimiyat va ta'sir o'tkazish mavqeyini afzal ko'ruvchi bloggerlik bilan shug'ullanuvchi yoshlar (22,0 foiz) ichki intilishning yuqoriligi bois, xatti-harakatlari va xulq-atvorida boshqalar ustidan hukmronlik qilishga va ularga ta'sir o'tkazishni namoyon qilishadi. Bu esa ular tomonidan qayd etilgan "agar meni mensishmasa, juda ham dahshatli"; "men uchun eng muhimi vaynlarim va (yoki) "sketch"larim orqali jamiyatni tartibga keltirish"; "men uchun eng zaruri o'z tengdoshlarim oldida obro'-e'tiborli bo'lish" degan fikrlar orqali izohlanadi.

Yana bir toifa yoshlar (8,2 foiz) uchun mashhurlik hayotining bosh maqsadi hisoblanar ekan. Ular barchani diqqat-e'tiborini o'ziga qaratishni, ko'pchilik orasida mashhur bo'lishni yoqtiruvchi insonlar toifasiga mansub bo'lib, o'zlaridagi ustuvor fikrlar: "agar mening vafotimdan so'ng meni eslashmasa, juda ham dahshatli"; "men uchun eng zaruri o'z hayotim davomida biron yorqin iz qoldirish"; "agar meni vaynlarim va (yoki) "sketch"larimni hech kim tushunmasa, juda ham dahshatli" kabi ta'kidlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, mustaqillikni ulug'lovchi bir guruh yoshlar (78,3 foiz – eng ko'p) o'z hayot yo'lini o'zlari tanlashadi, boshqalarning fikrlarini inobatga olishmaydi, o'zlari uchun nimani zarur deb bilishsa shuni qilishadi. Masalan, "agar o'zing uchun hech narsa qila olmasang, juda ham dahshatli"; "agarda men nima qilishim zarurligini uqtirib turishsa, men chidab tura olmayman"; "men uchun eng zaruri o'ylaganlarimni amalga oshirish" kabi javoblar shaxsdagi mustaqillikni qadriyat sifatida yuqori darajada qo'yishiga sabab bo'ladi.



Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qisman darajadagi egoistlik kishilarga zarar keltirmaydi, ammo uning mavjud emasligi yoki me'yordan ortiqligi esa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Lekin mahalliy sharoitda ana shu qisman darajadagi egoistlikning yigitlarga qaraganda qizlarda ko'pligi – bu tadqiqot ishimizning yangiliklaridan biri bo'ldi. Ya'ni jami sinaluvchi yigitlarning 29,6 foizida egotsentrik ustanovkalar shakllanganligining ustuvorligini kuzatsak, jami respondent qizlarning 38,3 foizida xuddi shunday ustanovka yuqori darajali ekanligini kuzatish mumkin.



Aniqlanilishicha, 30,4 foiz yana bir toifa yoshlar uchun insonlarga xizmat qilish asosiy qadriyat sanaladi. Bunday fikr egalari o'zgalarga yordam berish va ko'maklashishni o'zining hayotiy va kasbiy qadriyati sifatida idrok etishadi. Bu kabi e'tiroflar, "men uchun eng zaruri – farzandlarimni bilimli inson qilib tarbiyalash"; "men uchun eng zaruri – o'z farzandlarimni baxtli bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish" degan javoblarda yaqqol namoyon bo'ladi. Natijalar tahliliga ko'ra, "muhabbat va sadoqat" va "jozibadorlik" kabi qadriyatlar bo'yicha ham ko'rsatkichlar xuddi shunday xususiyatga egadir. Altruizmga nisbatan yo'nalgan (4-daraja) yoshlarda, odatda, shaxsiy manfaatdan voz kechgan holda o'zgalarga yordam berish istagining yuqoriligi alohida diqqatga sazovordir. Shuningdek, bu toifa sinaluvchilar kelajakdagi mehnat faoliyatlarida qo'l ostidagilarining e'tirofi bo'yicha hurmatga loyiq rahbarlar sirasidan joy olishadi, degan

bashoratni ham aytish mumkin. Sababi, psixologik tadqiqotlarda – altruizm – ijtimoiy motivatsiyalardan biri hisoblanib, uning mavjudligi rahbarlarning yetukligidan dalolat beradi [4], [5]. Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning 34,7 foizi altruizmga nisbatan yo‘nalgan yoshlar sanalishadi. O‘zlaridagi sotsiotsentrik ustanovkalarning yuqoriligiga ko‘ra, yigitlar tengdosh qizlardan ancha farqlanishadi.

Xulosa. Umuman olganda olib borilgan keng qamrovli izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrida tahsil olayotgan yosh (yigit)lardagi iqtisodiy munosabatlarga kirishishni ta‘minlashga xizmat qiladigan ustuvor hayotiy qadriyatlar altruizmga nisbatan yo‘nalganlikda o‘z ifodasini topgan. Chirchiq shahrida o‘qish faoliyatini olib borayotgan yosh (yigit)lar uchun esa bunday toifa qadriyatlar jamlanmasi natijaga nisbatan yo‘nalganligi bilan xarakterlidir. Shuningdek, ushbu yosh davrining qizlar (Toshkent sh.) uchun natijaga

yo‘nalganlikni ifodalovchi hayotiy qadriyatlari ustuvorlikni tashkil etsa, kichik shahar (Chirchiq sh.) qizlarida esa jarayonga nisbatan yo‘nalganlik alohida ahamiyat kasb etar ekan.

Xulosa qilib aytganda, aniqlangan yoshlardagi terminal va instrumental qadriyatlar, avvalo, yurt tinchligi, vatan ravnaqi uchun mas‘uliyatni his eta olish ko‘nikmalari hamda oiladagi kichik yumushlarni bajarib, oila ravnaqi va farovonligi uchun o‘z hissasini qo‘shayotganligini his eta olishlari mazmunini ochib bersa-da, lekin, yoshlarning tabiiy boyliklar va atrof-muhitni asrab avaylash, mehnatsevarlik, tejamkorlik, saxiylik xislatlariga ega ekanligini; ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni to‘liq anglash, ularni yechish uchun zaruriy qarorlarni qabul qila olish xislatlari va ko‘nikmalari shakllanganligini to‘liq namoyon qilmaydi hamda iqtisodiy mas‘uliyatlilik va madaniyatlilikni shakllanish bosqichi tugallanmaganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5884143>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. <http://stat.uz>
4. Умарова Н.Ш. (2019). Экономическая социализация личности в контексте возрастных периодов. Вестник науки и образования, (22-3 (76)), – С. 60–64.
5. Умарова Н.Ш. (2020). Иқтисодий ижтимоийлашув жараёнига таъсир килувчи омилларнинг мотивацион-кадриятли тузилмаси (ўспиринлар мисолида). Academic Research in Educational Sciences, (2), – С. 259–277.
6. Умарова Н.Ш. (2019) Теоретическая и практическая модель экономической социализации личности. Вестник интегративной психологии (18). – С. 259–263.



Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i

GENDER TENGLIKKA ERISHISHDA TAHLILY USUL VA VOSITALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lgan gender tengligi muammosining ijtimoiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilib, gender tengligiga erishishning dolzarbligi, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, gender tengligiga erishishning monitoring usul hamda vositalari, gender ekspertiza tushunchasi zarurati va uning turlari, gender audit yoritilib, bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasi keltirib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: gender, inson huquqlari, erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar, xalqaro huquq, gender ekspertiza, gender audit, barqaror rivojlanish maqsadlari, xorijiy tajriba, modellar.

Аннотация. В статье анализируются социально-правовые аспекты проблемы гендерного равенства, которая является неотъемлемой частью прав человека. Освещены результаты проведенных работ по актуальности достижения гендерного равенства, методы и инструменты мониторинга достижения гендерного равенства, необходимость понятия гендерной экспертизы, ее виды и гендерный аудит. Приводится также опыт зарубежных стран в этом отношении.

Ключевые слова: гендер, права человека, равные права и возможности мужчин и женщин, международное право, гендерная экспертиза, гендерный аудит, цели устойчивого развития, зарубежный опыт, модели.

Annotation. The article analyzes the social and legal aspects of the problem of gender equality, which is an integral part of human rights. The results of the work done on the relevance of achieving gender equality, methods and tools for monitoring the achievement of gender equality, the need for the concept of gender expertise, its types and gender audit are highlighted. The experience of foreign countries in this respect is also presented.

Key words: gender, human rights, equal rights and opportunities for men and women, international law, gender expertise, gender audit, sustainable development goals, foreign experience, models.

Kirish. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda ta'minlash kun tartibiga qo'yilayotgan asosiy maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, 17 ta maqsadga erishish bo'yicha 169 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad Gender tenglikni ta'minlash, barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat.

Xususan, mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. Jumladan, 2016-yildan bugungi kunga qadar gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2 ta Qonuni, Prezidentning 9 ta Farmon va qarori, Hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka

erishish strategiyasi” ishlab chiqilib¹, hayotga tatbiq etilmoqda.

Jamiyatda gender tenglik tamoyilini singdirish va tatbiq etish, albatta, oson kechadigan jarayonlardan emas, bu borada “gender tenglik” tushunchasining talqini bilan bog‘liq bo‘lgan bahsli, stereotipli munozaralar, faqat ayol huquqlarini himoya qilish deb tushunish holatlari uchrab turgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, amaliyotda normativ huquqiy hujjatlar bilan hayotga tatbiq qilinib kelinayotgan gender tengligining talablari, o‘z navbatida, muayyan tarzda yangi mexanizm va chora-tadbirlarni ham joriy qilishni va o‘ziga xos tarzda kuzatuv, tahlil ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bular orasida gender statistika, gender ekspertizasi, gender audit kabi yangi kuzatuv tahlil usullariga ham ehtiyoj tug‘ilmoqda, shu bilan birga, ularni o‘zbek jamiyatida to‘g‘ri tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yuqorida nomi tilga olingan gender tenglikka erishish strategiyasida bir necha marta turli sohalar kesimida gender ekspertizani joriy etish zarurligi belgilab berilgan. Shu o‘rinda gender ekspertiza o‘zi nima va uning qanday turlari mavjud degan savol paydo bo‘lishi tabiiy.

Asosiy qism. Gender ekspertiza bu turli yo‘nalishlar bo‘yicha mahsulotlar (normativ-huquqiy hujjatlar, OAV materiallari, reklamalar, maktab darsliklari, o‘quv-uslubiy materiallar va boshqalar) va ularning loyihalarining gender tengligini ta‘minlash tamoyillariga muvofiqligi bo‘yicha tahlil qilishni bildiradi. Bugungi kunda gender ekspertiza deganda, ko‘p hollarda normativ-huquqiy hujjatlarning ekspertizasi tushuniladi. Qolaversa, so‘nggi yillarda media mahsulotlarning gender ekspertizasi hamda ta‘lim sohasida gender ekspertiza tushunchalari ham iste‘molga kirib keldi, bundan tashqari, gender audit tushunchasi mavjud bo‘lib, u ko‘proq gender byudjetlashda va mehnat jamoalarida gender tengligiga rioya qilish holatlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli Qonunining 3-moddasiga asosan **gender-huquqiy ekspertiza** — normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar

¹ “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори. СҚ-297-IV-сон 28.05.2021 (<https://lex.uz/docs/5466673>)

kafolatlarini ta‘minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish ekanligi belgilangan². Normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizadan o‘tkazish ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘llanib keladi. Masalan, Kanadada 1998-yildan boshlab boshqaruv jarayonida va normativ-huquqiy hujjatlarda gender tamoyilining buzilmasligini ta‘minlash maqsadida gender analiz – ekspertiza o‘tkazish amaliyoti joriy etilgan. Mazkur gender analizni amalga oshirish bo‘yicha maxsus metodika ishlab chiqilgan bo‘lib, ekspertiza to‘qqiz bosqichda amalga oshiriladi. Gender ekspertiza jarayonida normativ-huquqiy hujjatni joriy holatga nisbatan, lingvistik va to‘liq tahlili amalga oshiriladi, agarda gender tengligi tamoyilining buzilishi aniqlanadigan bo‘lsa, normani to‘g‘rilash uchun takliflar kiritiladi, xulosalar va tavsiyalar tayyorlanadi³.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi 192-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-bandida keltirilgan gender-huquqiy ekspertizasining vazifalari quyidagilardan iborat:

- gender sohasidagi normativ-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq hamda qabul qilinadigan qarorlarning asoslilikini va ishonchliligini ta‘minlovchi obyektiv faktlarni belgilash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari qabul qilinishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini inson huquqlari va gender tenglikka rioya etish, shuningdek, amalda qo‘llash mexanizmlarini kafolatlash va ta‘minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilish va baholash;
- normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaridagi qoidalarning gender tenglik prinsiplariga salbiy ta‘sirining oldini olish (ogohlantirish);
- gender tenglikni ta‘minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;
- gender-huquqiy ekspertiza sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirish;

² Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни// <https://lex.uz/ru/docs/4494849>

³ Кабышев С. В. Канадский опыт гендерной экспертизы правовых актов //Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. 2014. – №. 3 (27). – С. 20-24.

- normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender huquqiy ekspertizasidan o'tkazish quyidagilarga qaratilgan⁴:

- ✓ jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjatni yoki uning loyahasini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga (keyingi o'rinlarda — gender tenglik prinsiplari) muvofiq emasligini aniqlashga;
- ✓ jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat loyahasini qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;
- ✓ normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va kamsitish xususiyatiga ega xavflarni aniqlashga;
- ✓ jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga yo'l qo'yadigan va aniqlangan normalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning loyihasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda gender-huquqiy ekspertiza xulosasi ushbu normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqqan yoki qabul qilgan organga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Gender-huquqiy ekspertiza Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladi.

Media mahsulotlarining gender ekspertizasi – ommaviy axborot vositalarida taqdim etilayotgan matn, audio, video va boshqa shakllardagi media (ko'rsatuvlar, kinofilm, musiqiy klip va boshqalar) hamda reklama mahsulotlarini gender tengligi prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish.

Media mahsulotlarining gender ekspertizasidan o'tkazilishi ommaviy axborot vositalarida oila va jamiyatdagi xotin-qizlar hamda erkaklarning rolini aks ettirishda an'anaviy qarashlar, gender stereotiplarining salbiy ta'sirini kamaytirishga,

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини гендер-ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисида”ги Низомни тасдиқлаш ҳақида Қарори// <https://lex.uz/docs/4777291>

mavjud televideniye, radio, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hisyasi yetarli darajada yoritilishiga olib keladi. Media mahsulotlarini gender ekspertizadan o'tkazish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi turli-tuman bo'lib, har bir davlat ushbu yo'nalishga gender tengligini ta'minlash bo'yicha siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraydi.

Gender ekspertizasi va monitoringini yuritish jahonning ko'plab mamlakatlarida amalga oshiriladi. Xususan, **Shvetsiyada** media sohasida gender ekspertizani amalga oshirishda **NNTlar** faol ishtirok etadi. Masalan, **2010-yil mart oyida Lina Thomsgård** tomonidan tashkil etilgan **“Equalisters” (“Rättviseförmedlingen”)** harakati media mahsulotlarida gender tamoyiliga amal qilinishi bo'yicha ekspertlar ro'yxatini shakllantirdi va ularning faoliyatini muvofiqlashtirdi. Mazkur jamiyatning mediakontentidagi gender ekspertizasi quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi⁵:

1. Turli kontekstlardagi genderga oid munosabatlarni hisobga oladi.

2. Gender me'yorlarining buzilishi bo'yicha keyslarni ajratib oladi.

3. Jamoatchilik diqqatini jalb qiladi.

Shvetsiyada media mahsulotlarini tayyorlashda ayollar obrazlarining sonini va ahamiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, kino, televideniye, kiber o'yinlardagi asosiy qahramonlar orasida ayollarning o'rni so'nggi yillarda bir necha marotabaga o'sgan. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida mazkur media mahsulotlarini ikki jins vakillari tomonidan tayyorlashda **teng ravishda moliyalashtirish tashabbusi** amalga oshirilishini ko'rsatish mumkin.

Gender tengligi bo'yicha Yevropa instituti (EIGE) ma'lumotlariga ko'ra, **2017-yilda** YIga a'zo mamlakatlar ichida faqatgina **Shvetsiyada** mavjud televideniye faoliyatida **qaror qabul qilishda ayollarning ishtiroki** indikatorining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha Yevropa Ittifoqi umumiy ko'rsatkichlaridan ko'ra **yuqoriroq** bo'lgan. OAV boshqaruvida **ayollar soni va ishtirokining ortishi** esa media kontentda gender tengligining ta'minlanishi, ayollar va erkaklarning mavjud materiallardagi ishtirokining ortishiga olib keladi, deb hisoblash mumkin.

Shvetsiya OAVda ayollarning turli kamsitilish, tazyiq va zo'ravonlik holatlarini hikoya qilish,

⁵ <https://rattviseformedlingen.se/equalisters/>, [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU\(2018\)596839_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU(2018)596839_EN.pdf)

gender tengsizlik muammosiga jamoatchilikning e'tiborini qaratish uchun **#MeToo** va **#deadline** kampaniyalari olib borilgan. Mazkur kampaniyalar doirasida gender zo'ravonlik, xususan jismoniy, jinsiy zo'ravonlik holatlariga duch kelgan ayollar o'zlarining boshlaridan o'tkazganlarini hikoya qilib berishgan.

Ad Watch kampaniyasi Shvetsiyada OAVdagi gender tengsizlikni targ'ib qiluvchi reklamalar haqida xabar berishga mo'ljallangan kampaniya hisoblanadi. **Shvetsiya ayollar lobbisi (The Swedish Women's Lobby)** bunday reklama haqida **Shvetsiya reklama ombudsmani (The Swedish Advertising Ombudsman)**ga xabar beradi va ombudsman reklama ortida turgan kompaniya bilan bog'lanadi va tegishli tartibda choralarni amalga oshiradi.

Avstriyada⁶ gender tengligini **media mahsulotlari**, xususan, **reklamalarda** aks etishi bilan bog'liq jarayon qator **davlat va nodavlat tashkilotlari** tomonidan amalga oshiriladi. Avstriyada **Matbuot kengashi (Presserat)** va **Reklama standartlari kengashi (Werberat)** tomonidan media mahsulotlarida gender diskriminatsiyaning oldini olish bo'yicha modda kiritilgan bo'lib, u axloq kodeksi asosida faoliyat olib boradi. Ular kodeks doirasida cheklangan sanksiyalar qo'llashlari ham mumkin.

Matbuot kengashi (Presserat) matbuotga hisobot berish bo'yicha **ko'rsatmalar** beradi, ular orasida **ayollar haqida hisobot berish** to'g'risidagi ma'lumot mavjud. Biroq, bu **ixtiyoriy** bo'lib, unda ommaviy axborot vositalari ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi ham mumkin.

Avstriyaning **Milliy teleradiokompaniyasi (ÖRF)** o'z-o'zini tartibga solishning nisbatan kuchli tizimiga ega, shu jumladan, translyatsiya tarkibidagi gender tengligi bo'yicha keng ko'rsatmalar va (qonuniy talablarga muvofiq) **“gender tengligi rejasi”**ga ega. Bu esa milliy telekanallar va radiokanallar tomonidan taqdim etilayotgan mediakontentning Milliy teleradiokompaniya tomonidan gender ekspertizadan o'tkazilishini va sifatli kontent taqdim etilishini ta'minlaydi. Lekin mazkur tizim faqatgina **davlat kanallari** uchun amal qiladi, xususiy kanallar uchun emas.

Gender ekspertizaning yana bir turi ta'lim jarayoni bilan bog'liq o'quv materiallari va

⁶ https://www.werberat.at/layout/ETHIK_KODEX_6_2012_EN.pdf; [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU\(2018\)596839_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU(2018)596839_EN.pdf); Ross K., Padovani C. (ed.). Gender equality and the media: A challenge for Europe. – Routledge, 2016.

umumiy jarayonni gender ekspertizadan o'tkazish hisoblanadi. **Ta'limda gender ekspertiza** – ta'limning turli bosqichlarida foydalaniladigan o'quv dasturlari va darsliklar, o'quv qo'llanmalari hamda boshqa shakldagi o'quv adabiyotlarini gender tengligi prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish, shuningdek, darsliklarni ishlab chiqish jarayonini tahlil qilish orqali gender nomutanosibligi manbalarini aniqlash, ta'limning mazmunida erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi bo'yicha axborotlarning aks etishini o'rganish.

Ta'lim, xususan, maktab ta'limi va uning o'quv adabiyotlari faqatgina bilim bermaydi, shu bilan bir qatorda, jamiyatdagi turli **stereotiplarning shakllanishi**, bolalar ongida jamiyatning tuzilishi haqidagi qarashlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ta'limdagi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar va boshqa **o'quv adabiyotlari bolalar dunyoqarashiga katta ta'sir etadi**. Ularda gender tengligi tamoyillarining aks etishini tahlil qilish, ta'limda gender ekspertizani amalga oshirish jamiyatda gender tengligi ta'minlanishiga olib keladi. **O'zbekistonda** maktab, professional va oliy ta'lim tizimida foydalaniladigan o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv adabiyotlari **to'liq gender ekspertizadan o'tkazilmagan**. Qolaversa, ta'lim tizimining **maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim bosqichidagi** bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchi va xodimlarining aksariyatini **ayollar** tashkil etadi. Masalan, **2019–2020-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida** tahsil bergan **481 604 o'qituvchining 69,1 foizini** yoki **har 10 tadan 7 tasini ayol o'qituvchilar** tashkil etgan⁷. **2021-yilda** bu ko'rsatkich **70,3 foizni tashkil etgan**⁸. Bu esa ta'lim berish jarayonida o'qituvchilar orasida gender nomutanosiblikka olib keladi.

Butun dunyo bo'ylab **UNESCO** tomonidan turli davlatlar hukumatlari bilan hamkorlikda **ta'limda gender ekspertiza** amalga oshirib kelinadi. O'z navbatida, turli **tadqiqotchilar, davlat va nodavlat tashkilotlari** tomonidan **mustaqil** gender ekspertiza amalga oshirilishi ham mumkin.

Masalan, **Pokiston** ta'lim tizimida gender tengligini tahlil qilish masalasi **2015-yilda**, ya'ni **1990-yildagi Jomtein deklaratsiyasi va 2000-yildagi Dakar harakatlar dasturi** ratifikatsiyasidan so'ng kun tartibiga chiqdi. Hukumat tomonidan **UNESCO** bilan hamkorlikda Milliy o'quv dasturlari **6 ta fan** (ingliz tili, urdu tili, tabiiy

⁷ <https://uzedu.uz/oz/statistika>

⁸ <https://lex.uz/docs/-5466673>

fan, matematika, ijtimoiy fanlar va islomiy fan) bo'yicha **194 ta darslikning** mazmuni tahlil qilindi, darslikning mualliflari o'rganildi, **4 ta viloyatdagi 24 ta maktabning**, direktorlari, o'qituvchilari, o'quvchilari va ota-onalar bilan suhbat o'tkazildi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, Milliy o'quv dasturida tanlangan oltita fandan **kamida uchtasida erkak jinsiga kuchli e'tibor qaratilgan**. O'quv dasturiga kiritilgan 251 nafar shaxslar ro'yxatidan atigi **7,7% i ayollar** bo'lib, ularning aksariyati musulmonlar tarixiga tegishli. Subkontinentning tarixiy shaxslarida atigi **0,9% ayollar, 9,2% Pokistondan va 3,7% dunyoning qolgan qismidan bo'lgan**. O'quv dasturi tuzishda vazirlik tomonidan taqdim etilgan darsliklarni ishlab chiquvchilar uchun ko'rsatmalarda gender tengligini ta'minlash bo'yicha **ko'rsatmalar** mavjud emas.

Ta'limdagi mavjud gender muammolari jamiyatda gender tengligini ta'minlashda katta muammolarga olib kelishini anglagan holatda, tadqiqot natijasida **har yili nashr qilinayotgan darsliklar** va boshqa o'quv materiallaridan erkaklar hamda ayollar uchun teng imkoniyatlarning aks etishi, har yili darsliklar, o'quv dasturlari hamda ularni tayyorlovchi **mualliflar jamoasini gender ekspertizadan** o'tkazish belgilab berilgan⁹.

Gender audit – gender byudjetlashtirish va gender ekspertiza jarayonlarining bir qismi hisoblanib, gender jihatlarini inobatga olgan holatda byudjetlashtirish va mablag'larni yo'naltirishdan so'ng ajratilgan mablag'larning gender tengligi tamoyilini ta'minlash bo'yicha mavjud qonun va qonunosti hujjatlariga qay darajada to'g'ri yo'naltirilganligini o'rganish, mavjud hisobotlarni gender ekspertizadan o'tkazish, shu yo'nalish bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazishni ifodalaydi. Gender audit mohiyatin "ijtimoiy audit" bo'lib, u an'anaviy "moliyaviy audit"dan farqli ravishda "**sifat auditi**" toifasiga kiradi, u faqatgina **moliyaviy hisobotlar va holatni** emas, balki tashkilotning **boshqaruv jarayoni** va barcha darajadagi **ijtimoiy munosabatlarda** gender tenglik normalariga amal qilinishini ham taftish qiladi. Gender audit aksariyat rivojlangan mamlakatlarning gender siyosatida ajralmas ahamiyat kasb etadi.

1999 yilda Ayollar taraqqiyoti komissiyasi (Commission on the Advancement of Women – CAW) tomonidan **Gender integratsiya konsepsiyasi** (The CAW's Gender Integration Framework (GIF)) ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur konsepsiya **to'rt tarkibiy qismdan** iborat: **siyosiy**

⁹ <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000216890>

iroda, texnik imkoniyat, javobgarlik yoki mas'uliyat va korporativ madaniyatni o'z ichiga oladi.

Gender auditni o'tkazish, muddati va tartibi bo'yicha ko'plab xalqaro tavsiyalar Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan tayyorlangan tavsiyalarda fuqarolik jamiyatining mustaqil institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda katta korxonalar va tashkilotlar uchun gender auditni o'tkazish tavsiyalari beriladi.

Buyuk Britaniyada gender audit va gender siyosatning amalga oshirishini ekspertizadan o'tkazish vazifasi **kasaba uyushmalari** (trade unions) tomonidan amalga oshiriladi. O'ziga xos jihati shundan iboratki, Buyuk Britaniyada kasaba uyushmalari faqatgina nodavlat tashkilotlarda emas, balki **davlat organlarida** ham gender audit o'tkaza oladi. Davlat siyosatining talabi o'laroq, agarda davlat tashkiloti "**yaxshi**" **ish beruvchi** sifatida baholanishni istasa, kasaba uyushmalari tomonidan gender audit o'tkazishni ta'minlashi va mazkur auditning natijalarini sinchiklab o'rganib, tavsiyalarni **o'z faoliyatida joriy etishi** talab qilinadi. Bunga misol tariqasida, **sog'liqni saqlash tizimida** faoliyat yuritayotgan ayol xodimlarga erkak xodimlar bilan **teng oylik maosh to'lanishi** bilan bog'liq bo'lgan gender auditning xulosasi ko'plab muzokaralardan so'ng ta'minlanishga erishilganligini ko'rsatishimiz mumkin¹⁰.

Shvetsiya odatda gender moliyalashtirish bo'yicha hisobot yoki auditni amalga oshirish, monitoring qilish va audit qilishda **eng kuchli talablarga ega mamlakat** sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davlatda gender monitoring va audit jarayonlarining ikkisi ham **kasaba uyushmalari** tomonidan amalga oshirilib, gender audit **davlat va xususiy sektorni** o'z ichiga qamrab oladi. Shvetsiyada kasaba uyushmalari **to'g'ridan to'g'ri** gender bilan bog'liq ishhaqi masalalarini tahlil qilish va harakat rejalarini shakllantirish bilan shug'ullanadi¹¹. Gender audit o'tkazishda ular uchun hukumat ruxsati talab qilinmaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, turli yo'nalishlar bo'yicha gender ekspertizaning amalga oshirilishi gender tengligi

¹⁰ CLOSING THE GENDER PAY GAP. WHAT ROLE FOR UNIONS? P. 28. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_dialogue/---actrav/documents/publication/wcms_684156.pdf

¹¹ CLOSING THE GENDER PAY GAP. WHAT ROLE FOR UNIONS? P. 28. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_dialogue/---actrav/documents/publication/wcms_684156.pdf

tamoyilining to'g'ri hamda xalqaro standartlarga mos ravishda joriy qilinishida katta rol o'ynaydi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarning gender ekspertizasi mavjud qonunchilikda ayollar va erkaklar uchun tenglikning ta'minlanishini nazorat qilsa, ta'limdagi gender ekspertiza hamda mediada gender ekspertiza yosh avlodda, shuningdek, iste'molchilarda gender tenglik bo'yicha to'g'ri qarashlar va qadriyatlar tizimining shakllanishiga

xizmat qiladi. Gender audit moliyalashtirish masalalarida hamda byudjetni gender tamoyillari asosida to'g'ri taqsimlanishini tahlil qilib berishda muhim sanaladi. Muhimi, mazkur vosita va usullarni joriy qilishda normativ huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlash hamda bu boradagi vakolatli organlarni to'g'ri tayinlash, mazkur tahlillarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 1 мартдаги ПФ-81-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/search/>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 7 мартдаги ПФ-87-сон Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/5899498>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2022 йил 1 мартдаги ПҚ-146-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5884084>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5116-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5426644>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 5 мартдаги ПҚ-5020-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5320582>
7. “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори. СҚ-297-IV-сон 28.05.2021 (<https://lex.uz/docs/5466673>)
8. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни // <https://lex.uz/ru/docs/4494849>
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини гендер-ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисида”ги Низомни тасдиқлаш ҳақида қарори // <https://lex.uz/docs/4777291>
10. Кабышев С. В. Канадский опыт гендерной экспертизы правовых актов //Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2014. – №. 3 (27). – С. 20-24.
11. <https://rattviseformedlingen.se/equalisters/>, [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU\(2018\)596839_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU(2018)596839_EN.pdf)
12. https://www.werberat.at/layout/ETHIK_KODEX_6_2012_EN.pdf; [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU\(2018\)596839_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2018/596839/IPOL_STU(2018)596839_EN.pdf); Ross K., Padovani C. (ed.). Gender equality and the media: A challenge for Europe. – Routledge, 2016.
13. <https://uzedu.uz/oz/statistika>
14. <https://lex.uz/docs/-5466673>
15. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000216890>
16. CLOSING THE GENDER PAY GAP. WHAT ROLE FOR UNIONS? P. https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_dialogue/---actrav/documents/publication/wcms_684156.pdf
17. <https://t.me/davlatqomita>



Alimov Sardor Komil o'g'li,
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi,
O'zMU tayanch doktoranti. sardoralimov2507@mail.ru

TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA

Annotatsiya. Mazkur maqolada tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollar bilan ishlash, ularning ijtimoiy rehabilitatsiyasi bilan bog'liq muammolarga global nuqtayi nazardan yondashilgan. Jumladan, xotin-qizlarning oilaviy-maishiy zo'rvonlikka uchragan ayollarni moslashtirish bo'yicha Kanada, Shvetsiya, Qozog'iston mamlakatlarining tajribasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: tazyiq, zo'rvonlik, rehabilitatsiya, moslashtirish, shelter, oilaviy zo'rvonlik, nodavlat notijorat tashkilot, psixologik yordam, huquqiy yordam, Kanada, Shvetsiya, Qozog'iston.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы работы с женщинами, подвергшимися домогательствам и насилию, а также их социальной реабилитации с глобальной точки зрения. В частности, особое внимание уделяется изучению опыта Канады, Швеции и Казахстана по адаптации женщин, подвергшихся домашнему насилию.

Ключевые слова: домогательства, насилие, реабилитация, адаптация, шелтер, насилие в семье, негосударственная некоммерческая организация, психологическая помощь, юридическая помощь, Канада, Швеция, Казахстан.

Annotation. This article addresses the issues of working with women subjected to harassment and violence, as well as their social rehabilitation, from a global perspective. In particular, special attention is paid to the study of the experience of Canada, Sweden and Kazakhstan in the adaptation of women to domestic violence.

Keywords: harassment, violence, rehabilitation, adaptation, shelter, domestic violence, non-governmental non-profit organization, psychological assistance, legal assistance, Canada, Sweden, Kazakhstan.

Kirish. Zamonaviy dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan turli ko'rinishdagi tazyiq va zo'rvonlik holatlari mavjud bo'lib, mazkur yo'nalishda bir qator xalqaro tashkilotlar va milliy davlatlar hamkorlikda faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa, maishiy tazyiq va zo'rvonlik qurboniga aylangan ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy hayotga qaytadan moslashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanib, mazkur yo'nalishda turli mamlakatlar turlicha usul hamda vositalardan, mexanizmlardan foydalanishadi.

Xususan, mamlakatimizda ham tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bu yo'nalishdagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda "jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda huquqiy ong va

huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash¹” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan. O‘z navbatida, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni keyinchalik jamiyatga moslashtirish bo‘yicha muammolar ham mavjud. Xususan, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, **“Amaldagi tartibga muvofiq, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar 30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi. Lekin bu muddat o‘tgandan keyin ularning taqdiri nima bo‘lishi to‘g‘risidagi savolga javob yo‘q”**².

Zo‘ravonlik va tazyiq qurbonlari bo‘lgan ayollar dastlabki tibbiy va ijtimoiy-psixologik yordamni olishlari, keyinchalik esa maxsus markazlar, shelterlar – vaqtinchalik turarjoy, boshpanalarga joylashishlari talab qilinadi. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida mazkur tizim qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan yetarli darajada mustahkamlanmagan, bu esa tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarning reabilitatsiyasi va ijtimoiy reintegratsiyasida ba‘zi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Boshqa tomondan olib qaraganda, reabilitatsiya jarayonining moddiy manbalari aniq belgilab berilmaganligi ham xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish va ijtimoiy moslashtirish imkoniyatini kamaytiradi.

Asosiy qism. **“Ayollar zo‘ravonlikka qarshi – Yevropa”** (“Women Against Violence – Europe”) xalqaro NNTlar birlashmasining ma‘lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lmagan **18 davlat** mamlakatdagi tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni reabilitatsiya qilish tizimi o‘rganilganida, ayollar uchun reabilitatsiya markazlari, shelterlar va boshpanalardagi joylarning **79 foiz (26 000 ga yaqin)** murojaatchilar uchun yetishmasligi aniqlangan. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun **2 000 ta NNT va 1 600 inqiroz markazlarini** tashkil etish lozim³.

Davlat tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan barcha ayollar uchun reabilitatsiya qilish markazlariga

¹ “Хотин-қизларни тазйик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎзРҚ-561-сонли Қонун. 02.09.2019. (<https://lex.uz/docs/-4494709>)

² «Ўзбекистон шароитида аёлга қўл кўтариш, тазйик ўтказиш ман этилади деган қарорни қилинлар» – Шавкат Мирзиёев <https://daryo.uz/k/2022/03/05/ozbekiston-sharoitida-ayolga-qol-kotarish-tazyiq-otkazish-man-etiladi-degan-qarorni-qilinglar-shavkat-mirziyoyev/>

³ <https://www.osce.org/files/f/documents/8/8/509471.pdf>

qabul qilinishda teng imkoniyatlarni yaratib berishi lozim. Xususan, **Gondurasda** barcha turdagi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollar NNTlar tomonidan tuziladigan markazlarga murojaat qilishlari mumkin. Yoki **Gvatemalada** 2008-yilda qabul qilingan “Ayollarni o‘ldirish va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning boshqa shakllariga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi hukumatdan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarni reabilitatsiya uchun to‘liq imkoniyat yaratilgan markazlarga joylashtirish, bu jarayonni moliyalashtirish orqali kafolat berishni talab qiladi. **Meksikaning** 2007-yilda qabul qilingan “Ayollar uchun zo‘ravonliksiz hayotni ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonuni davlatdan boshpanalarni tashkil etish va saqlashni qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. **Turkiyadagi** “Mahalliy boshqaruv to‘g‘risida”gi Qonun esa 50 mingdan ortiq kishi uchun mo‘ljallangan munitsipal boshpanalarni yaratishni nazarda tutadi. 1997-yildagi **Avstriyaning** “Barcha shtatlarda zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga politsiya aralashuvidan so‘ng faol yordam ko‘rsatiladigan yordam markazlarini tashkil etishni talab qiladi. Markazlar xotin-qizlar muammolari bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan boshqariladi hamda ular Ichki ishlar va Xotin-qizlar ishlari vazirliklari tomonidan besh yillik shartnomalar asosida moliyalashtiriladi⁴.

Zo‘ravonlikning bir ko‘rinishi bo‘lgan jinsiy zo‘ravonlikka uchragan ayollar har tomonlama, keng qamrovli xizmatlardan darhol foydalanishlari kerak. Xalqaro miqyosda **Amerika Qo‘shma Shtatlari** va **Germaniyada** hukumat hamda nodavlat tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan jinsiy zo‘ravonlikda reabilitatsiya markazlari, **Malayziyadagi** yagona markazlar va **Hindistondagi** ayollar uchun maxsus kasalxonalar bunday xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlarga misol bo‘la oladi⁵. Ba‘zi mamlakatlarda xizmatlardan foydalanish hali ham jabrlanuvchining tegishli zo‘ravonlik haqida politsiyaga xabar berishi bilan bog‘liq. Bu talab juda ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi,

⁴ Handbook for Legislation on Violence against Women. United Nations. – New York, 2010. – P. 31-32.

⁵ [https://www.un.org/womenwatch/daw/vaw/handbook/Handbook%20for%20legislation%20on%20VAW%20\(Russian\).pdf](https://www.un.org/womenwatch/daw/vaw/handbook/Handbook%20for%20legislation%20on%20VAW%20(Russian).pdf)

chunki ko‘plab madaniyatlarda ayollarning jinsiy zo‘ravonlikka uchrashida uning o‘zi aybdorligi, uyat yoki sharmandalik kabi ijtimoiy aks ta‘sirni uyg‘otadi, natijada ayollar bunday holatlarda tibbiy va psixologik yordam so‘ramasliklari mumkin.

Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarning reabilitatsiyasi faqatgina tibbiy va dastlabki psixologik yordamdan iborat emas. Ularning aksariyati ishi, turarjoyi, daromadidan ham ayriladi. Jahonning ko‘plab mamlakatlari reabilitatsiya jarayonidan ayollarni ish, yashash joyi bilan ta‘minlash, ularni moliyaviy tomondan qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratadi. Masalan, AQShda ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning uy-joy bilan bog‘liq muammolarini hal qilish uchun alohida qonun qabul qilingan, mazkur yo‘nalishda moliyalashtirish tizimi ishlab chiqilgan. Yoki **Avstriyada** tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarning uy-joy bilan bog‘liq muammolarini hal qilish uchun amaliy faoliyat olib borilib, Vena shahrida zo‘ravonlikka duch kelgan va boshpanasiz qolgan ayollar uchun arzon uy-joylarni ijaraga olishga yordam berilmoqda⁶.

Tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar bilan ishlash, ularning ijtimoiy reintegratsiyasi va reabilitatsiyasi har bir davlatda o‘ziga xos yechimga ega. Bunda mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot holati, huquqiy savodxonlik darajasi va qonunlarning ustuvorligi, aholining mental o‘ziga xosligi hamda ustuvor qadriyatlar tizimi kabi jihatlar ham e‘tiborga olinadi. Quyida tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha ba‘zi rivojlangan davlatlar tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Shvetsiya. Shvetsiya bugungi globallashtirish dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan, farovon, aholisini ijtimoiy jihatdan yuqori darajada qo‘llab-quvvatlovchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mazkur mamlakatda tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar bilan ishlashning o‘ziga xos tizimi mavjud. Avvalo, ta‘kidlash o‘rinliki, Shvetsiyada aholini butun umr davomida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan bo‘lib, bunda inqirozli vaziyatlardagi insonlarga ijtimoiy ko‘mak berishga alohida e‘tibor qaratiladi. Shvetsiyada **2017–2026-yillarga mo‘ljallangan “Erkaklarning ayollarga nisbatan zo‘ravonligini oldini olish**

⁶ Handbook for Legislation on Violence against Women. United Nations. – New York, 2010. – P. 33.

va unga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy strategiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ayollarning reabilitatsiyasini amalga oshirish bo‘yicha idoralararo mahalliy va milliy darajada hamkorlik o‘rnatishga e‘tibor qaratilgan⁷.

Shvetsiyada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar bilan bir qatorda mazkur jarayonga guvoh bo‘lib qolgan bolalar ham tazyiq qurboni sifatida tasnif qilinadi hamda ular ham ayollar kabi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, reabilitatsiya dasturlaridan o‘tish huquqiga ega. Bu Shvetsiyadagi **“Ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 5-bo‘lim 11-qismida** belgilab berilgan⁸.

Mamlakatda oilaviy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar reabilitatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi hukumatga tegishli va nodavlat notijorat shakldagi tashkilotlar, markazlar bir vaqtning o‘zida faoliyat olib boradi. Bunday markazlar “bir darcha” tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Birgina aholisi 500 mingdan ko‘proq bo‘lgan **Gyoteborg** shahrida 2010-yilda mahalliy (munitsipalitet) tomonidan moliyalashtiriladigan **uchta** va xususiy bo‘lgan **bitta** Ayollar inqiroz markazi mavjud. Mavjud markazlarda ayollar **to‘rt oygacha** qolishlari mumkin. Bu vaqt oralig‘ida ularning reabilitatsiyasi bilan professional xodimlar – ijtimoiy ishchilar, psixologlar, sotsiologlar, huquqshunoslar va boshqalar shug‘ullanishadi. Mazkur markazlar yarim yopiq holatda bo‘lib, ularga kirib chiqish cheklangan. Ularda tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarning ularga tazyiq o‘tkazgan oila a‘zolari (masalan, erlari) bilan uchrashishlari taqiqlanadi. Bunga sabab sifatida ayollarni reabilitatsiya jarayonida qo‘shimcha stressdan, ruhiy jarohatlardan saqlash ko‘rsatiladi. Bunday markazlar maksimal darajada ayollar va ularning farzandlari o‘zlarini xavfsiz his qila oladigan joy bo‘lishi talab qilinadi.

Shvetsiyadagi Ayollar inqiroz markazlari mahalliy byudjetdan moliyalashtirilib, bunday markazlarning yillik byudjeti o‘rtacha **uch million kronani** tashkil qiladi (taxminan, 3,3 mlrd so‘m). Bunda asosiy xarajatlar binolarni ijaraga olish va

⁷ <https://rm.coe.int/grevio-inf-2018-15-eng-final/168091e686>

⁸ Social Services Act (2001:453). Svensk Författningssamling, 2001-06-19, Vol. 12, No. 453, pp. 1-21, ISSN: 1403-8889. <http://www.notisum.se/rnp/document/?id=20010453>

xodimlarni ishhaqi bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Umuman olganda, Ayollar inqiroz markazlarining xodimlariga yaxshi oylik maosh to'lanadi⁹ (taxminan, 12000–16000 krona) va ular ijtimoiy jihatdan to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Shvetsiyadagi tazyiq va zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayollar bilan ishlashdagi eng katta muammo bu idoralararo hamkorlik tizimining to'liq yo'lga qo'yilmagani deb hisoblash mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yilda mamlakatdagi atigi **10 foiz** munitsipalitetda mahalliy hukumat sog'liqni saqlash, NNT, shelterlar, kasalxona va psixiatriya markazlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan to'liq hamkorlikni yo'lga qo'ygan¹⁰. Bu esa tazyiq va zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayollar bilan ishlashda ma'lum qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Shvetsiyada **200 ga yaqin** ayollar uchun vaqtinchalik **boshpanalar (shelterlar)** mavjud bo'lib, ularning aksariyati NNT tomonidan boshqariladi hamda shelterlarni birlashtirib turuvchi ikki uyushma (**ROKS va UNIZON**)ning biriga tegishli hisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2012-yilda shelterlarning **21 foizi** munitsipalitet, **71 foizi** NNT va **8 foizi** xususiy tashkilotlar tomonidan boshqarilgan¹¹. Mamlakatda shelterlarning mavjud soni va ularning sig'imi tazyiq va zo'rvonlikka uchragan barcha ayollarni qamrab ola olmaydi. UNIZON ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda shelterlarga murojaat qilgan **har o'n ayoldan faqat uchtasi** qabul qilinishi mumkin edi¹². Buning sabablaridan biri Shvetsiyadagi uy-joy sharoitining og'irligi bo'lib, bu ko'plab ayollarning boshpanada yashashiga to'sqinlik qilmoqda. Shelterdan keyin o'zlar va bolalari uchun yangi hayot qurish niyatida bo'lgan ayollar uchun arzon uy-joy variantlari ko'pincha mavjud bo'lmaydi.

Kanada ayollarga nisbatan oilaviy-maishiy zo'rvonlikka qarshi kurashish, zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha

bugungi kundagi eng yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Kanadada tazyiq va zo'rvonlikka qarshi kurashishning yaxlit huquqiy tizimi yaratilgan bo'lib, uning tarkibiga federal, shtat qonunlar va mahalliy hukumat dasturlari kiradi.

Kanadada zo'rvonlik qurboni bo'lgan ayollarni qo'llab-quvvatlashda asosiy e'tibor ularning sog'lig'ini va ruhiy holatini tiklashga qaratiladi. Umuman olib qaraganda, mamlakatda idoralararo ishlab chiqilgan dastur doirasida Sog'liqni saqlash vazirligi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Ayollar va gender tengligi masalalari vazirligi, Kanada Qirollik politsiyasi kabi federal organlar faoliyat yuritmoqda. Lekin **1970-yillargacha** Kanadada oilaviy zo'rvonlikka uchragan ayollarga ijtimoiy xizmatlar boshpana bermagan, yordam ba'zida **diniy yoki xayriya tashkilotlari** tomonidan amalga oshirilgan. Faqat o'tgan asrning **70-yillariga** kelib bu muammoga e'tibor kuchaydi va ayollar uchun vaqtinchalik boshpanalar, xavfsiz uylar, mehmon uylari, shelterlar tashkil etila boshlandi. 1980-yilda ularning soni **70 dan** ortiq bo'lgan bo'lsa, 1990-yillarda deyarli **400 taga** yetdi. **2010-yillarda**, taxminan, **470 ta** ayollar uchun boshpanalar, shelterlar faoliyat yuritgan. Shelterlarning soni oshsa-da, ularga ehtiyoj katta, masalan, 1994-yilda **85 mingdan ortiq** ayollar va ularning farzandlari zo'rvonlikdan himoya markazlariga murojaat qilgan¹³.

Mazkur himoya markazlari tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollarga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- terapevtik maslahatlar;
- yakka tartibda yoki guruh uchun maslahatlar;
- 24 soat ishlaydigan yordam uchun muloqot liniyalari;
- huquqshunos yoki boshqa tashkilotlarga murojaat qilishda yordam berish.

Qolaversa, ko'plab markazlar turli ta'lim dasturlari, mablag' yig'ish uchun xayriya tadbirlari, xodimlar va ko'ngillilar uchun seminar-treninglarni ham amalga oshiradi.

O'z navbatida, ta'kidlash o'rinliki, Kanadada ham tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollar va ularning bolalarini himoya qilish bilan bog'liq muammolar mavjud. Masalan, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayollar uchun boshpanalar va

⁹ <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=476058>

¹⁰ Open Comparisons of the municipalities' work with violence in close relationships 2017 ("Öppna jämförelser"); available at: <http://www.socialstyrelsen.se/oppnajakforelser/valdinararelationer>.

¹¹ <https://rm.coe.int/grevio-inf-2018-15-eng-final/168091e686>

¹² "How Sweden's housing crisis is impacting domestic violence victims", The Local, 5 April 2017 available at:

<https://www.thelocal.se/20170405/how-swedens-housing-crisis-is-impacting-domestic-violence-victims>.

¹³ <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=476058>

shelterlarga murojaat qiladigan oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarining **80 foizi** rad javobini oladi. **2019-yil noyabr** oyidagi o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, **bir kunda** o‘rtacha **620 nafar** tazyiq va zo‘ravonlikka duch kelgan ayol va ularning farzandlari rad javobini olgan. Bu esa oyiga deyarli **19 000 ayolning** markazlarda joylasha olmasligini bildiradi. Bunga asosiy sabab esa mazkur boshpanalarda joy yetishmasligi hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda bunday boshpanalar juda kam qurilgan, murojaatlar va aholi soni esa ancha ortgan. Ayollar va gender tengligi masalalari bo‘yicha vazir **Maryam Monsefning** ma‘lumotiga ko‘ra, butun mamlakat uchun milliy darajada muvofiqlashtirilgan reja ishlab chiqish kerak¹⁴. Lekin milliy rejani moliyalashtirish va markazlar, shelterlarning faoliyatini tartiblash bilan bog‘liq muammolar hali o‘z yechimini topgani yo‘q.

Tazyiq va zo‘ravonlikka duch kelgan ayollar va ularning farzandlarini reabilitatsiya qilish bilan bog‘liq **Qozog‘iston Respublikasidagi** holatga e‘tibor qaratsak. Qozog‘istonda **2019-yil** hisobidan tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar uchun **40 ta** inqiroz markazlari¹⁵ faoliyat yuritgan. Ularning aksariyat qismi nodavlat tashkilotlar bo‘lib, **Human Rights Watchning** hisobotiga ko‘ra, mazkur markazlarni rivojlantirish uchun moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar mavjud. Qolaversa, markazlar va ulardagi joylarning soni yetarli emas¹⁶. Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, **2018-yilda** Qozog‘istonda **10 ta** davlat va **19 ta** nodavlat markazlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda jami **3 400 ta** (shundan 2 500 tasi davlat, 900 tasi NNTlarga tegishli) joy mavjud bo‘lgan. 2019-yilda politsiya bo‘limlariga murojaat qilgan ayollarning **24 mingdan ortig‘i** ijtimoiy himoya uchun reabilitatsiya qilish bo‘yicha inqiroz markazlariga yo‘naltirilganligini va ularning mavjud qonunchilik tizimi bo‘yicha **olti oygacha** markazda qolish huquqi mavjud ekanligini inobatga olsak, mavjud markazlar va ulardagi joylarning judayam kam ekanligini anglashimiz mumkin.

¹⁴ <https://www.cbc.ca/news/canada/womens-shelters-turned-away-domestic-violence-1.5483186>

¹⁵ https://www.hrw.org/sites/default/files/supporting_resources/kaz_interior_ministry_replytohrw.pdf

¹⁶ https://www.hrw.org/sites/default/files/supporting_resources/kaz_letterto_prosecutor_general_27nov2019.pdf

Xulosa. Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilib, quyidagi **xulosalarga** kelish mumkin:

Birinchidan, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirishda faqatgina davlatga bo‘ysunuvchi markazlar, shelterlar, vaqtinchalik turarjoylardan tashqari nodavlat notijorat tipidagi inqiroz markazlari, shelterlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu, bir tomondan, markazlar va ulardagi joylar sonining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, raqobat tufayli soha mutaxassislarida professionalizm kuchayadi.

Ikkinchidan, markazlar, shelterlar xodimlari, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, sotsiologlar, huquqshunoslarning doimiy ravishda malakasini oshirish tizimini yaratish kerak.

Uchinchidan, tazyiq va zo‘ravonlikdan qurbon bo‘lgan ayollarning reabilitatsiyasida birinchi tibbiy va psixologik yordam hamda vaqtinchalik boshpanalarga joylashtirish muammoning doimiy yechimi emas. Shu tufayli ham bunday ayollar va ularning farzandlarining huquqlarini keyinchalik ham himoya qilish, ularning turmush darajasini yaxshilash, arzon-uy joy bilan ta‘minlash choralari ko‘rish kerak.

To‘rtinchidan, jamiyatda tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlarni, aholi, xususan, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha amaliy choralarni qo‘llash lozim. Yoshlarning nikohga qadar oilaviy huquqiy munosabatlar bo‘yicha bilimlarini oshirish, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlaridagi o‘quv materiallarini yoshlarda inson, xususan, ayollar huquqlarining ustuvorligi, oilaviy zo‘ravonliklarning salbiy oqibatlari bo‘yicha dunyoqarashini shakllantiruvchi ma‘lumotlar, infografikalar, vizual ta‘sir vositalari bilan boyitish kerak.

Beshinchidan, har bir ayolning reabilitatsiyasi – individual jarayon. Shu sababli ham har bir ayolning shaxsiga, uning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratish, reabilitatsiyaning individual metodlaridan foydalanish kerak. O‘z navbatida, bunday ayollarning shaxsi sir saqlanishi, turli salbiy stereotiplardan ko‘ra ayolning huquqlari, hayoti va salomatligi ustun deb hisoblanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Хотин-кизларни тазйик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎзРҚ-561-сонли Қонун. 02.09.2019. (<https://lex.uz/docs/-4494709>)
2. «Ўзбекистон шароитида аёлга қўл кўтариш, тазйик ўтказиш ман этилади деган қарорни қилинглр» – Шавкат Мирзиёев <https://daryo.uz/k/2022/03/05/ozbekiston-sharoitida-ayolga-qol-kotarish-tazyiq-otkazish-man-etiladi-degan-qarorni-qilinglar-shavkat-mirziyoyev/>
3. <https://www.osce.org/files/f/documents/8/8/509471.pdf>
4. [https://www.un.org/womenwatch/daw/vaw/handbook/Handbook%20for%20legislation%20on%20VAW%20\(Russian\).pdf](https://www.un.org/womenwatch/daw/vaw/handbook/Handbook%20for%20legislation%20on%20VAW%20(Russian).pdf)
5. Handbook for Legislation on Violence against Women. United Nations. – New York, 2010. – P. 33.
6. <https://rm.coe.int/grevio-inf-2018-15-eng-final/168091e686>
7. Social Services Act (2001:453). Svensk Författningssamling, 2001-06-19, Vol. 12, No. 453, pp. 1-21, ISSN: 1403-8889. <http://www.notisum.se/rnp/document/?id=20010453>
8. <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=476058>
9. Open Comparisons of the municipalities’ work with violence in close relationships 2017 (“Öppna jämförelser”); available at: <http://www.socialstyrelsen.se/oppnajokforelser/valdinararelationer>.
10. “How Sweden’s housing crisis is impacting domestic violence victims”, The Local, 5 April 2017 available at: <https://www.thelocal.se/20170405/how-swedens-housing-crisis-is-impacting-domestic-violence-victims>.
11. <https://www.cbc.ca/news/canada/womens-shelters-turned-away-domestic-violence-1.5483186>
12. https://www.hrw.org/sites/default/files/supporting_resources/kaz_interior_ministry_replytohrw.pdf
13. https://www.hrw.org/sites/default/files/supporting_resources/kaz_letto_to_prosecutor_general_27nov2019.pdf



Dusnayev Sherzod Ergashevich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti loyiha ijrochisi



Annakulov Kamol Xasanovich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti loyiha ijrochisi

ERTA NIKOH HOLATINING OLDINI OLISH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston Respublikasida kuzatilayotgan erta nikoh va erta tug‘uruq holatlari ilmiy tahlil qilingan, omillari va oqibatlarini aniqlangan, erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarining oldini olish bo‘yicha xorij tajribalari yoritilgan hamda ulardan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: erta nikoh, erta tug‘uruq, nikoh yoshi, kambag‘allik, ta’lim, zararli urf-odatlar.

Аннотация. В данной статье проведен научный анализ случаев преждевременных браков и преждевременных родов, наблюдаемых в зарубежных странах и Республике Узбекистан, определены факторы и последствия, освещен опыт по профилактике ранних браков и преждевременных родов, а также разработаны возможности их использования в Узбекистане.

Ключевые слова: ранний брак, преждевременные роды, брачный возраст, бедность, образование, вредные традиции.

Annotation. The article provides a scientific analysis of early marriages and early childbirth in foreign countries and in the Republic of Uzbekistan, identifies factors and consequences, describes the experience of preventing early marriages and early childbirth and reveals the possibilities of their use in Uzbekistan.

Key words: early marriage, premature birth, age of marriage, poverty, education, harmful customs.

Kirish. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yigit-qizlarning turmush qurish yoshi oila mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Balog‘at yoshiga yetmay turib, turmush qurgan va ona bo‘lgan ayollarning og‘ir xastaliklarga chalinish holatlari yuqori bo‘lib, bu, eng avvalo, jamiyatning beparvoligi tufaylidir. Qizlarning to‘liq jinsiy a‘zolari shakllanishi va oila qurish uchun ruhiy tayyor bo‘lishi 19–20 yoshga to‘g‘ri keladi, qizlarni 15–18 yoshgacha turmushga chiqishi, erta jinsiy hayot boshlashi ularning sog‘lig‘iga jiddiy zarar keltirishi bilan bir qatorda, homilaning tug‘ma nuqson bilan tug‘ilishiga ham sabab bo‘ladi. Voyaga yetmagan onalardan tug‘ilgan

bolalar o‘rtasida o‘lim holatlari 20–29 yoshdagi onalardan tug‘ilgan bolalarga nisbatan 50–90% ga ko‘proq uchraydi.

Har yili 12 million qiz 18 yoshga to‘lmasdan turib turmushga chiqadi, bu har daqiqada 23 qiz va uch soniyada bir qiz deganidir [1].

Asosiy qism. Erta turmush qurish (**child marriage**) darajasi bo‘yicha Hindiston, Bangladesh, Nigeriya, Braziliya va Efiopiya kabi mamlakatlar 40–55% bilan peshqadamlik qilmoqda [2]. Bu mamlakatlarda, asosan, **qashshoqlik** sabab qizlarni erta uzatish holati yuqori. Dunyo miqyosida 18 yoshga to‘lmasdan turib turmush qurgan o‘g‘il bolalar 115 millionni va bu o‘rtacha 10–30% ni

Ayrim mamlakatlarda erta (child marriage) turmush qurish holati [5]

№	Erta turmush qurish darajasi bo'yicha eng ko'p tarqalgan mamlakatlar	Erta turmush qurish darajasi (%)	№	Erta turmush qurish mutlaq soni bo'yicha eng ko'p tarqalgan mamlakatlar	Erta turmush qurish mutlaq soni bo'yicha (ming kishi)
1	Niger	76	1	Hindiston	15 648 000
2	Markaziy Afrika Respublikasi	68	2	Bangladesh	4 382 000
3	Chad	67	3	Nigeriya	3 742 000
4	Bangladesh	59	4	Efiopiya	2 276 000
5	Mali	54	5	Braziliya	2 226 000
6	Mozambik	53	6	Pokiston	1 821 000
7	Burkina-Faso	52	7	Indoneziya	1 781 000
8	Janubiy Sudan	52	8	Meksika	1 421 000
9	Gvineya	47	9	Kongo Demokratik Respublikasi	1 390 000
10	Somali	45	10	Filippin	808 000

tashkil qilmoqda. O'g'il bolalar o'rtasida bolalar nikohi tez-tez uchraydigan mamlakatlar geografik jihatdan xilma-xil bo'lib, qizlar orasida eng ko'p uchraydigan mamlakatlardan farq qiladi [3].

Jumladan, butun dunyoda erta turmush qurish (**child marriage**) darajasining yuqori ko'rsatkichi Afrika mamlakatiga to'g'ri kelmoqda, bu yerda yosh ayollarning 35% i 18 yoshga qadar turmush qurgan, undan keyin Janubiy Osiyo mamlakatlarida qariyb 30% ni tashkil qilmoqda. Lotin Amerikasi mamlakatlarida 24%, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 17%, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida 12% ni tashkil qilmoqda [4] (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, erta turmush qurish darajasi bo'yicha eng ko'p tarqalgan mamlakatlar qatoriga Niger, Markaziy Afrika Respublikasi, Bangladesh kirgan bo'lsa, erta turmush qurish mutlaq soni bo'yicha eng ko'p tarqalgan mamlakatlar qatoriga esa Hindiston, Bangladesh, Efiopiya va Braziliya kabi davlatlar kirmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Nigerda, odatda, qizlarning 76% i 18 yoshgacha, 28% i 15 yoshgacha turmushga chiqadi. Niger bolalar nikohi darajasi bo'yicha dunyoda eng yuqori ko'rsatkichga ega va 18 yoshga to'lmagan yoki turmushga chiqqan ayollarning mutlaq soni bo'yicha 745 000 ta bo'lib, dunyoda 13-o'rinda turadi.

MDH mamlakatlarini kuzatadigan bo'lsak, Rossiyada 2019-yilda nikohlarning aksariyati 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida qayd

etilgan, 469 mingdan ziyod o'g'il bolalar va 396 mingta qizlar turmush qurib, ro'yxatdan o'tgan. Biroq shunga qaramay, 18 yoshgacha bo'lgan turmush qurganlar soni 5,5 mingtani tashkil qilmoqda. **Rossiyada** erta turmush qurishning asosiy sabablaridan biri bo'lib, ommaviy jinsiy xulq-atvorning (**jinsiy aloqaga bo'lgan moyillikning keskin ortishi**) o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Tahlillarga ko'ra, 2021-yilda respublika bo'yicha **93 ta** erta nikoh qayd etilgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan **5 nafarga** oshgan (2-jadval).

18 yoshga to'lmagan nikoh qurganlar soni [7]

Hududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
O'zbekiston Respublikasi	4786	3001	88	93
Qoraqalpog'iston Respublikasi	60	43	1	5
viloyatlar:				
Andijon	420	268	4	3
Buxoro	223	141	1	4
Jizzax	76	81	10	8
Qashqadaryo	642	296	2	3
Navoiy	35	16	1	6
Namangan	261	292	3	4
Samarqand	1742	953	11	9
Surxondaryo	352	238	21	26
Sirdaryo	62	57	12	4
Toshkent	242	142	14	9
Farg'ona	355	235	1	5
Xorazm	108	47	3	4
Toshkent sh.	208	192	4	3

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda erta nikohning eng yuqori ko‘rsatkichi Surxondaryo viloyatida (26 ta) kuzatilgan.

Erta turmush qurish sabablariga har bir mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyati, urf-odati, dini va aholining bilim va qashshoqlik darajasi kabi omillarning xilma-xilligidan kelib chiqib yondashiladi (3-jadval).

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti statistikasida ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan davlatlarda har yili 15–19 yoshdagi, taxminan, 21 million qiz ona bo‘ladi. Shundan 2,5 million kishini 16 yoshdan kichik qizlar tashkil qiladi. “Homiladorlik va tug‘uruq vaqtidagi qiyinchiliklar dunyo bo‘yicha 15–19 yoshli qizlarning o‘limiga ham sabab bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, 15–19 yoshli ona

bo‘ladigan qizlarning ko‘pchiligining hayoti 20–24 yoshlilar bilan solishtirganda, xavf ostida bo‘ladi”, – deyiladi JSST ma’lumotida [9].

Yoshlar balog‘atga yetar ekan, jinsiy munosabatlar haqida noaniq, salbiy va chalkash xabarlar qurshovida qolmoqda. Ularni qiziqtirgan mavzuda internet sahifalari yoki tanish-bilishlardangina ma’lumot olish mumkin. Bu esa jinslar o‘rtasidagi farqlarning me’yoriy fiziologik holat ekanini tushunishda qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, yoshlar oilaviy hayot, tug‘uruqni rejalashtirish, kontraseptiv vositalardan to‘g‘ri foydalanish haqida yetarli bilimga ega bo‘lmaydi.

UNESCOning Global Ta’lim Monitoringi hisobotidan olingan statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, onalarning ta’lim darajasi farzandlar

3-jadval

Erta turmush qurish darajasi bo‘yicha yuqori korsatkich kuzatilgan mamlakatlar (erta turmush qurish sabablari) [8]

№	Erta turmush qurish darajasi bo‘yicha yuqori korsatkich kuzatilgan mamlakatlar	Erta turmush qurish sabablari
1	Markaziy Afrika Respublikasi	qashshoqlik darajasi yuqoriligi, gender normalar o‘rnatilganligi, erkaklar tomonidan kuchli bosim o‘tkazilishi, zararli diniy qadriyatlar, ayollarning bilimsizligi.
2	Bangladesh	qashshoqlik, ta’lim darajasining pastligi, gender normalar va oilaviy maqomga katta urg‘u berilishi, ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka oddiy hol sifatida qaralishi.
3	Mozambik	kambag‘allik, zararli an’anaviy odatlar: ko‘pxotinlilik ko‘plab jamoalarda ustunlik qilishi va bolalar nikohi bilan o‘zaro bog‘liqligi, an’anaviy gender normalar qizlarning bokiraligiga yuqori baho berib, Mozambik qishloqlarida bolalar nikohini abadiylashtirishga yordam berishi, ta’lim darajasining pastligi.
4	Efiopiya	ta’lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, an’anaviy qarashlar, an’anaviy zararli urf-odatlar, ijtimoiy maqom, mustaqil nikoh.
5	Braziliya	qashshoqlik darajasi yuqoriligi, gender normalar o‘rnatilganligi, tashabbuskorlik. Ba’zi qizlar nikohni hayotiga ta’sir qilish va erkinlik izlashning yagona usullaridan biri deb bilishadi. Ba’zan qizning uydan chiqib ketish va turmush qurish tanlovi ota-onalarning repressiyasidan kelib chiqqan isyon sifatida qabul qilinadi, bu esa, o‘z navbatida, ularning oilaviy obro‘sig‘a bo‘lgan xavotiri va qizlari nikohdan tashqari homilador bo‘lish xavotiri bilan bog‘liq;
6	Pokiston	ta’lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, diniy qarashlar va zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi: nikoh ota-onalar tomonidan qizlar uchun belgilanishi.
7	Indoneziya	qashshoqlik, ta’lim darajasining pastligi, gender normalar va oilaviy maqomga katta urg‘u berilishi.
8	Meksika	ta’lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, diniy qarashlar va zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi, qizlar savdosi avj olganligi.
9	Rossiya	jinsiy aloqaga bo‘lgan moyillikning keskin ortishi.
10	Markaziy Osiyo mamlakatlari	ta’lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, diniy qarashlar va zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi, qizlar savdosi va qizlarni o‘g‘irlashning avj olganligi.

salomatligini, ularning to'g'ri ovqatlanishini va o'z vaqtida emlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bolalar o'limi, onalar o'limi va OITS kasalligini kamaytirishda ham yosh onalardagi tibbiy bilim muhim ahamiyatga ega ekan [10].

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Gollandiya, Germaniya va Fransiya singari davlatlardagi maktab dasturlaridan jinsiy tarbiya mavzusi alohida o'rin olgani bois o'smirlarning homilador bo'lish holatlari deyarli uchramaydi. Shuningdek, Shvetsiya, Daniya, Belgiyada ham bu masalaga jiddiy yondashiladi. Mazkur mamlakatlarda to'g'ri yo'lga qo'yilgan jinsiy tarbiya, jamiyatdagi gender rollar, gender tengligi masalasiga to'g'ri munosabat tufayli muntazam ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilmoqda.

Hozirgi kunga kelib dunyo mamlakatlari orasida o'smirlar o'rtasidagi homiladorlikning eng past ko'rsatkichlari Yaponiya, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya va Gonkong kabi mamlakatlarda kuzatilmoqda, bu davlatlarning safiga Xitoy ham qo'shilgan bo'lib, hatto Yevropa mamlakatlarini ham ortda qoldirib kelmoqda.

UNICEF erta turmush qurishning oldini olish bo'yicha beshta vazifa belgilab olgan:

1) o'spirinlar, ayniqsa, bolalar nikohi xavfi ostida bo'lgan qizlar uchun imkoniyatlar va resurslarni kengaytirish;

2) o'spirin qizlar va o'g'il bolalar huquqlarini himoya qiladigan qulay muhit yaratish uchun huquqiy bazani mustahkamlash;

3) targ'ibot, dasturlash, o'qitish va taraqqiyotni kuzatish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratish va ulardan foydalanishni kengaytirish;

4) bolalar nikohi xavfi ostida bo'lgan yoki ushbu nikoh ta'sirida bo'lgan o'spirinlarning ehtiyojlariga javob beradigan tizimlar va xizmatlarni takomillashtirish;

5) sarmoyalash va qizlarni qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy aloqalarni qabul qilishni va ko'rinishni hamda qizlarga nisbatan ijtimoiy talablarni, shu jumladan, o'g'il bolalar va erkaklarni jalb qilishni oshirish [11].

Xalqaro ayollar tadqiqotlari markazi (ICRW – **International Center for Research on Women**) tomonidan bolalar nikohini kechiktirish yoki oldini olish bo'yicha beshta strategiya ishlab chiqilgan:

1. Axborot, ko'nikma va qo'llab-quvvatlash tarmoqlari bilan qizlarga vakolat berish.

2. Qizlar va ularning oilalarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish.

3. Ota-ona va jamiyat a'zolarini o'qitish hamda birlashtirish.

4. Qizlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Qo'llab-quvvatlovchi qonunlar va siyosatni rag'batlantirish [12].

Nigerda erkaklar uchun maktablar (Husband's schools) tashkil qilingan bo'lib, erkaklar qizlarning ta'lim olishlari, ayollar va bolalarning sog'liqni saqlash hamda oilani qanday rejalashtirish bo'yicha ta'lim olishmoqda [13]. Bundan tashqari, 2016-yilda **Xotin-qizlar va ijtimoiy rivojlanish vazirligi (Ministry of Women Affairs and Social Development)** bolalar nikohini yo'q qilish bo'yicha Milliy strategiyani qabul qilgan. Ushbu strategiya 2020-yilga kelib bolalar nikohini 40% ga qisqartirish va 2030-yilgacha to'liq tugatish maqsad qilingan. Milliy strategiyada zararli urf-odatlarini o'zgartirish, qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va yosh ayollarga iqtisodiy imkoniyatlar yaratish kabi dasturlarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar qamrab olingan. 2015-yilda bolalar nikohini tugatish bo'yicha Texnik ishchi guruh tuzilgan bo'lib, guruh BMT agentliklari va 30 dan ortiq ayol a'zoldan tashkil topgan. U xabardorlikni oshirishga, odamlarning xulq-atvorini o'zgartirish, qonunlar va qoidalarni kuzatib borish hamda baholash kabi vazifalarni bajarishadi.

Hindiston: Hindiston UNICEF-UNFPAning "Bolalar nikohini tugatish bo'yicha global tezlashtirilgan harakat" (**Global Programme to Accelerate Action to End Child Marriage**) dasturiga kritilgan bo'lib, 2018-yilda mamlakat miqyosida 2,3 million yosh qizlar jalb qilingan, ularni o'qitish, sog'liqni saqlash va hayotiy bilim-ko'nikmalarini oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratib berildi.

Afg'onistonda [World Vision](#) tomonidan 4000 dan ortiq imomlarga gender munosabatlari, shu jumladan, gender tengligi, ta'lim olish huquqlari va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha treninglar o'tkazilgan. Natijada afg'on diniy yetakchilari jamoat guruhlari, maktablar, harbiylar va politsiya bilan bolalar nikohiga qarshi kurashish hamda ijtimoiy adolat uchun targ'ibot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda [14].

Bangladeshda esa qizlarni va ularning oilalarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, ota-onalarni o'qitish, qizlarning

yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish, qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish, tug'uruqdan oldin sog'liqni saqlash xizmatidan erkin va tekin foydalanish imkoniyatlari kuchaytirilgan [15].

Kanadada (Plan International Canada [16]) dasturi asosida erta turmush qurishning oldini olish bo'yicha quyidagi usul va vositalar ishlab chiqilgan [17]:

- 1. Qizlarni o'qitish.** Ta'lim qizlarni bolalar nikohidan saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Darhaqiqat, qiz maktabda qancha uzoq vaqt tursa, uning 18 yoshga to'lgunga qadar turmushga chiqishi va o'smirlik yillarida farzand ko'rishi ehtimoli shunchalik past bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim qizlarning ish topish, o'z oilalarini boqish vositasi bo'yicha ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu qashshoqlik davrini buzishga, o'ta qashshoqlik va/yoki moliyaviy daromad natijasida yuzaga keladigan bolalar nikohining oldini olishga yordam beradi.
- 2. Qizlarga vakolat berish.** Har bir qiz o'z kelajagini o'zi hal qilish huquqiga ega, ammo har bir qiz buni bilmaydi, shuning uchun qizlarga vakolat berish bolalar nikohini to'xtatish uchun juda muhimdir. Agar qizlar o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilsalar, o'z huquqlarini bilishlari bilan qurollansa va boshqa vakolatli qizlarning tengdosh guruhlari tomonidan qo'llab-quvvatlansa, ular o'rnidan turib, bolalar nikohi kabi adolasizliklarga "YO'Q" deyishlari mumkin. Vakolatli qizlar istiqbollarni qayta shakllantirishga va qiz bo'lishni anglatadigan odatiy me'yorlarga qarshi turishga qodir.
- 3. Qizlarning huquqlarini qonun bilan ta'minlash, qonunchilik institutlarining ularga yordam berishi va o'qitishi.** Ota-onalar va jamoat rahbarlari ko'pincha qizning qachon va kimga turmushga chiqishiga qaror qilishadi. Ko'pgina an'anaviy jamoalarda nikoh qizlarni xavfsiz, himoyalangan va eri tomonidan iqtisodiy jihatdan ta'minlanadi, deb ishonishadi. Biroq buning aksi – nikoh qizlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga xavf tug'diradi. Darhaqiqat, 18 yoshdan

oldin turmushga chiqqan qizlar uy sharoitida zo'ravonlikka duch kelishadi Bundan tashqari, yosh kelinlar homiladorlik va tug'ish paytida o'lim bilan bog'liq holatlarni boshdan kechirishlari mumkin. Ota-onalar bolalar nikohining ko'plab salbiy oqibatlarini to'g'risida ma'lumot olishganda, bu ularning o'z qarashlarini o'zgartirishiga, qizlarning huquqlari haqida gapirishga va boshqalarni ham shunga undashga ilhomlantirishi mumkin.

- 4. Kam ta'minlangan va qashshoq oilalarni qo'llab-quvvatlash.** Mikromoliyaviy kreditlar kabi oilalarga yashash imkoniyatlarini berish moliyaviy ehtiyoj natijasida yuzaga keladigan bolalar nikohining oldini olishning samarali usuli hisoblanadi. Oilalar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirganda, ular qizlarini bemalol o'qitishlari, oliy ma'lumotli qilishlari, buning natijasida kelajakda daromad olishga yordam berishi mumkin.
- 5. Qonunchilikni kuchaytirish.** Bolalar nikohi keng tarqalgan mamlakatlarda hukumatga nikoh uchun eng kam yoshni 18 yoshgacha oshirish to'g'risida iltimos qilish ijobiy o'zgarishlar uchun muhim qadamdir. Minimal yoshni oshirgandan so'ng qonunlarning bajarilishini ta'minlash uchun davlat amaldorlari va jamoat rahbarlari o'rtasida ushbu qonunlar to'g'risida xabardorlikni davom ettirish zarur. Tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalar va nikohlarni ro'yxatdan o'tkazish kabi boshqa huquqiy siyosat bolalar nikohini oldini olishning kuchli vositasidir.

2014-yilda Avstraliyada hukumat tomonidan moliyalashtirilgan holda majburiy nikoh bo'yicha birinchi elektron o'quv kursi ochilgan. Kurs, asosan, avstraliyalik jamoatchilik va o'qituvchilar, maslahatchilar, sog'liqni saqlash xodimlari, bolalarni himoya qilish bo'yicha xodimlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun mo'ljallangan. 2015-yilda Avstraliya hukumati tomonidan "My Blue Sky" [18] onlayn platformasi moliyalashtirildi. My Blue Sky – bu majburiy

nikohdan zarar ko'rganlar uchun maxsus veb-sayt va onlayn yuridik xizmat portalidir.

Avstriyadagi ixtisoslashtirilgan notijorat tashkiloti bo'lgan "Orient Express" majburiy nikoh xavfi ostida bo'lgan yoki zarar ko'rgan ayollar va qizlarga turli xil tillarda psixologik maslahat, ijtimoiy g'amxo'rlik va moliyaviy yordam beradi. 2013-yildan buyon majburiy nikoh xavfiga duchor bo'lgan har bir ayol va qizlar uchun vaqtinchalik boshpana uchun uy-joy bilan ta'minlab kelmoqda [19].

Janubiy Koreya bolalar nikohiga qarshi kurashib kelmoqda, 2017-yilda Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (KOICA) bolalar nikohining oldini olish va ularga javob berish dasturlarini kengaytirishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqladi [20].

Yuqoridagi va boshqa davlatlarning erta turmush qurish va erta tug'uruq holatlarining oldini olish bo'yicha tajribalarini umumlashtirgan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- **xotin-qizlarni o'qitish:** UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, kam va o'rta daromadli mamlakatlarda har uchinchi qiz 18 yoshga to'lgunga qadar turmushga chiqadi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erta turmushga chiqadigan qizning ma'lumoti qadrlanmaydigan jamoadan kelib chiqishi mumkin. Ehtimol, u savodsiz bo'lib, inson huquqlarini deyarli anglamaydi. Ham boshlang'ich, ham o'rta ma'lumotga ega bo'lgan qizlar ishga joylashish imkoniyati orqali o'zlarini va o'z navbatida, oilalarini ta'minlash vositalarini yaxshilaydilar. Jamiyatga murojaat qilish va ta'lim olish bo'yicha an'anaviy hamda kamsituvchi qarashlarga qarshi chiqishda yordam berish muhimdir. Masalan, Senegalda joylashgan ayollarning inson huquqlari bo'yicha Tostan xayriya jamg'armasi jamoat oqsoqollari, rahbarlar va ota-onalarga yosh ayollarga ta'lim berishning ahamiyati to'g'risida tushuntirish dasturlarini ishlab chiqishgan [21];
- **xotin-qizlarning qadr-qimmatini ko'tarish:** bolalarning nikohi keng tarqalgan ko'plab mamlakatlarda qizlar ko'pincha iqtisodiy yuk sifatida qaraladi. O'g'il

bolalarni afzal ko'rgan oilalardagi qizlar ko'pincha o'zlarini past baholaydilar va ishonchsiz bo'lishadi. Hindistondagi Pachod Sog'liqni saqlashni boshqarish institutida (**Institute of Health Management, Pachod (IHMP) [22]**) ishlaydigan doktor Ashok Dyalchand Hindistonning qishloqlarida yashovchi o'spirin qizlar haqida ilmiy loyiha o'tkazdi. "**Rozenberg shkalasi**" [23] yordamida yosh qizlarning o'zini o'zi qadrlash darajasini o'lchadi va qizlarning qadr-qimmatini qanchalik past bo'lsa, bolalarning turmush qurish xavfi shuncha yuqori ekanligini aniqladi. Doktor Dyalchand yosh qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish dasturlari erta nikohning oldini olish, qizlarning asosiy inson huquqlari, nikohdan voz kechish huquqi va sog'liqni saqlash hamda jinsiy ta'lim bo'yicha ta'lim dasturlarini xabardor qilish orqali o'z-o'zini anglash va o'z-o'zining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqladi;

- **ota-onalarni o'qitish:** qishloq va tumanlarda yashovchi ba'zi ota-onalar erta nikoh yosh qizlarni iqtisodiy jihatdan ta'minlash, g'amxo'rlik qilish, balog'at yoshiga yetguncha jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish usuli, deb hisoblashadi. Afsuski, oilalar ko'pincha erta turmush qurishning salbiy va zararli oqibatlari, shu jumladan, bunday erta yoshdagi homiladorlikning yomon asoratlaridan xabardor bo'lmaydi. Ushbu ota-onalar uchun majburiy erta nikohning zararli oqibatlari to'g'risida ma'lumot berish lozim bo'ladi;
- **diniy rahbarlar va jamoat oqsoqollarini safarbar qilish:** dindor oqsoqollar va jamoat rahbarlari – deyarli har doim erkaklar erta yoki bola nikohi keng tarqalgan jamoalarda qaror qabul qiluvchilardir. Ushbu qudratli erkaklarni jalb qilish va ularga ta'lim berish jamoaning bolalar nikohiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishning kalitidir. Masalan, "**Tostanning jamoatchilikni kuchaytirish dasturi**" [24] mahalliy oqsoqollar va diniy yetakchilarni jalb qilish

va ularni bolalar nikohi kabi urf-odatlarining jamoalarga zararli ta'siri to'g'risida ma'lumot berishga qaratilgan. Kerakli bilimlarga ega bo'lgandan so'ng Tostan butun qishloq bilan, shuningdek, yuqori xavfli qizlarning ota-onalari va qizlarning o'zlari bilan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazadi. Ushbu tadbirlar natijasida Senegal qishloqlarida ba'zi zararli odatlarga, xususan, bolalar nikohiga chek qo'yilganini e'lon qildi;

- **turmush qurib bo'lgan o'spirin qizlarni qo'llab-quvvatlash:** qarchi asosiy e'tibor bolalar nikohining oldini oladigan jamoalarga qaratilgan bo'lsa-da, allaqachon turmush qurgan yosh qizlar ham qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Bolalarning nikohi izolyatsiya qilingani va o'qishni tugallash yoki davom ettirish imkoniyatining kamligi bilan bir qatorda, yosh qizlarni uy sharoitida jinsiy, jismoniy va psixologik jihatdan zo'raonlik xavfi ostida ham qolishi mumkin. Masalan, "CARE" tashkiloti Efiopiyada erta turmush qurgan qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muvaffaqiyatli TESFA (amharyiy tilida umid degan ma'noni anglatadi) loyihasini amalga oshirdi. Ushbu loyiha erta turmush qurgan qizlarga ularning reproduktiv huquqlari, kontratsepsiya va sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumot berishga qaratilgan [25]. Jamiyatning barcha a'zolariga voyaga yetmagan kelinlarni qo'llab-quvvatlashning afzalliklari va buni amalga oshirishning eng yaxshi usullarini muhokama qilish imkoniyatini beradigan yaxlit yondashuv uch yil davomida juda yaxshi natijalarga erishdi.
- **bola nikohiga qarshi qonunchilikni qo'llab-quvvatlash:** yuqorida Kanada va Turkiya misolida keltirib o'tdik;
- **jamiyat yetakchilari sifatida ayollarni himoya qilish:** bolalar nikohi bilan shug'ullanadigan ko'plab jamoalarda ayollar ko'pincha qaror qabul qilishdan chetlashtiriladi va mahalliy siyosatda o'z so'zlariga ega emas. Ayollarning o'z muammolarini aytib, har qanday sohada ayollarning huquqlarini himoya qilish juda

muhimdir, chunki bu ko'pincha bolalar nikohi va ayollarga nisbatan zo'raonlik qilish kabi zararli urf-odatlarining yo'q qilinishini tezlashtiradi. Masalan, Tostan [26] tashkiloti ayollarga yetakchilik ko'nikmalari va targ'ibot ishlarini o'rgatmoqda. Ularning 80% jamoatchilikni boshqarish qo'mitalari ayollar tomonidan muvofiqashtiriladi va bu ularga hayotiy ko'nikmalar hamda mahalliy jamoat yig'ilishlarida qatnashish uchun zarur bo'lgan ishonchni beradi. Natijada Senegal va Tostan faoliyat yuritadigan boshqa mintaqalarda ayollar tobora ko'payib bormoqda hamda mahalliy jamoalarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- **ayollarni moddiy qo'llab-quvvatlash:** avlodlararo qashshoqlik ko'pincha qizlarni erta turmushga berishga majbur qilishning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Buning boisi oilalarda katta opaning nikohiga bergan mahri kichik bolalarning omon qolishi uchun zamin hisoblanar ekan. Oilalarga iqtisodiy ko'mak berish, qizlarini erta turmushga uzatishini istamagan ota-onalarga yordam berishning bir usuli bo'lishi mumkin. Efiopiyadagi "Bervan Xevane loyihasi" [27] misolida ko'rishimiz mumkinki, kambag'al oilalarni echki yoki qo'y bilan ta'minlash ota-onalarga qizlarni erta turmushga berish qarorlaridan voz kechishiga turtki berdi. Qashshoqlikda qolgan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash yosh qizlarni erta turmush qurish muammosidan qutqazar ekan;
- **mamlakat miqyosida xabardorlikni oshirish:** jamiyat uchun muhim bo'lgan birinchi qadamlardan biri bu – masalani ko'proq o'rganish va insonlarga erta turmushning og'riqli oqibatlarini haqida xabardor qilish. Qizlarning huquqlarini himoya qilish hech qachon salbiy qadam sifatida qaralmasligi kerak. Bu haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va keng jamoatchilik birgalikda erta turmush muammolarini tugatishi lozim;
- **jamiyatda otalarni o'qitish:** erkaklar qizlarning huquqlari va erta turmush qurish,

uning sogʻligʻi va baxtiga qanday zarar yetkazishi, oilasini buzishi mumkinligini bilishlari juda muhimdir. Ayol va qizlarga nisbatan kamsitishlar va zoʻravonliklarga qarshi chiqishlari uchun hamma joyda oʻqimishli erkaklar kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, erta turmush qurishning oldini olish vazifasiga har bir

mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyat, urf-odat, din va aholining bilim hamda qashshoqlik darajasi kabi omillarning xilma-xilligidan kelib chiqib yondashilmogʻi lozim. Chunki sabablar yuqoridagi omillarga bogʻliq boʻlmoqda. Shuning uchun muammoga qaratilgan yechimlar yuqoridagi faktorlarni hisobga olmogʻi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. <https://www.girlsnotbrides.org/about-child-marriage/>
2. <https://www.globalcitizen.org/en/content/5-countries-with-highest-child-marriage/>
3. UNICEF global databases, 2019, based on DHS, MICS and other national surveys, 2007-2017.
4. <https://data.unicef.org/topic/child-protection/child-marriage/>
5. <https://www.girlsnotbrides.org/where-does-it-happen/atlas/>
6. <https://www.girlsnotbrides.org/where-does-it-happen/atlas/niger>
7. Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari
8. <https://www.girlsnotbrides.org/ma'lumotlari-asosida-tahlil-qilindi>
9. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/adolescent-pregnancy>
10. <https://en.unesco.org/gem-report/report/2020/inclusion>
11. <https://www.unicef.org/rosa/what-we-do/child-protection/child-marriage>
12. <https://www.icrw.org/issues/child-marriage/>
13. <https://www.worldvision.org/our-work/health/schools-save-lives>
14. <https://www.worldvision.org/our-work/country-profiles/afghanistan>
15. <https://www.worldvision.org/our-work/country-profiles/bangladesh>
16. <https://plancanada.ca/about-plan>
17. <https://stories.plancanada.ca/5-ways-to-end-child-marriage/>
18. My Blue Skype, [website], 2015, <https://mybluesky.org.au> (accessed January 2020).
19. Orient Express, [website], <https://www.orientexpress-wien.com> (accessed January 2020).
20. The Korea Times, Korea's role in ending child marriage in Bangladesh, [website], 2018, http://www.koreatimes.co.kr/www/news/opinion/2015/10/197_182408.html (accessed January 2020).
21. <https://www.tostan.org/>
22. <https://www.ihmp.org/>
23. <https://wnorton.com/college/psych/psychsci/media/rosenberg.htm>
24. Tostan's Community Empowerment Programme. <https://www.tostan.org/programs/community-empowerment-program/>
25. <https://www.careinternational.org.uk/who-we-are/about-care>
26. <https://www.tostan.org/>
27. Award-Winning Programme. <https://www.unfpa.org/news/award-winning-programme-gives-ethiopian-girls-safer-transition-adulthood>

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2022/1 (2)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 07.06.2022.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 5,1.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangiheyot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.